

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 81’373.47:811.93*

UMURZAKOVA GULCHEXRA EGAMBERDIYEVNA

**UNDOV, TAQLID VA MODAL SO‘ZLAR PRAGMATIKASI
(turli tizimdagi tillar misolida)**

10.00.11 – Til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI**

Ilmiy rahbar: filol.fan.dokt., prof. D.E.Lutfullayeva

TOSHKENT – 2025

MUNDARIJA

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).....	3
I BOB. TILSHUNOSLIKDA UNDOV, TAQLID VA MODAL SO‘ZLARNI O‘RGANISHNING TURLI ASPEKTLARI.	
1.1. Tilshunoslikda undov so‘zlarni o‘rganishga sistem-struktur yondashuv.....	11
1.2. Modal va taqlid so‘zlarning sistem-struktur aspektda o‘rganilishi.....	18
1.3. Undov, taqlid va modal so‘zlar pragmalingvistikaning tadqiqot obyekti sifatida.....	20
Bob bo‘yicha xulosalar	42
II BOB. UNDOV SO‘ZLAR PRAGMATIKASI.	
2.1. Undov so‘zlarda pragmatik bahoning ifodalanishi.....	43
2.2. Undov so‘zlar presuppozitsiya signalizatori sifatida.....	57
2.3. Undov so‘zlarning deyktik funksiyasi.....	65
Bob bo‘yicha xulosalar.....	71
III BOB. TAQLID VA MODAL SO‘ZLAR PRAGMATIKASI.	
3.1. Taqlid va modal so‘zlarda baho munosabatining ifodalanishi.....	73
3.2. Taqlid va modal so‘zlar orqali presuppozitsiyaning ifodalanishi.....	89
3.3. Taqlid so‘zlarning deyktik xususiyati.....	97
Bob bo‘yicha xulosalar.....	107
XULOSA	108
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	110

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asrning so‘nggi choragi yangi lingvistik yo‘nalishlarning shakllanishi davri bo‘ldi. Bu davrda tilshunoslikda lingvokulturologiya, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi yangi yo‘nalishlar yuzaga keldi. Tilshunoslikning bu yo‘nalishlarida tilda inson tafakkuri, ruhiyati, tasavvurlarining aks etishi, insonning dunyoni idrok etishi va uni tilda ifoda etish mexanizmlari; til birliklarining nutq faoliyati bilan aloqasi kabi masalalar o‘rganilmoqda. Mana shunday lingvistik yo‘nalishlardan biri pragmalingvistika bo‘lib, unda asosiy e‘tibor til birliklarini nutqiy vaziyat, kontekst, nutq egalarining til ko‘nikmalari va nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari bilan bog‘liq holda tadqiq etishga qaratiladi. Pragmalingvistikada turli tizimdagi tillarning o‘ziga xos pragmatik xususiyatlarini aniqlash dolzarb muammolardan biridir. Keyingi yillarda o‘zbek tilini boshqa tillar bilan qiyosan o‘rganish orqali uning o‘ziga xos pragmatik xususiyatlarini aniqlashga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Binobarin, bugungi kunda “milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash”¹ har qachongidan ham dolzarbdir.

Dunyo tilshunosligida keyingi yillarda jadallik bilan rivojlanish yo‘lidan borayotgan pragmalingvistika muammolari bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga kelib, Sh.Safarov qayd etganidek, “pragmalingvistika hech qanday gumonsiz “tetapoya” davridan o‘tdi, ushbu soha o‘z tadqiq obyekтини (nutqiy muloqot tizimi) va tahlil metodlarini asosan aniqlab oldi. Pragmatik tahlil tamoyillarini belgilovchi asosiy metodologik g‘oya ham aniq: bu – faoliyat nazariyasidir. Ammo pragmalingvistika hamon “navqironlik”

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги “Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади” мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.

davrida. Navqironlik esa – istiqbolli rejalarga to‘liqlikdir, hal etilishi lozim bo‘lgan muammolardan tap tortmaslikdir. Darhaqiqat, barkamollikka intilayotgan pragmatika fani lisonning inson, jamiyat xizmatida bo‘lishidagi vazifasining qanday amalga oshirilishi borasida izlanishlarni davom ettirishga majbur”². Mana shunday izlanishlardan biri turli tizimdagi tillarga mansub undov, taqlid va modal so‘zlarning pragmatik tabiatini ochib berish, ularning nutq vaziyati, kontekst bilan bog‘liq holda yuzaga chiquvchi xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat bo‘lib, ushbu muammo bugungi pragmalingsvistikaning muhim masalalaridan biri sanaladi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida olib borilayotgan islohotlarda o‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash va ona tilimizni har tomonlama rivojlanishi uchun qaratilgan harakatlarda umummilliy g‘oyalar asos bo‘lib xizmat qilmoqda. N.Mahmudov qayd etganidek, “Istiqlol sharofati bilan milliy o‘zlik, milliy iftixor, milliy ma’naviyat degan tushunchalar barqarorlashdi. Milliy qadriyatlarning muqaddasligi chuqur anglanmoqda. Tilimizning har taraflama kamoli umumdavlat ishiga aylandi”³. Mana shunday yangi bir davrda pragmalingsvistikada pragmatik mohiyat kasb etuvchi til birliklarini saralash, ularni til egalarining voqelikka munosabati, nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlari, muloqot vaziyati, kontekst kabi nolisoniy omillar bilan bog‘liq holda tadqiq etish markaziy masala sanaladi. Til sathining mana shunday pragmatik birliklari sirasiga undov, modal va taqlid so‘zlar kiradi. Bu morfologik birliklar inson omilini yorqin tarzda aktuallashtiruvchi birliklar bo‘lib, ularning turli tizimdagi tillardagi umumiy va o‘ziga xos pragmatik xususiyatlarini aniqlash tilshunoslikning muhim nazariy muammolaridan biridir. Dissertatsiyada ayni shu muammoni o‘rganish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu holat tanlangan mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-son farmoni, 2017-yil

² Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 6.

³ Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б. 16.

7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni, 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoni va 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-son qarori, shuningdek, 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-58-50-son farmoni, 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va davlatni ijtimoiy, demokratik huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda turli tillarga mansub morfologik birliklarni pragmatik aspektda tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlar sanoqli, ammo alohida olingan tillarda ayrim morfologik birliklar lingvopragmatik yo‘nalishda o‘rganilgan.

Dunyo tilshunosligida til birliklarining pragmatik xususiyatlari tekshirilgan tadqiqot ishlarida pragmalingvistikaning o‘rganish obyekti, nazariy masalalari, dolzarb muammolariga munosabat bildirilgan, nutqda ayrim til birliklari misolida baho munosabati, konnotativ ma’no, presuppozitsiyaning ifodalanishi maxsus tadqiq etilgan. Jumladan, ingliz, rus, nemis, tojik, o‘zbek tilshunosligida undov, taqlid, modal so‘zlarni pragmalingvistik aspektda o‘rganishga qaratilgan ayrim tadqiqotlar mavjud. Ayniqsa, o‘tgan asrning so‘nggi choragidan boshlab bu

yoʻnalishda koʻplab tadqiqotlar olib borildi. Ularda undov, taqlid, modal soʻzlarning pragmatik xususiyatlari ham alohida, ham ikki va uch til misolida qiyosan oʻrganilgan. Xususan, G.V. Sinekopa, S.A.Aliyeva, Y.S. Nikolayeva, T.V.Belous, I.A.Turdi-Axanova, T.M.Shkapenko, Z.Karimova, P.R. Bobokalonov, R.R. Bobokalonov, I.S. Kaxarova tadqiqotlarida ayrim tillardagi undov, taqlid, modal soʻzlarning pragmatik xususiyatlari ochib berildi⁴. Ammo turli tizimga mansub tillardagi morfologik birliklarni pragmatik aspektida oʻrganish asosida ularga xos umumiy qonuniyatlarni aniqlashga qaratilgan ishlar sanoqli. Xususan, tadqiqotimiz obyekti boʻlgan undov, taqlid va modal soʻzlarning pragmatik xususiyati oʻzbek, ingliz, rus tillari misolida tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Tadqiqot mavzusi Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti Oʻzbek tilshunosligi kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Oʻzbek tili taʼlimi va tadqiqi” konsepsiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar rejasiga kiritilgan.

⁴ Sinekopa G.V. Междометия первого слоя в английском языке и их дериваты: семантико-прагматический и ономазиологический аспекты: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Одесса. 1989. –16 с.; Алиева С.А. Функционально-семантический анализ звукоподражательной лексики в современном русском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 1997. – 216 с; Николаева Е.С. Междометия в прагмалингвистическом аспекте (На материале русского и английского языков): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ростов н/Дону, 2006. – 180 с.; Белоус Т.В. Когнитивно-прагматический анализ междометий в англоязычном дискурсе: Дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2006. – 187 с.; Турды-Аханова И.А. Сопоставительный анализ междометий в таджикском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2015. – 132 с.; Шкапенко Т.М. Интеракционально-прагматические функции междометий (на материале заимствованных англо-американских интеръективов в современном русском языке): Дисс. ... докт. филол. наук. – Калининград, 2017. – 378 с. ; Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг сопиопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – 140 б.; Бобокалонов П.Р. Каноник модели французча-ўзбекча гапларнинг систем-структурал, лингводидактик ва компаратив таҳлили: Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс. – Бухоро, 2023. – 130 б.; Бобокалонов Р.Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 135 б.; Кяхарова И.С. Инглиз ва ўзбек тилларида эмотив, тақлид ва модал сўзларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2024.– 202 б.

Tadqiqotning maqsadi turli tizimdagi tillar, xususan, o‘zbek, ingliz, rus tillaridagi undov, taqlid va modal so‘zlarning pragmalingvistik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pragmalingvistikaning nazariy muammolari doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlariga munosabat bildirish;

turli tizimdagi til birliklarini pragmalingvistik aspektda o‘rganishning amaliy ahamiyatini yoritish;

ma’no qirralari kontekst, nutq vaziyati asosida aktuallashtiruvchi undov, taqlid va modal so‘zlarni aniqlash, ularni pragmalingvistik aspektda tadqiq etish;

o‘zbek, ingliz, rus tillaridagi undov, taqlid va modal so‘zlarning baho munosabatini ifodalashi hamda deyktik vazifa bajarishidagi umumiy pragmatik xususiyatlarini yoritish, presuppozitsiya ifodalab, gapni semantik jihatdan murakkablashtirishi qonuniyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyektini turli tizimdagi tillar, xususan, o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi pragmatik vazifa bajaruvchi undov, taqlid va modal so‘zlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi undov, taqlid va modal so‘zlarning pragmalingvistik xususiyatlari belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, zidlash, pragmalingvistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, undov, taqlid va modal so‘zlarning lingvopragmatik xususiyatlarini yoritishda kontekstual tahlil metodiga ham murojaat qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turli tizimdagi tillar, xususan, o‘zbek, ingliz va rus tillarida qo‘llanuvchi undov, taqlid va modal so‘zlarning umumiy va farqli xususiyatlari pragmatik jihatdan aniqlangan;

o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi undov, taqlid va modal so‘zlarning pragmatik xususiyatlaridagi milliy o‘ziga xos jihatlar aniqlangan;

undov, taqlid va modal soʻzlarning nutqda pragmatik vazifa bajarishiga turtki bergan lingvistik omillar: deyktik xususiyati, baho munosabatini ifodalashi dalillangan;

undov, taqlid va modal soʻzlarning pragmatik vazifa bajarishiga turtki bergan ekstralingvistik omillar: nutq egasining kommunikativ maqsadi, muloqot vaziyati omillarining roli belgilangan va presuppozitsiya ifodalashi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqotda undov, taqlid va modal soʻzlarning pragmatik xususiyatlari boʻyicha chiqarilgan nazariy xulosalar umumiy tilshunoslik hamda milliy tilshunoslik, xususan, oʻzbek, ingliz, rus tilshunosligini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishda amaliy ahamiyatga ega;

tadqiqotda koʻtarilgan muammolar “Tilshunoslik nazariyasi”, “Umumiy tilshunoslik”, “Pragmalingvistika” singari fanlar muammolari sirasiga kiradi. Shu jihatdan ushbu ish mazkur fanlar boʻyicha yaratiladigan darslik, oʻquv qoʻllanmalarida undov, taqlid va modal soʻzlarga oid bilimlarning mukammallashuviga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda tilshunoslikning zamonaviy tadqiq usullari yordamida mavzu boʻyicha ilmiy asoslangan, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilganligi, oʻzbek, ingliz, rus tillariga oid faktik materiallarni tahlil qilish orqali undov, taqlid va modal soʻzlarning pragmatik xususiyatlaridagi milliy oʻziga xoslik aniqlanib, xulosalar umumlashtirilganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyadan oʻtkazilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli tizimdagi tillardagi undov, taqlid va modal soʻzlarning antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida oʻrganilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy xulosalar turli tizimdagi tillarda morfologik birliklarni kontekst, muloqot vaziyati, til egalarining nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlari kabi tashqi omillar bilan bogʻliq holda tadqiq etishda nazariy asos vazifasini oʻtaydi.

Dissertatsiyada amalga oshirilgan pragmalingvistik tahlil usullarini ushbu aspektidagi tadqiqotlarda amaliy jihatdan qo'llash mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi Lingvistika yo'nalishida o'qitiladigan "Pragmalingvistika", "Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari" fanlaridan o'quv qo'llanmalari, darsliklarni yaratishda hamda bu yo'nalishda maxsus kurs, tanlov fanlarini tashkil etishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turli tizimdagi tillardagi undov, taqlid va modal so'zlarning pragmatik tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

turli tizimdagi tillarda undov, taqlid va modal so'zlarning pragmatik xususiyatlari muammosining tadqiqi asosida chiqarilgan nazariy xulosalardan "Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan "Filologiya yo'nalishi bo'yicha ingliz tilini o'rganish, baholash sifatining shakl va tamoyillariga zamonaviy yondashuv" nomli amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 5-apreldagi 89-03-1287 hamda sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek, rus va ingliz tili egalarining undov, taqlid va modal so'zlarni idrok etishi, ularni nutqida qo'llashi bo'yicha loyihada ilgari surilgan materiallarni mazmunan boyitishga muvaffaq bo'lingan;

turli tizimdagi tillarda undov, taqlid va modal so'zlarning pragmatik xususiyatlari, milliy o'ziga xos farqli belgilariga oid xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasi "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan 2024-yil avgust va sentyabr oylarida efirga uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "Til – millat ko'zgusi" nomli eshittirishlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 4-oktyabrdagi 04-36-1094 sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu radioeshittirishlarning ilmiy-ommabopligi, ilmiy natijalarga asoslanilganligi ta'minlangan;

undov, taqlid va modal so'zlarning nutqda pragmatik vazifa bajarishga xoslanishi, ular ishtirokida tuzilgan gaplarning semantik murakkablashuvi haqidagi

ilmiy natija va xulosalardan 2022-2023-yillarda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan “O‘zbek milliy raqs san’atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug‘atlar) to‘plami yaratish” mavzusidagi F3-2019081663 raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, “O‘zbek milliy raqs san’ati harakatlari nomlarining qisqacha o‘zbekcha-inglizcha-nemischa izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2024-yil 5-sentyabrdagi 1/04-118 sonli ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotda til birliklarining nutqiy imkoniyatlari bo‘yicha chiqarilgan xulosalar loyiha materiallari mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

turli tizimdagi tillarda undov, taqlid va modal so‘zlar ishtirok etgan gaplarning semantik murakkablashuvi qonuniyatlariga doir materiallardan O‘zR FA Qoraqalpoq bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti tomonidan FA-F1-G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanigan (O‘zRespublikasi FA Qoraqalpoq bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2024-yil 17-oktyabrdagi 482-1 sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyihada tilda funksional so‘z yasalishi masalasiga oid ilgari surilgan ilmiy qarashlar yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 15 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, 15 ta maqola (jurnal va ilmiy-uslubiy to‘plamlarda) chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnalda) e’lon qilingan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 121 betni tashkil etadi.

I BOB. TILSHUNOSLIKDA UNDOV, TAQLID VA MODAL SO‘ZLARNI O‘RGANISHNING TURLI ASPEKTLARI

1.1. Tilshunoslikda undov so‘zlarni o‘rganishga sistem-struktur yondashuv

Muloqot mahsuli bo‘lgan matnda o‘ziga xos pragmatik vazifa bajaruvchi so‘z turkumlaridan biri undov so‘zlardir. Undov so‘zlarning pragmatik vazifalarini tadqiq etishdan avval dunyo tilshunosligida bu turkum so‘zlarning tadqiqi masalasiga doir mulohazalarimizni bildiramiz.

XX asr oxirlaridan boshlab jahon tilshunosligida til birliklarini inson nutqiy faoliyati ishtirokchilari, xususan, nutqiy vaziyat, nutq ishtirokchilari, ularning til ko‘nikmalari, voqelikni idrok etish darajasi, ruhiyati, nutq obyekt kabi omillar bilan aloqadorlikda o‘rganishga jiddiy e‘tibor qaratila boshlandi. Tilni o‘rganishga bu tarzda yondashuv tilshunoslik fanining yangi yo‘nalishdagi tarmoqlarini yuzaga keltirdi. Lingvistik pragmatika ham tilni inson nutqiy faoliyatida amaliy qo‘llash bilan bog‘liq muammolar tahlili natijasida maydonga keldi.

O‘tgan asrda dunyo tilshunosligida undov so‘zlarning so‘z turkumlari tizimida tutgan o‘rni, morfologik, semantik-struktur, stilistik xususiyatlari, gap qurilishidagi o‘rni, tasnifi, tarixiy shakllari jiddiy o‘rganildi, undov so‘zlar ishtirokida tuzilgan konstruksiyalar semantik-sintaktik aspektda tahlil etildi. Xususan, M.D.Gutner, I.S.Misyavichene, J.G.Herder, F.K.Ameke, D.P. Wilkins, A.V.Chernov, R.G.Montes, S.V.Andreyeva, A.Y.Churanov tadqiqotlarida ingliz tilidagi undov so‘zlar sistem-struktur yondashuvda tahlil etildi⁵. Bu ishlarda ingliz

⁵ Гутнер М.Д. Семантические и структурные особенности междометий современного английского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1962. – 23 с.; Мисьявичене И.С. Междометие как раздел лексикологической фонетики: на материале современного английского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1982. – 20 с.; Herder J.G. On the origin of language: Two essays. Translated by J.H.Moran, A. Gode. Chicago: University of Chicago Press, 1986 // <https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/O/bo3617803.html>; Ameke F.K. Interjections: The universal yet neglected part of speech. // Journal of Pragmatics 18. – North-Holland, 1992. – P. 101-118; Wilkins D.P. Interjections as deictics // Journal of Pragmatics 18, 1992. – P. 119-158; Чернов А.В. Конструкции с междометием в формальном и семантическом аспектах: Дисс. ... канд. филол. наук. – Саранск, 1998. – 136 с.; Montes R.G. The development of discourse markers in Spanish: Interjections. // Journal of Pragmatics 31. 1999. – P.1289-1319 // <https://www.sciencedirect.com/>

tilidagi undov soʻzlarning semantik-struktur xususiyatlari ochib berildi, undovlar ishtirokida tuzilgan konstruksiyalarning formal-semantik jihatlari yoritildi, undov soʻzlarning turli funksional uslublarda qoʻllanish masalasi oʻrganildi.

Maʼlumki, “undov” termini birinchi marta 1619-yilda Meletius Smotritskiy grammatikasida⁶ “*interjactio*” shaklida uchraydi va “inter” – “oʻrtasida” va “jactio” – “oʻtish, majburiy soʻz” maʼnolariga toʻgʻri keladi. Shu bilan birga, uning “tashlangan, boshqa soʻzlar orasiga kiritilgan” kabi maʼnosi ham mavjud. Anglashiladiki, undov soʻzlar haqidagi ilk qarashlar uzoq davrlarga borib taqaladi.

G.Isyangulovning taʼkidlashicha, tilning kelib chiqishida undovlarning ahamiyati ilk bor Epikur (mil. av. 341–270) tomonidan ilgari surilgan. Faylasuf insonning undovli nutqi paydo boʻlishidan avval uning ruhiyatida tashqi taʼsirlar natijasida maʼlum bir hissiy oʻzgarishlar sodir boʻlishini payqagan. Epikur nazariyasi vakillari ana shu jihatni tilni paydo boʻlishidagi asosiy omil deb hisoblashgan⁷.

XVII asrga kelib rus olimi M.Lomonosov ham oʻz asarlarida mazkur birlikning ilmiy tavsifini bayon qildi va unga til birligi sifatida qaradi. U undovlarga qisqa qilib “ruh harakatlarining qisqacha ifodasi”⁸ tarzida taʼrif berib, qaysidir maʼnoda oʻziga xos bu lisoniy birlik haqidagi nazariy qarashlar rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi.

Keyinchalik undov soʻzlarning lingvistik sathda nazariy asoslarini V.Vinogradov, O.Yesperson, Y.Kubryakova, M.Terentev, G.Paul, G.Suit va boshqa olimlar; nomlash nazariyasi M.Nikitin, A.Ufimseva, A.Xudyakovlar; pragmatik qirralari A.Gurochkina, A.Kibrik, M.Nikitin, X.Xolek, A.Xudyakov, U.Cheyf kabi tilshunoslar; shuningdek, hissiyotlar nazariyasi va neyrolingvistik

science/article/pii/S0378216698001064; Андреева С.В. Просодическое варьирование английского междометия в разных функциональных стилях: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1999. – 159 с.; Чуранов А.Е. Адъективная основа в формировании системы английских междометий и междометоидов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Балашов, 2008. – 185 с.

⁶ Смотрицкий Мелетій // Енциклопедія історії України (укр.) – Київ: Наукова думка, 2003.

⁷ Исянгулова Г. Междометия и подражательные слова в современном башкирском языке (структурно-словообразовательный и функционально-семантический аспекты). Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Уфа, 2018. – 21 с.

⁸ Ломоносов М.В. Полное собрание сочинений. – М.: Наука, 1950. – С. 143.

jihatlari P.Anoxin, V.Vundt, L.Vigotskiy, K.Izard, A.Leontev, Y.Reykovskiy, V.Shaxovskiy, L.Vernigor, M.Labashuk, A.Luriya kabi olimlar tomonidan tadqiq etildi⁹.

Rus tilshunosligida undovlar tadqiqiga oid monografik aspektdagi ishlar ichida G.V.Dagurov, A.I.Germanovich, T.V.Paxolkova, O.A.Rijkinalarning tadqiqotlari ahamiyatga molik. Ularda rus tilidagi undov soʻzlar sistem-struktur yoʻnalishda tahlil qilinib, leksik-semantik, grammatik, funksional-stilistik xususiyatlari, turlari, nutqda voqelanishi kabi masalalarga munosabat bildirilgan¹⁰.

Rus tili undov soʻzlari hatto chogʻishtirma aspektda ham oʻrganilgan¹¹. Jumladan, Van Sinsin rus va xitoy tillaridagi undov soʻzlarning morfologik, struktur-sintaktik, semantik, pragmatik, etnomadaniy, funksional, chogʻishtirma aspektlarda tekshirilganligini qayd etgan¹².

Rus tilshunosligida undov soʻzlarning morfologik, sintaktik, struktur-fonetik xususiyatlari darslik, oʻquv qoʻllanmalari, ilmiy maqolalarda ham yoritilgan¹³.

⁹Bu haqida qarang: Максимова С.Э. Регулятивная функция междометной реплики в диалоге (на материале нем. и рус. языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь, 2000; Леонтева Е.А. Эмоционально-оценочные возможности междометных фразеологических единиц в современном русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: МГПУ, 2000; Кученева Е.Ю. Структурно-семантические отношения слов в словообразовательных гнездах междометий и звукоподражаний: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2000; Болтнева Н.А. Коммуникативно-прагматические функции междометий в диалогическом дискурсе (на материале современного немецкого языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2004.

¹⁰ Дагуров Г.В. Междометия как особый разряд слов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1960. – 15 с.; Германович А. И. Междометия и звукоподражательные слова русского языка: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Симферополь, 1961. – 59 с.; Пахолкова Т.В. Междометия в речевом общении: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Череповец, 1998. – 22 с.; Рыжкина О. А. Лексико-семантические и грамматические особенности междометий и их функционирование в речи: на материале анализа пьес А.Н.Островского и А. П. Чехова: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2009. – 189 с.

¹¹ Куликова Л. А. Междометия в современном чешском языке: в сопоставлении с русским: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1982. – 22 с.; Ван Синсинь. Междометия и звукоподражания русского языка (в функциональном соотношении с китайскими): Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2016. – 265 с.

¹² Ван Синсинь. Междометия и звукоподражания русского языка (в функциональном соотношении с китайскими): Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2016. – 265 с.

¹³ Гвоздев А.Н. Современный русский литературный язык. В 2 ч. – М.: Учпедгиз, 1958. – Ч. 1: Фонетика и морфология. – 406 с.; Дагуров Г.В. О лексическом составе русских междометий в речи // Славянское языкознание. Сб ст. – М., 1959. – С. 154-159; Прокопович Е.Н. Глагольно-междометные формы в русском литературном языке XIX века // Вопросы языкознания. – 1965. № 1. – С. 76–82; Карпов Л.П. О некоторых особенностях междометий // Проблемы лексической и синтаксической семантики романо-германских языков. – Смоленск, 1978. – С. 66–67; Григорян А.А. Взаимодействие междометий с другими частями речи // Вторая областная конференция

So‘nggi yillarda rus tilshunosligida undov so‘zlar bo‘yicha yangi tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu ishlarda undovlar zamonaviy aspektlarda ham tadqiq etila boshlandi¹⁴.

Ko‘rinadiki, rus tilshunosligida undov so‘zlar sistem-struktur, pragmatik, etnomadaniy, chog‘ishtirma aspektlarda tahlilga tortilgan.

O‘zbek tilshunosligida ham undov so‘zlarning sistem-struktur yo‘nalishda chuqur o‘rganilgani¹⁵ va bu yo‘nalishda jiddiy ilmiy xulosalar chiqarilganini qayd etib o‘tish lozim. Undovlarning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi borasida bir qadar tarqoq fikrlar mavjudki, bu lisoniy birlikning o‘ziga xos murakkab lingvistik xususiyati ular haqidagi nazariy qarashlarning turfa xilligida deb ko‘rish mumkin. Tilshunos olim S.Usmonov undov so‘zlarni “Hozirgi zamon o‘zbek tilida undovlar” nomli monografik tadqiqotida o‘rgangan va ularni semantik jihatdan tasniflagan¹⁶.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida undov so‘zlarning so‘z turkumi paradigmasidagi o‘rni masalasi bo‘yicha yangi qarashlar ifoda etilayotganligi ko‘zga tashlanadi. Xususan, Sh.Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” nomli darsligida undov so‘zlarni bog‘lovchi va yuklamalar qatoriga kiritish tarafdori

молодых ученых. Тез. докл. – Иваново, 1986. – С. 56–58; Шаронов И.А. Когнитивные междометия: проблемы выявления и описания // Русский язык в научном освещении. – 2008. № 2. – С. 71–88; Добрушина Н.Р. Словарное представление междометий // Русистика сегодня. – 1995. № 1. – С. 47–66 ва бошқалар.

¹⁴ Максимова С.Э. Регулятивная функция междометной реплики в диалоге (на материале нем. и рус. языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Твер, 2000; Леонтева Е.А. Эмоционально-оценочные возможности междометных фразеологических единиц в современном русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: МГПУ, 2000; Кученева Е.Ю. Структурно-семантические отношения слов в словообразовательных гнездах междометий и звукоподражаний: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2000; Болтнева Н.А. Коммуникативно-прагматические функции междометий в диалогическом дискурсе (на материале современного немецкого языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2004.

¹⁵ Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 440–441; Турсунов У, Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 391–394; Зикриллаев Ғ. Ўзбек тили морфологияси. – Бухоро, 1994; Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 247; Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Ғ., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент, 2007. – Б. 260–263; Мадрахимов И. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. – Фарғона, 2008. – Б. 136–137 ва бошқалар.

¹⁶ Усмонов С. Ҳозирги замон ўзбек тилида ундовлар. Филол. фан. канд. ... дисс. – Тошкент: 1952–Б. 140.

ekanligini qayd etsa¹⁷, I.Madrahimov “So‘z serqirraligi va uni tasniflash asoslari” nomli asarida undov so‘zlarni taqlid so‘zlar bilan bir guruhga tasvirlovchi leksemalar guruhiga¹⁸ kiritadi. Bizningcha, undov so‘zlarning bog‘lovchi va yuklamalar qatoriga kiritilishi o‘zini oqlamaydi. Tabiiyki, undov so‘zlarda bog‘lovchilik vazifasi mavjud emas, yuklamalar kabi kontekstga qo‘shimcha grammatik ma’no ham qo‘shmaydi. Undov so‘zlar o‘ziga xos xususiyatli alohida so‘zlar guruhidir. Undov so‘zlarning taqlid so‘zlar bilan bir guruhga – tasvirlovchi leksemalar guruhiga kiritilishi ham maqsadga muvofiq emas. Taqlid so‘zlar voqelikni taqlid yordamida tasvirlasa, undov so‘zlar voqelik (hissiy kechinma)ni bevosita aks ettiradi.

R.Sayfullayeva boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan nashr etilgan “Hozirgi o‘zbek tili” kitobida ham undov so‘zlar tasvirlovchi leksemalar qatoriga kiritilgan. Mualliflar undov so‘zlarni nomustaqil lug‘aviy ma’noli so‘zlar guruhi – so‘z-gaplarga kiritishadi¹⁹. O‘zbek tilidagi undov so‘zlarning hammasi ham jumla tarkibida so‘z-gap maqomida kelavermasligini inobatga olsak (masalan, “*Uf, charchadim*” gapida), bu xulosaga qo‘shilib bo‘lmaydi.

O‘zbek tilidagi undov so‘zlarning tavsifi berilgan qator ishlarda bu turkum so‘zlarning semantik tasnifi masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Bu ishlarda undov so‘zlar semantik jihatdan, asosan, 2 turga: his-hayajon bildiruvchi (emotsional undovlar) va buyruq-xitob undovlariga ajratilgan. Emotsional undovlar yana ichki semantik turlarga bo‘lingan, ularning so‘roq, taajjub, ajablanish, hayratlanish, ishonchsizlik, ikkilanish, kutilmaganlik, shubha, taraddudlanish, e’tiroz; sevinch, shodlik, mamnunlik, ko‘tarinkilik, qanoatlanganlik; qayg‘u, xafalik, og‘ir ruhiy holat, qo‘rqinch, achinish, bezovtalanish, e’tiroz, norozilik, ogohlantirish, g‘azab, nafrat, jirkanish,

¹⁷ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 121.

¹⁸ Мадрохимов И. Сўз серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. – Фарғона, 2005. – Б. 44.

¹⁹ Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент, 2007. – Б. 180.

mensimaslik, kamsitish kabi ma'nolarni anglatishi ko'rsatilgan²⁰. Buyruq-xitob undovlarining chaqiriq, murojaat, haydash kabilarni; tabrik, tashakkur, xayrlashuv kabilarni bildirishi qayd etilgan²¹.

1980-yilda nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida shaxslarga nisbatan qo'llanuvchi buyruq-xitob undovlari ajratilmagan, buyruq-xitob undovlariga faqat hayvon va parrandalarga nisbatan qo'llanuvchi undovlar hamda urf-odat, minnatdorchilikni ifodalovchi birliklar kiritilgan²².

Sh.Rahmatullayev ilmiy manbalarda undovlarning alohida guruhi sifatida berilayotgan muomala-murojaat birliklarining hali undovga aylanmagani, ularning leksemalik xususiyatini saqlagani sababli undov turkumiga kiritilishi o'ta shartli ekanligini qayd etadi. Olim bu turga ko'rishish, xayrlashishni bildiruvchi *assalom u alaykum, assalom, salom, vaalaykum assalom; xayr* so'zlarini; tabrik, istak, minnatdorlik va unga javobni bildiruvchi *hormang – bor bo'ling, salomat bo'ling; qutlug' bo'lsin – qulluq; rahmat – arzimaydi* kabilarni hamda biror faoliyatni ko'tarinki ijobiy baholashni bildiruvchi *balli, barakallo, ofarin* so'zlarini kiritadi²³.

Bizningcha, *assalom-u alaykum, salom, vaalaykum assalom; xayr, hormang – bor bo'ling, salomat bo'ling; qutlug' bo'lsin – qulluq; rahmat – arzimaydi* kabilar predikativ birlik maqomida bo'lganligi bois ularni undov so'zlar tarzida baholash unchalik to'g'ri emas.

O'zbek tilshunosligida undov so'zlarning tarixan shakllanishi masalasiga ham munosabat bildirilgan. Xususan, J.Eltazarov undov so'zlarning kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuvda xizmat qilishiga ko'ra eng qadimgi so'z turkumi ekanligini aytib o'tgan. U til taraqqiyotining keyingi davrlarida dastlabki,

²⁰ Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 440-441; Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 392–393.

²¹ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ко'rsatilgan darslik. – В. 393.

²² Шоабдурахмонов Ш. va boshqalar. Ко'rsatilgan kitob. – В. 441.

²³ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 392.

birlamchi sof undovlar qatorida ikkilamchi yasama undovlar boshqa so‘z turkumlari a‘zolari orasidan olingan so‘zlar hisobiga shakllangan deb hisoblaydi²⁴.

O‘zbek tilshunosligida bugungi kunda so‘z-gaplar deb ataluvchi birliklar ingliz tilshunosligida undov so‘zlar sifatida o‘rganilgan. Ya‘ni ingliz tilidagi undov va modal so‘zlar, tasdiq-inkor so‘zlar, taklif-xitob so‘zlarining aksariyati undovlarga birlashtirilgan²⁵.

Ingliz tilshunosligida undovlarga turlicha ta‘rif berilganligi va ularning tavsifi borasida olimlar o‘rtasida doim kelishmovchiliklar bo‘lib kelganiga guvoh bo‘lamiz. Ba‘zi tilshunoslar undovlarni til birligi hisoblashsa, yana bir guruh tilshunoslar undovlar faqat ongning holatini ko‘rsatib, his-tuyg‘uni ifodalovchi, biroq so‘z bo‘lmagan birliklardir degan qarashlarni ilgari surishadi²⁶.

Undov, taqlid va modal so‘zlar ingliz tilidan o‘zbek tiliga, o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinar ekan, ularning ko‘pincha tarjima matnida tushirib qoldirilishi yoki transliteratsiya yo‘li bilan berilishi hamda noekvivalentlar orqali ifodalanishi kuzatilgan. Bunda ularning aynan ekvivalentlaridan foydalanish, aslyatdagi undov, taqlid va modallarni tarjimada muqobillari yoki boshqa so‘z turkumlari vositasida ifodalash holatlari ko‘rilgan. Undov, taqlid va modal so‘zlarning ingliz tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan ingliz tiliga adekvat va ekvivalent tarjimalari ko‘pincha lug‘atlarda berilishiga muvofiq amalga oshirilgan²⁷.

Xullas, o‘zbek, ingliz va rus tilshunosligida undov so‘zlar sistem-struktur aspektida chuqur o‘rganilgan. Undov so‘zlar tadqiqida qamrab olingan masalalar shuni ko‘rsatadiki, bu turga mansub so‘zlarning nutq vaziyati, kontekst bilan bog‘liq holda aktuallashuvchi jihatlarini pragmatik aspektida o‘rganish dolzarb muammolardan biridir. Undov so‘zlar til sohiblarining hissiy kechinmalarini

²⁴ Элтазаров Ж. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2006. – Б. 55–56.

²⁵ Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – 140 б.

²⁶ Wharton T. Interjections, language and the showing-saying continuum // Pragmatics & Cognition, Volume 11, Issue 1, Jan 2003. – P. 39 -91. <https://www.jbe-platform.com/content/journals/10.1075/pc.11.1.04wha>

²⁷ Кахарова И.С. Инглиз ва ўзбек тилларида эмотив, тақлид ва модал сўзларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2024.– 202 б.

ularning milliy-madaniy qarashlari bilan bog‘liq holda aks ettirishini inobatga olsak, bu tipdagi so‘zlarni nafaqat pragmatik aspektda, psixolingvistik, lingvokulturologik yo‘nalishlarda ham qiyosan o‘rganish maqsadga muvofiq.

1.2. Modal va taqlid so‘zlarning sistem-struktur aspektda o‘rganilishi

Shu kunga qadar turli tizimdagi tillardagi modal so‘zlarning morfologik xususiyatlari sistem-struktur aspektda atroflicha o‘rganilgan. Shunisi xarakterliki, tilshunoslikda ingliz tilidagi modal so‘zlar turlicha talqin etiladi. Ingliz tili grammatikasi kitoblarida *modal so‘zlar* va *kirish so‘zlar* an’anaviy tarzda “sentence adverbs” ravishining ko‘rinishlari sifatida e’tirof etiladi. Ular ravishning boshqa turlaridan gapda so‘zlar bilan sintaktik aloqaga kirishmasligi, doimiy sintaktik o‘ringa ega emasligi bilan farqlanishi ko‘rsatiladi.

Modal so‘zlar talqiniga turlicha yondashuv ularning turli terminlar bilan berilishida ham kuzatiladi: *sentence adverbs* (gap ravishlar) (Sweet, 1958; Nesfield, 1926; Tipping, 1961; Cheyf, 1975), *viewpoint adverbs* (munosabat ifodalovchi ravishlar) (Alexander, 1996), *adverbials* (gap adverbialiya) (Leech, Svartvik, 1983), *sentence modifiers* (gap modifikatorlari) (Francis, 1958), *adjuncts* (gap adyunktlari) (Collins, 1995), *disjuncts* (dizyunktlar) (Quirk, Greenbaum, Leech, Svartvik, 1982; Close, 1979)²⁸.

So‘nggi yillarda ingliz tilidagi modal so‘zlar rus va boshqa tilshunosliklarda ham o‘rganildi. Xususan, S.Y.Kagan, N.L.Knyazeva, O.V.Romanova, K.J.Umarov, V.N.Xolmatovalarning tadqiqot ishlarida maxsus o‘rganilgan²⁹. Bu

²⁸ Bu haqda qarang: Когнитивно-семантическая характеристика модальных слов в современном английском дискурсе // <https://nsportal.ru/shkola/inostrannye-yazyki/angliiskiy-yazyk/library/2013/01/11/kognitivno-semanticheskaya>

²⁹ Каган С.Е. Модальные слова английского языка в различных по цели высказывания типах предложений: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Харьков, 1953; Князева Н.Л. Модальные слова в системе частей речи современного английского языка (Аспекты взаимодействия классов слов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993. – 15 с.; Романова О.В. Модальные слова в современном английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ростов н/Д, 1997. – 182 с.; Умаров К.Ж. Хохиш-истак концепти модаллик категорияси талкинида // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 7 | 2022.

ishlarda ingliz tilidagi modal soʻzlarning maqomi, soʻz turkumlari tizimida tutgan oʻrni, struktur-semantik xususiyatlari, turlari yoritilgan.

Ingliz tili modal soʻzlari qiyosiy aspektda ham tadqiq obyekti boʻlgan. Jumladan, Y.I.Belyayeva ingliz va rus tillaridagi modal soʻzlarning funksional-semantik maydonini aniqlagan, D.S.Negmatova ingliz va tojik tillaridagi modal soʻzlarning struktur-semantik xususiyatlarini ochib bergan³⁰.

Oʻzbek tilshunosligida modal soʻzlar ilk bor R.Komiljonova tomonidan monografik aspektda tadqiq etilgan³¹. Olima oʻzbek tilidagi modal soʻzlarning morfologik xususiyatlari, semantik tasnifi, gapdagi sintaktik mavqeyi yuzasidan atroflicha maʼlumot bergan. Oʻzbek tilidagi modal soʻzlarning mohiyati oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun tayyorlangan qator darslik va oʻquv qoʻllanmalarida ham yoritilgan. Modal soʻzlarning lingvistik tabiatini yoritishga bagʻishlangan barcha ilmiy manbalarda bu turkum soʻzlarning munosabat ifodalashi qayd etilgan, modal soʻzlarning morfologik jihatdan oʻzgarmas soʻzlar ekanligi asoslab berilgan.

Keyingi yillarda oʻzbek tilshunosligida modal soʻzlarning turkumi yuzasidan turli qarashlar shakllandi. R.Sayfullayeva boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan tuzilgan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” oʻquv qoʻllanmasida modal soʻzlar morfologik birlik sifatida ajratilmagan. Oʻquv qoʻllanmada modal maʼno ifodalovchi birliklar semantik-funksional shakllangan gap turi sifatida modal soʻz-gaplar guruhiga kiritilgan³².

I.Madrahimov esa modal soʻzlarni munosabat bildiruvchi nomlovchi leksemalar guruhiga kiritgan³³.

ISSN: 2181-1385; Холматова В.Н. Инглиз тилида аниқлик мазмунидаги модал сўзларнинг прагматик вазиқалари ва гапда жойлашиш тартиби // Экономика и социум, – № 2 (105) 2023 // www.iupr.ru.

³⁰ Беляева Е.И. Функционально-семантические поля модальности в английском и русском языках. – Воронеж, 1985. – 180 с.; Негматова Д.С. Структурно-семантический анализ модальных слов в английском и таджикском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2013.

³¹ Камилджанова Р.А. Модальные слова в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 16 с.

³² Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009. – Б. 323.

³³ Мадрахимов И. Сўз серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. – Фарғона, 2005. – Б.52.

Sh.Rahmatullayev modal soʻzlarni, jumladan, undov soʻzlarni ham grammatik maʼno ifodalashi hamda gap boʻlagi vazifasida kelmasligi belgisi asosida yordamchi soʻzlar guruhiga kiritadi. Uning fikricha, “Modal birliklar va undovlarni grammatik birlik turkumlari boʻlgani uchun bogʻlovchi va yuklama turkumlari qatoriga qoʻshish mumkin. Ushbu toʻrt turkum uchun umumiy belgi deb ularning grammatik maʼno ifodalashi va birikmaning, gapshaklning boʻlagi vazifasida kelmasligi”³⁴dir. Bizningcha, modal soʻzlarni bogʻlovchi va yuklamalar bilan bir qatorga qoʻyish unchalik asosli emas. Modal soʻzlar bogʻlovchi va yuklamalardan farqli tarzda faqat grammatik vazifasi bilan cheklanmaydi. Modal soʻzlarning ayrim turlari dialogik nutqda gapni (soʻz-gap vazifasida) shakllantirish uchun qoʻllanadi. Bu holat modal soʻzlarning soʻz turkumlari paradigmasida alohida mavqeni egallashidan darak beradi. Biroq Sh.Rahmatullayev soʻnggi yillarda nashr etgan darsligida “Modal birlik oʻz tabiatiga binoan leksik maʼno anglatmaydi, gap shakl tarkibida modal maʼno ifodalab, kirish boʻlak vazifasida keladi. Dialogda yolgʻiz oʻzi ishlatilganida ham modal birlik kirish boʻlaklik holatini saqlaydi, gapshaklga teng boʻlmaydi”³⁵ degan xulosani bayon qilgan. 1975-yilda nashr etilgan “Oʻzbek tili grammatikasi” kitobida esa olim modal soʻzlarning gap vazifasida ham qoʻllanishini eʼtirof etgan edi: “Modal soʻz dialoglarda oldingi fikrga munosabatni ifodalovchi javob tariqasida yakka oʻzi kelganida ham kirish soʻzlik holatini saqlaydi, gap boʻlib kelish esa uning ikkilamchi sintaktik vazifasi boʻladi”³⁶.

Dialogik nutqda yakka qoʻllangan modal soʻzning kirish soʻzlik holatini saqlashi munozarali. “– *Borasanmi? – Albatta*” dialogida ikkinchi gap kesimining (boraman) ellipsisga uchrashi natijasida modal soʻz zimmasiga tushirib qoldirilgan kesimning vazifasini bajarish yuklatiladi. Bunday vaziyatda modal soʻz kirish soʻz vazifasidan butkul uzoqlashib, kesim kabi gapni shakllantiradi. Shu sababli

³⁴ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 347.

³⁵ Раҳматуллаев Ш. Кўрсатилган дарслик.

³⁶ Ўзбек тили грамматикаси. Т. 1. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 582–590.

“Albatta” modal so‘zi orqali gapda nutq egasining kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq holda bevosita ifodalanadi.

O‘zbek tilshunosligida modal so‘zlarning semantik jihatdan turlicha tasnifi kuzatiladi. Sh.Rahmatullayev modal so‘zlarni semantik jihatdan quyidagicha tasniflagan: 1. Fikrning aniqligini ifodalovchi modallar (fikrning rostligi, realligi, qat‘iyligini bildiruvchi, ishonchni, voqelikning yuzaga kelishi tabiiyligi, fikrning chinligi, realligini eslatuvchi modallar). 2. Fikrning noaniqligini ifodalovchi modallar (fikrning taxminiy, gumonli, tasmolli ekanligini bildiruvchi, fikrning chinligiga gumon va ishonch ifodalovchi modallar). 3. So‘zlovchining taajjubini, afsusini ifodalovchi modallar³⁷.

U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar hammuallifligida yozilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ham modal so‘zlar semantik jihatdan deyarli shu tarzda keltirilgan: 1. Gapda ifodalangan fikrning aniqligi, realligini tasdiqlovchi modal so‘zlar: *albatta, shubhasiz, so‘zsiz, shaksiz, haqiqatan, darhaqiqat* kabilar. 2. Gapda ifodalangan fikr taxminiy, gumon, noaniq ekanini bildiruvchi modal so‘zlar: *ehtimol, chamasi, shekilli, aftidan, haytovur, chog‘i* kabilar. 3. Biror voqea-hodisadan afsuslanish, ajablanish kabilarni bildiruvchi modal so‘zlar: *afsuski, attang, ajabo* kabi. 4. Fikrning o‘zaro munosabatini va tartibini bildiruvchi modal so‘zlar: *demak, xususan, aksincha, masalan, jumladan, chunonchi, binobarin, xullas, avvalo* kabi³⁸.

Bu tarzdagi tasniflar boshqa ilmiy manbalarda ham qayd etilgan. Masalan, 1980-yilda nashr etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida modal so‘zlarning quyidagi tasnifi berilgan:

- 1) fikrning aniqligini ifodalovchi modal so‘zlar;
- 2) fikrning noaniqligini ifodalovchi modal so‘zlar³⁹.

³⁷ Раҳматуллаев Ш. Кўрсатилган дарслик. – В. 273.

³⁸ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 372–374.

³⁹ Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 438.

Modal soʻzlarning bu tarzdagi semantik tasnifi “Oʻzbek tili grammatikasi” kitobida ham takrorlangan ⁴⁰.

I.Madrahimovning yuqorida keltirilgan monografiyasida modal soʻzlarning semantik jihatdan tasnifi anʼanaviy tasnifdan ancha farq qiladi:

1. Gumon-taxmin modallari: *ehtimol, balki, chogʻi, chamasi, shekilli*.
2. Qatʼiylik modallari: *albatta, shubhasiz, darhaqiqat, tabiiy*.
3. Sanash-tartib modallari: *avvalo, birinchidan*⁴¹.

S.Saidov oʻzbek tilidagi modal soʻzlarning maʼno jihatdan quyidagi tasnifini bergan: 1) aytilgan faktning zarurligini bildiruvchi modal soʻzlar; 2) aytilgan faktga emotsional munosabatni bildiruvchi modal soʻzlar; 3) aytilgan faktga munosabatni bildiruvchi modal soʻzlar. Olimning mazkur tadqiqotida nemis va oʻzbek tillaridagi modal soʻzlar qiyosan oʻrganilib, ularning oʻxshash va farqli jihatlari aniqlangan⁴².

Anglashiladiki, oʻzbek tilshunosligida modal soʻzlarning semantik tasnifida yakdillik mavjud emas. Shunga qaramay, qayd etilgan ilmiy manbalarda modal soʻzlarning mohiyati, funksional xususiyatlari chuqur ochib berilganligiga guvoh boʻlamiz.

Modal soʻzlar tadqiqiga doir mavjud manbalar tahlilidan maʼlum boʻladiki, bu turkum soʻzlarning antropotsentrik mohiyatini ochib berish, ularni pragmatolingvistik aspektida oʻrganish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, mazkur muammoni turli tillar misolida qiyosan oʻrganish, modal soʻzlar pragmatikasiga doir umumiy qonuniyatlarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda taqlid soʻzlar ham sistem-struktur aspektida chuqur oʻrganilgan. Taqlid soʻzlar kishilik jamiyatining qadimgi til birligi hisoblanib, bu haqida professor N.Mahmudov quyidagicha yozadi: “Tildagi eng sodda, tabiiy va qadimiy soʻzlar tovushga yoki obrazga taqlid asosida yuzaga kelgan soʻzlar hisoblanadi. Tilshunoslikda tilning paydo boʻlishi bilan bogʻliq talqinlarda taqlidiy

⁴⁰ Ўзбек тили грамматикаси. Т. 1. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 582–590.

⁴¹ Мадраҳимов И. Кўрсатилган манба. – В. 67.

⁴² Саидов С. Модальные слова в немецком и узбекском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964. – 23 с.

soʻzlar masalasiga ham alohida oʻrin beriladi. Hatto til tabiatdagi mavjud xilma-xil tovushlarga taqlid qilish asosida yuzaga kelgan degan qarash ham yoʻq emas”⁴³.

Taqlidlar boʻyicha tilshunoslikda turli qarshlar mavjud. Bu yoʻnalishdagi fikr va qarashlarning koʻpligi hamda mavzuga aloqador talqinlarning turfaligi natijasida bu borada aniq bir termini qoʻllash boʻyicha muayyan xulosaga kelingani yoʻq. Xususan, tilshunoslikda *mimemalar* (Ashmarin, Baskakov), *tasviriy soʻzlar*, *taqlidiy soʻzlar* (R.Qoʻngʻurov, A.Isxakov), *onomatop soʻzlar* (S.Voronin), *imitativ* (V.Kornilov) kabi terminlar qoʻllanib kelinmoqda⁴⁴.

Tilshunoslikda taqlid soʻzlarni ilmiy oʻrganishga bagʻishlangan ishlar ichida N.Ashmarin, A.M.Gazov-Ginzberg, G.E.Kornilov, S.A.Karpuxin, S.V.Voronin, Y.Kubryakova, I.A.Sharonov⁴⁵ va boshqa olimlarning tadqiqot ishlari ahamiyatli.

N.Ashmarin 1898-yilda chuvash tilidagi taqlid va undovlarni tadqiq etib, turkiy tilshunoslikda birinchi boʻlib ushbu mavzuni oʻrganishni boshlab berdi.

Ingliz tilida koʻp sonli reduplikativ (takror) onomatoplarning mavjudligi koʻplab olimlar tomonidan qayd etilgan. Jumladan, V.G. Gak taʼkidlashicha, ingliz tili vaziyatni tasvirlashda vizual tillardan koʻra tovush idroklarini afzal koʻradi. Tovushlarning reduplikatsiyasi va almashinishini oʻz ichiga olgan onomatopik birliklar quyidagilar: *blah-blah*, *chitter-chatter*, *snip-snap*, *flip-flap*. V.G. Gakning fikricha, “Modallik uch bosqichga boʻlinadi: 1) xabar berish xususiyatiga koʻra – deklorativ va performativ modallik; 2) voqelikni bilish xususiyatiga koʻra – ishonchlilik va ehtimollik (toʻliqsiz ishonchlilik); 3) munosabat xususiyatiga koʻra

⁴³ Махмудов Н. Ўзбекнинг ўлмас сўзи. Қаранг: Зариф сўз зиёрати. Тузувчилар: М.Йўлдошев, Д.Анданиёзова. – Анкара: Anlam Kitap, 2022. – Б. 79.

⁴⁴ Bu haqda qarang: Yodgorov J.J. Oʻzbek tilidagi undov va taqlid soʻzlar lingvopoetikasi.: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 7–8.

⁴⁵ Ашмарин Н.И. О морфологических категориях подражания в чувашском языке. – Казань: Издание Академического Центра Татнаркомпроса, 1928. – 160 с.; Газов-Гинзберг А.М. Был ли язык изобразителен в своих истоках? – М.: Наука, 1965. – 183 с.; Корнилов Г.Е. Теория имитативов и данные чувашских диалектов (К теории имитативов – III) // Диалекты и топонимия Поволжья. № 7. – Чебоксары: РИО ЧГУ, 1979. – С. 23-66; Карпухин С.А. Звукоподражательные слова в русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.– Саратов, 1979. – 19 с.; Воронин С.В. Основы фоносемантики: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Л., 1980. – 47 с.; Кубрякова Е.С. Типы языковых значений: семантика производного слова. – М.: Наука, 1981. – 200 с.; Шаронов И.А. Междометие в языке, в тексте и в коммуникации: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – М., 2009. – 36 с.

– istak, (noistak va rozilik) va norozilik subyekt hissiyotining ifodalanishi (uygʻonishi) bilan bogʻliq⁴⁶.

Taqlid soʻzlar qozoq tilshunoslari A.Iskakov, Sh.Saribayev, B.Katembayeva, K.Husainovalar tomonidan ham atroflicha oʻrganilgan⁴⁷. Qirgʻiz tilshunosi S.Kudaybergenov qirgʻiz tilidagi tasviriy soʻzlar boʻyicha maxsus monografiya eʼlon qilgan⁴⁸.

Turkman tilshunosligida M.Xudaykuliye⁴⁹, tatar tilshunosligida Z.G.Sharafetdinova⁵⁰, turk tilshunosligida H.Zulfiqor⁵¹; oʻzbek tilshunosligida R.Qoʻngʻurov⁵²ning tadqiqotlari taqlid soʻzlarning tasnifi, lingvistik tabiatini ochib berishga qaratilgani bilan ahamiyatga molik boʻldi.

Rus tilshunosligida A.I.Germanovich, S.A.Aliyeva, Van Sinsin, Z.V.Pasevich, V.Y.Vashkyavichus, A.A.Nurullova, Z.A.Petkovalarning tadqiqotlarida taqlid soʻzlarning leksik-semantik, funksional-semantik xususiyatlari sistem-struktur aspektida tahlil qilingan⁵³. Ularda taqlid soʻzlar jonli

⁴⁶ Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. – Москва: Высшая школа, 1986. – С. 44-312.

⁴⁷ Исаков А.И. О подражательных словах в казахском языке // Тюркологический сборник. Т. 1. – М. – Л., 1951. – С. 103-111; Сарыбаев Ш.Ш. Подражательные слова и их отношение к междометиям // Известия АН КазССР. Серия “Филология и искусствоведение”. Вып. 1–2. 1954. – С.46–54; Катембаева Б.Ш. Подражательные слова в казахском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1965. – 23 с.; Хусаинов К.Ш. Звукоизобразительные глаголы смеха в казахском языке // Советская тюркология, 1987. №6. – С. 67–76.

⁴⁸Кудайбергенов С. Подражательные слова в киргизском языке. – Фрунзе: Киргизучпедгиз, 1957. – 106 с.

⁴⁹ Худайкулиев М. Подражательные слова в туркменском языке. – Ашхабад: Изд-во АН Турк.ССР, 1962. – 135 с.

⁵⁰ Шарафетдинова, З.Г. Морфологическая структура подражательных слов в татарском языке (на татарском языке) // Самосовершенствование, самореализация личности: психолого-педагогические аспекты: материалы научно-практической конференции. Ч. I. – Набережные Челны: Изд-во НГПИ, 2007. – С. 396–400.

⁵¹ Zulfikar H. Türkçede Ses Yansımali Kelimeler. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yay. 1995.

⁵² Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. – 154 б.

⁴⁹ Германович А.И. Междометия и звукоподражательные слова русского языка: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Симферополь, 1961. – 59 с.; Алиева С.А. Функционально-семантический анализ звукоподражательной лексики в современном русском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 1997. – 216 с.; Ван Синсинь. Междометия и звукоподражания русского языка (в функциональном соотношении с китайскими): Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2016. – 265 с.; Нуруллова А.А. Ономотопея в современном английском, русском и немецком языках: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Казань: КФУ, 2013. – 15 с.; Петкова З.А. Русские звукоподражательные слова в зеркале носителей болгарского языка: Дисс... канд. филол. наук. – М.: Гос. ИРЯ им. А. С. Пушкина, 2011. – 154 с.

va jonsiz predmetlar ovozi hamda ko‘rinish (obraz) ga taqliddan hosil qilingan so‘zlar sifatida baholangan.

Ayrim tilshunoslar taqlid so‘zlarni qiyosiy aspektida tadqiq qilishgan⁵⁴. Jumladan, V.Y.Vashkyavichus rus va xitoy tillaridagi taqlid so‘zlarni qiyosan o‘rganib, bu tillarda “jonsiz tabiatning onomatoplari” sinfidagi so‘zlarni o‘z ichiga olgan alohida taqlid so‘zlar sinfi mavjudlihi aniqlagan: *фу, пых, фр, фюйт, нуфф, тапарах, трах, шурк, шарк, шурк, чик, тик-так, трюх, трух, нуф* kabilar. Tadqiqotchining fikricha, ushbu taqlid so‘zlar polisemantik deb ataladi va tovush manbasini aniqlab bo‘lmaydigan so‘zlar sifatida taqdim etiladi⁵⁵.

Rus tilidagi taqlid so‘zlarni ingliz va nemis tillari bilan qiyoslab o‘rgangan A.A.Avakov bu tillardagi taqlid so‘zlarning bir-biridan farqli jihatlarini ochib bergan, ularning fonetik strukturasiidagi o‘ziga xos jihatlarni aniqlagan, bu tillar uchun umumiy bo‘lgan taqlid so‘zlar tasnifini keltirgan.

U taqlid so‘zlarni an’anaviy tarzda kelib chiqishi va qo‘llanish darajasiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratgan:

1. Hayvonlar tovushiga taqlidni bildiruvchi so‘zlar. Rus tilida: *бе, гае, ква, квак, му-у, мур, мяу, тјав, хрю, балды-балды, га-га-га, купр, карр, и-а*; ingliz tilida: *baa, bow wow, quack, moo, meow, wuff, oink, gobble-gobble, honk honk, hee-haw, coo, saw*.

2. Qushlar tovushiga taqlidni bildiruvchi so‘zlar. Rus tilida: *кукареку, ку-ку, курлы, курны, чир, чик-чирик, чирик*; ingliz tilida: *cock-a-doodle-doo, cuckoo, coo, tweet, chirp, chirrup*.

3. Hasharotlar tovushiga taqlidni bildiruvchi so‘zlar. Rus tilida: *ж-ж-ж, з-з-з*. Ingliz tilida: *zzzz*.

⁵⁴ Аваков С.А. Звукоподражательные слова русского языка в сравнении с английским и немецким: Дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2007. –147 с.; Турсунова Ф.Р. Структурно-семантический анализ звукоподражательных слов в английском и таджикском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2013. –153 с.

⁵⁵ Вaшкјавичус В. Ю. Экспериментально-теоретическое исследование восприятия и вербализации шумов (на материале кодифицированных и окказиональных звукоподражаний русского и китайского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Бийск: КГУ, 2011. – 188 с.

4. Insonda beixtiyor hosil boʻladigan tovushga taqlidni bildiruvchi soʻzlar.
Rus tilida: *ук, кахи, кхе, уа, ха-ха-ха, хе-хе-хе, хи-хи-хи, хо-хо-хо, чих, чох*;
ingliz tilida: *hie, cough, ha ha ha, atchoo*.

5. Tabiat hodisalari, jonsiz predmetlar tovushiga taqlidni bildiruvchi soʻzlar.
Rus tilida: *бабах, бах, бац, бом, буль-буль, бум, бух, дзинь, дзень, динь, дон, кан, кок, нав, наф, пиф-наф, пук, тарарах, та-та-та, трах, трах, трах тарарах, тик-так, тень, топ, тра-та-та, трень-брень, трух-трух, трюх трюх, трюхи-трюхи, тук, туруру, тюк, тьян, чик*; ingliz tilida: *boom, bang, gurgle, ding, dong, dung, dipp dopp dopp, rat-tat-tat, thump, plonk, crash, wham, knock knock, caboom, snip*.

Tadqiqotchi qoʻllanishi nuqtayi nazaridan taqlid soʻzlarni quyidagi turlarga ajratgan:

a) umumtomonidan qabul qilingan: *klopp klopp* (ot tuyogʻi tovushi), *slurp* (chaynashda chiqadigan tovushga taqlid);

b) muallif taqlidi: *RRrrRRrrRRoom-ER-ER-ER* (maktab avtobusi tovushiga taqlid)⁵⁶.

Anglashiladiki, ilmiy adabiyotlarda taqlidlarning mohiyati, tasnifi masalasi amalga oshirilgan. Shuni inobatga olgan holda ishda turli tizimdagi tillardagi, ayniqsa, oʻzbek tili bilan qiyoslanayotgan ingliz va rus tillaridagi taqlidlarning pragmalingsvistik xususiyatlari oʻrganildi.

Maʼlumki, hayvonlar, hasharotlar, oʻsimliklar va qushlarning tovushlariga taqlidan hosil qilingan onomatopoeik soʻzlarning aksariyati tovushning manba obyektiga aniq ishora qiladi. Shu bois ular oʻz manbalari bilan chambarchas bogʻliq va kontekstdan mustaqil. Masalan:

Одно “кукареку” растянулось так хрипленько, так искренне. Грубые краски у морской зари: тьян-ляп, оранжевая, фиолетовая краска. Солнце сально взбухло. Волны колебались светлыми тенями. Это все вышло

⁵⁶ Аваков С.А. Звукоподражательные слова русского языка в сравнении с английским и немецким: Автореф. Дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2007. –С. 10-11.

неинтересно и постыло. Только *петушиные вопли* меня и позабавили.
(С. Шаргунов. “Ура!”)

Berilgan misolda qo‘llangan “*кукареку*” taqlid so‘zi xo‘rozga, erta tongga ishora ekanligini ko‘rish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida esa taqlid so‘zlar, asosan, sistem-struktur aspektda tadqiq etilgan. Keyingi yillarda taqlid so‘zlarni pragmalingsvistik aspektda o‘rganishga e‘tibor qaratilgan bo‘lsa-da, bu muammo hanuzgacha maxsus tadqiqot obykti bo‘lgan emas. Quyida o‘zbek tilshunosligida taqlid so‘zlarning sistem-struktur yo‘nalishda o‘rganilishi muammosini tahlil qilamiz.

Taqlid so‘zlarning morfologik xususiyatlari, ma‘no va tuzilishiga ko‘ra turlari o‘zbek tili morfologiyasi, xususan, so‘z turkumlari tahlil etilgan barcha ishlarda atroflicha yoritilgan. Oliy o‘quv yurtlari, umumta‘lim maktablari uchun yaratilgan darslik, o‘quv qo‘llanmalarida taqlid so‘zlarning turkumlik maqomi, semantikasi, morfologik xususiyatlari, gapdagi sintaktik vazifasi kabilar haqida yetarlicha ma‘lumot berilgan⁵⁷.

O‘zbek tilshunosligida taqlid so‘zlarga nisbatan mimema, tasviriy so‘z, tasvir birliklari terminlari ham qo‘llanganligiga guvoh bo‘lamiz⁵⁸. *Mimema* termini dastlab “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobi (F.Kamol tahriri ostidagi nashr)da qo‘llangan. 2001-yilda nashrdan chiqqan “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi”

⁵⁷ Ўзбек тили грамматикаси. Т. 1. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 332–364; Шоабдурахмонов Ш., Аскарлова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 44–443; Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 394–396; Зикриллаев Ғ.Н. Ўзбек тили морфологияси. – Бухоро, 1994. – Б. 23–24; Аскарлова М., Юнусов Р., Йўлдошев М., Мухамедова Д. Ўзбек тили практикumi. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2006. – Б. 144–146; Ш.Раҳматуллаев. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 210–213; Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент, 2007. – Б. 243–244; Мадрахимов И. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. – Фарғона, 2008. – Б. 137–139.

⁵⁸ Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент, 1966. – Б. 77; Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 121; Элтазаров Ж. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 23–24.

(Morfologiya) kitobida ham taqlid soʻzlarga nisbatan mimema termini ishlatilgan⁵⁹.

Taqlid soʻzlarga nisbatan tasviriy soʻz termini esa ilk bor R.Qoʻngʻurov tomonidan qoʻllangan⁶⁰. Bu termin keyinchalik J.Eltazarovning soʻz turkumlarining oʻzaro aloqasi va koʻchishi masalasi tadqiq etilgan doktorlik ishida ham berildi. Tadqiqotchi tasviriy soʻzlarning til taraqqiyotining ibtidosi davrida, ism va feʼl turkumlari bilan bir paytda shakllangani, shu bois bu guruhga mansub soʻzlarni mustaqil soʻzlar qatoriga kiritish lozimligi haqida mulohaza yuritadi⁶¹. Bu xulosasiga qaramay, uning oʻzi ham taqlidiy soʻzlarga “alohida soʻzlar turkumi” doirasida tavsif berdi⁶².

I.Madrahimov taqlid soʻzlarga nisbatan *tasvirlovchi soʻzlar* terminini qoʻllagan. U taqlid soʻzlarni “tasvirlash orqali ifodalovchi leksemalar” deb hisoblaydi. Olimning fikricha, bunday leksemalar mazmunan ifodalanadi. Chunonchi, *taq-taq, tars-turs* kabi taqlid soʻzlardagi tovushlar tizmasi ularning maʼnosidan xabar berib turadi⁶³.

Nazarimizda, taqlid soʻzlarning tovushlar tizmasi maʼnosidan xabar berishi haqidagi xulosa unchalik ilmiy asosga ega emas. Masalan, *taq-taq* taqlid soʻzining muayyan ovozni ifoda etishi haqidagi maʼlumot til egasi lisoniy ongida oldindan mavjud boʻlgani bois u ayni taqlid soʻzning ovozga nisbatan qoʻllanganini anglab yetadi. Ammo *taq-taq* taqlid soʻzining aynan nimaning tovushini ifoda etayotgani uni hosil qiluvchi predmet bilan bogʻlanmas ekan, u til egasiga nomaʼlum boʻlib qolaveradi. Bu jihat taqlid soʻz ifoda etgan voqelikning bevosita uning tovushlar tizimidan anglashilmasligini koʻrsatadi.

⁵⁹ Ҳозирги ўзбек адабий тили / Ф.Камол таҳрири остида. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957; Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – Б. 50.

⁶⁰ Қўнғуров Р. Коʻрсатилган манба.

⁶¹ Элтазаров Ж. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзaro алоқаси ва кўчиши: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 23.

⁶² Элтазаров Ж. Shu manba. – В. 22.

⁶³ Мадрahимов И. Сўз серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. – Фарғона, 2005. – Б. 42-43.

Shuningdek, bir turdagi tovushga nisbatan turli til egalari tomonidan turli tovushlar tizimidan tashkil topgan taqlid soʻzlarning hosil qilinishi ham taqlid soʻzlar ifoda tomonining ularning maʼnosidan darak berib turishi haqidagi xulosaga zid keladi.

Uzoq yillar davomida oʻzbek tilshunosligida taqlid soʻzlar “Alohida soʻzlar turkumi”ga tarkibiga kiritildi. Ammo soʻnggi yillarga oid ayrim tadqiqot ishlarida taqlid soʻzlar mustaqil soʻzlar sifatida talqin etilib, shu guruh doirasida oʻrganildi. I.Madrahimov taqlid soʻzlarning mustaqil soʻzlarga xos barcha belgilarga egaligi, ammo ular oʻzgarmas soʻz boʻlgani bois nomustaqil soʻzlar sirasiga kiritib kelinganini bayon qiladi⁶⁴.

R.Sayfullayeva boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan yaratilgan “Hozirgi oʻzbek tili” oʻquv qoʻllanmasida ham taqlid soʻzlar mustaqil soʻzlar tarkibiga kiritilgan. Oʻquv qoʻllanmada taqlid soʻzlarning mustaqil soʻzlar sirasidan oʻrin olishiga quyidagi ilmiy asoslar koʻrsatiladi: birinchidan, turkiy tillarda taqlid miqdoran koʻp va maʼno jihatdan rang-barang; ikkinchidan, ulardagi tovushlar tizmasi maʼlum obyektiv voqelikdan xabar berib turadi; uchinchidan, taqlid gap tarkibida maʼlum bir sintaktik pozitsiya egallaydi; toʻrtinchidan, taqlid morfologik jihatdan oʻzgaruvchadir⁶⁵.

Tilning lisoniy manzarasida taqlid soʻzlar kelib chiqish etimologiyasining yaqqol berilishi Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻatit turk” asarida ham berilib, bu haqida : “Puxta qoʻllanma boʻlsin deb, har bir qabilaning oʻziga xos xususiyatlariga qiyosiy qoidalar tuzdim...” Turkiy tillarni farqli belgilariga koʻra dastlabki ikki guruhga ajratib: turklar(chigil, qoshgʻar, argʻu, barsogʻon, uygʻur), oʻgʻuz va qipchoq qabilalari tillarini farqli va oʻhshash jihatlarini koʻrsatadi. Koshgʻariy turkiy tillarda soʻzlarning qanday yasalişini ularning tuzilishidagi qoliplarni aniqlash va kelib chiqishini tahlil qilish orqali oʻrganadi, bu esa til grammatikasi va lugʻat boyligi haqida tushuncha berishga yordam beradi.

⁶⁴ Madrahimov I. Serkirra moʻxiatli lisoniy birliklar tasnifiga doir // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Тошкент: ТДПУ. 2008. – № 2. – Б. 45–47.

⁶⁵ Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент, 2007. – Б. 243.

Qolaversa, Koshg‘ariy so‘z yasashida turli qoliplarni aniqlab, ot, sifat va fe’llarning o‘zagi, infikslari va oxiri bilan ro‘yxatini taqdim etadi. Shuningdek, u arab, fors, xitoy kabi turkiy lug‘atning turli etimologik manbalariga izoh beradi. Koshg‘ariy so‘z yasalishi tahlili bilan bir qatorda turli sotsiolingvistik omillarni ham ko‘rib chiqdi. U turkiy tilning turli dialektlari va sotsiolektlarini aniqlab, tilga mo‘g‘ullar, turklar, arablar va forslar kabi turli etnik guruhlar va madaniyatlar ta‘sirida qanday bo‘lganini tushuntirib berdi⁶⁶.

M. Koshg‘ariyning lug‘atida qirqqa yaqin taqlid so‘zning izohi berilgan⁶⁷.

Anglashiladiki, yuqorida sanab o‘tilgan olimlar ishlarida taqlid so‘zlarning morfologik xususiyatlari, sintaktik imkoniyati, leksik-semantik turlari tekshirilgan.

Xullas, o‘zbek, ingliz, rus tilshunosligida modallar va taqlid so‘zlar sistem-struktur aspektida chuqur o‘rganilgan. Bu turkumdagi so‘zlarning morfologik xususiyatlari, struktur-derivatsion, uslubiy-funksional belgilari, tasnifi masalasi bo‘yicha chuqur xulosalar bayon qilingan.

1.3. Undov, taqlid va modal so‘zlar pragmalingvistikaning tadqiq obykti sifatida

Dunyo tilshunosligida ko‘plab lisoniy birliklar qatori undov, taqlid va modal so‘zlar lingvistik sathda ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganildi. Ammo bu til birliklari asosiy hollarda inson omili, jamiyat, madaniyat kabilar bilan bog‘liq holda o‘rganilmadi. To‘g‘ri, qator tilshunosliklarda undov, taqlid va modal so‘zlar antropotsentrik aspektda tahlil etilgan tadqiqotlar mavjud, lekin ular tahlil qilinganda bir qator vazifalar borligi ko‘zga tashlanmoqda. Zero, undov, taqlid va modal so‘zlarni nutq vaziyati, til egalarining kommunikativ maqsadi, kontekst kabi omillar bilan bog‘liqlikda tadqiq etish ularning nutqda reallashuvchi yashirin imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

⁶⁶ Jumanazarova S.R. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida so‘z yasalishi // Sifatli ta‘lim-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O‘zMU. 2023. – № 4. – B. 544–547.

⁶⁷ Кошғарий М. Девону луғотит турк. I том, – Тошкент, 1960.

Jahon tilshunosligida o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab til birliklarini inson omili bilan bog'liq holda o'rganishga bo'lgan qiziqish ortdi va tilni egasidan ajratmagan holda tadqiq etuvchi tilshunoslikning antropotsentrik yo'nalishi yuzaga keldi. Tilshunoslikda til va uning mohiyati haqida turli fanlar doirasida atroflicha ma'lumotlar hamda behisob ta'rif va tavsiflar aytilgan bo'lsa-da, bu davrga kelib tilni o'rganishga bo'lgan yondashuvlar tubdan o'zgardi. Bu yondashuvlarning barchasi tilning kishilar o'rtasida o'zaro fikr almashishning muhim vositasi ekanligi, til insoniyat bilan bog'liq holda mavjudligi va uni o'rganishda til jamiyatini inobatga olish zarurligi haqidagi qarashlar doirasida shakllandi.

Ayni shu davrdan boshlab jahon tilshunosligida til birliklarini nutqiy faoliyat ishtirokchilari, nutq vaziyati, kontekst, til sohiblarining til ko'nikmalari, voqelikni idrok etish darajasi, ruhiyati, nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlari kabi lisoniy va nolisoniy omillar bilan aloqadorlikda o'rganishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Til tizimini o'rganishga bu tarzda yondashuv tilshunoslik fanining yangi yo'nalishdagi tarmoqlarini yuzaga keltirdi. Pragmalingvistika ham tilning amaliy qo'llanishida inson omili bilan bog'liq holda voqelanuvchi lisoniy hodisalarni o'rganishga e'tibor qaratilishi natijasida maydonga keldi.

Tilni inson omili bilan bog'liq holda o'rganish tendensiyasining keng tus olishi munosabati bilan til birliklarini pragmalingvistik aspektda tadqiq etish zaruriyati yuzaga keldi.

Manbalarda qayd etilishicha, lingvistik pragmatikaning nazariy masalalari dastlab Ch.Pirs, U.Djems, Ch.Morrislar tomonidan o'rtaga tashlangan⁶⁸. Ammo tilshunoslikning alohida tarmog'i sifatida pragmalingvistika XX asrning 60-70-yillarida ajralib chiqdi. Sh.Safarovning ma'lumot berishicha, pragmalingvistikaning mustaqil yo'nalish sifatida maydonga kelishiga 1970-yilda

⁶⁸ Петров В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистики. Вып. XVI. – М., 1985. – С. 471–474.

Dordreht shahrida o‘tkazilgan “Tabiiy tillar pragmatikasi” mavzusidagi xalqaro konferensiya turtki bo‘lgan⁶⁹.

Bugungi kunda pragmalingsvistika antropotsentrik tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida o‘z tadqiq obyekti, tahlil usullari, aniq qo‘yilgan maqsad va vazifasi, terminologik tizimiga ega. Pragmalingsvistikaning nazariy masalalari turli tillar misolida chuqur o‘rganilmoqda.

O‘tgan asrning 60-70-yillarida dunyo tilshunosligida pragmalingsvistika masalalarining keng tarqalishida Ch.Pirs, Ch.Morris, G.Klaus, K.Byuller, S.Levinson kabi olimlarning qarashlari muhim o‘rin tutdi⁷⁰. Ayni shu davrdan boshlab turli tillardagi birliklar pragmalingsvistik aspekta o‘rganila boshlandi.

Rus tilshunosligida lingvistik pragmatikaning umumnazariy masalalari dastlab N.D.Arutyunova, Y.V.Paducheva tomonidan ilgari surildi. Ular pragmalingsvistikaning shakllanishi, tadqiq obyekti, muammolari, kategoriyalari kabi masalalarga oydinlik kiritishdi. Shu davrdan boshlab rus tilshunosligida pragmalingsvistika masalalari tahliliga bag‘ishlangan qator ishlar maydonga keldi. Bu ishlarda kommunikativ birliklar, xususan, matnning pragmatik xususiyatlari, unda pragmatik bahoning ifodalanishi, ayrim til birliklarining kommunikativ-pragmatik vazifasi kabilar chuqur o‘rganildi⁷¹.

O‘zbek tilshunosligida ham o‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab til birliklarining pragmalingsvistik xususiyatlarini tadqiq etishga e‘tibor qaratildi. Bu davrda pragmalingsvistik aspektda amalga oshirilgan dastlabki ishlar sifatida

⁶⁹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – Б. 36.

⁷⁰ Сафаров Ш.Кўрсатилган манба. – Б. 13-72.

⁷¹ Метцлер А.А. Прагматика коммуникативных единиц. – Кишинёв, 1990. – С.140; Баранов А.Г. Функционально-прагматическая концепция текста. – Ростов на / Д., 1993. – С.182 ; Бердникова А.Г. Речевой жанр благодарности: Когнитивный и семантико-прагматический аспекты: Дисс. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2005; Беляева И. В. Прагматическое содержание количественной оценки: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ростов н/Д, 2005. – С.224; Давидкина Н.А. Наречия с семантикой незначительности признака: семантический, грамматический и прагматический аспекты: Дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2005. – С.166; Джаграева М. Л. Коммуникативно-прагматические особенности фразеологической деривации: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ставрополь, 2005. – С.181; Вахтел Н. М. Высказывание в позиции газетного заголовка: семантика и прагматика: Дисс. ... докт. филол. наук. – Воронеж, 2005. – С.271.

A.Nurmonov, N.Mahmudovlarning lingvistik presuppozitsiya masalasiga bag‘ishlangan maqolalarini ko‘rsatish mumkin⁷².

Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘tgan asrda dunyo tilshunosligida turli tillardagi undov, taqlid va modal so‘zlarning an’anaviy, sistem-struktur aspektlardagi tadqiqi amalga oshirildi. Bu davrda tilshunoslar ushbu morfologik birliklarni chuqur o‘rganib, ularning mohiyatini atroflicha ochib berishdi.

XXI asrning boshlarida Y.Sereda tomonidan ingliz tilidagi undovlar “oz o‘rganilgan so‘zlar guruhi” sifatida tekshirilgach⁷³, ushbu mavzuga aloqador muammolar yana kun tartibiga chiqdi. Tilshunos A.Statsenko ham undovlarga ta’rifi va tadqiqi maromiga yetmagan birliklar sifatida munosabat bildirdi⁷⁴. S.Mamushkina ham ushbu masalaga fikr bildirib, ingliz tilshunosligida hali-hanuz undovlarning mazmun-mohiyati, kognitiv xususiyatlari, lingvistik va poetik imkoniyatlari to‘liq ochilmaganligi va bu borada ko‘plab ochiq savollar mavjudligini ta’kidladi⁷⁵.

S.Usmonov undov so‘zlarning bir paytni o‘zida ham so‘z, ham gap bo‘lib kela olishini ta’kidladi⁷⁶. Olim bu so‘zlarni alohida guruh so‘zlar sifatida o‘rganishni tavsiya etdi, bugungi kunda undov so‘zlar alohida turkum so‘zlari sifatida o‘rganiladi.

O‘tgan asrning 90-yillariga kelib tilshunosligimizda pragmalingvistikaning nazariy asoslari, tadqiq obyekti, vazifalari, dolzarb muammolar o‘rtaga tashlandi va bu yo‘nalishning til hodisalarini tadqiq etishdagi ahamiyati asoslab berildi. Bu davrda o‘zbek tilidagi ilmiy matnlarning pragmatik xususiyatlari, yuklamalar

⁷² Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1986. – №6. – Б. 42–45; Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1986. – №6. – Б. 42–45; Лутфуллаева Д. Ўрнига кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – №5. – Б. 46–48.

⁷³ Середя Е.В. Место междометий в системе частей речи: Автореф. ... дисс. канд. филол. наук. – М., 2004. – С 271.

⁷⁴ Стаценко А. С. Проблемы перевода слов с эмоциональным компонентом. Общество: философия, история, культура, 2011. – М., – № 3–4. – С. 110–117.

⁷⁵ Мамушкина С.Ю. Семантика и прагматика междометий в современном английском языке: Автореф. ... дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2003. – 32 с.

⁷⁶ Усмонов С. Ҳозирги замон ўзбек тилида ундовлар: Филол. фан. канд. ...дисс. – Тошкент, 1962. – Б. 6.

presuppozitsiyasi, o‘zbek tilida pragmatik semaning hosil bo‘lishi, konnotativ ma’noning ifodalanishi kabi pragmalingvistikaning nazariy masalalari tahlilga tortildi. Keyinchalik so‘roq gaplar, ko‘makchi va kelishiklar presuppozitsiyasi monografik aspektda o‘rganildi⁷⁷. Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida lingvistik pragmatika muammolari tadqiqiga doir ishlarning salmog‘i yanada ortdi⁷⁸.

Shunisi ahamiyatliki, o‘zbek tilshunoslari pragmalingvistika muammolarini qiyosiy va umumiy tilshunoslik doirasida ham tadqiq etishga e’tibor qaratdilar. Bu yo‘nalishdagi ishlar sifatida S.Rahimovning deysis nazariyasi tahliliga doir, Sh.Safarovning pragmalingvistikaning umumnazariy muammolari tahliliga oid asarini dastlabki ishlar sifatida baholash mumkin⁷⁹.

So‘nggi yillarda qiyoslanayotgan o‘zbek, ingliz, rus tillarida pragmalingvistik aspektdagi ishlarning salmog‘i ancha ortdi. Albatta, bu yo‘nalishda o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham yo‘q emas. Xususan, turli tillar tizimida undov, modal, taqlid so‘zlarning o‘xshash va farqli pragmalingvistik xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, turli tizimdagi tillarda undov, taqlid, modal so‘zlar formal (shakliy), semantik, funksional-stilistik, pragmatik kabi xususiyatlari asosida bir-biridan farqlanadi. Bu belgilardan pragmalingvistik belgi barcha til birliklariga birday xos emas. Ushbu birliklarni pragmatik aspektda o‘rganishda ularda

⁷⁷ Хайназарова М. Сўроқ гапларда шакл ва мазмун номувофиқлиги: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 25 б.; Бурханов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси (пресуппозицион аспект): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 27 б.

⁷⁸ Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талкини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 15–17; Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.; Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.; Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2017. – 262 б.; Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2018.

⁷⁹ Рахимов С. Типология текстообразующих категорий: Семантика. Прагматика. Функция. – Андижан, 1990. – 239 с.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – 285 б.

pragmatik belgi qay darajada mavjudligini aniqlash lozim bo‘ladi. Bu jihatdan undov, taqlid, modal so‘zlarni quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Pragmatik mohiyatga ega undov, modal, taqlid so‘zlar.
2. Nutqiy qo‘llanishda pragmatik vazifa bajaruvchi undov, modal, taqlid so‘zlar.
3. Pragmatik belgiga ega bo‘lmagan undov, modal, taqlid so‘zlar.

Pragmatik semaga ega undov, modal, taqlid so‘zlarning pragmatik xususiyati nutq vaziyati va kontekstsiz ham idrok etiladi. Nutq vaziyati va kontekst bu til birliklarining pragmatik semasini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, *O‘h-ho‘*, *Vay* undovlarining ijobiy baho munosabatini aks ettirishi bevosita anglashilib turadi.

Bu xususiyat boshqa turkum birlikariga ham xos. Masalan, *supurmoq* fe‘l leksemasi semantikasi orqali ifloslanishning anglashilishi, *yaqinlashmoq* fe‘lining makon deysisiga ishora qilishi bu leksemalarning tabiatan pragmatik semaga egaligini anglatadi. Yoki *keyin*, *so‘ng*, *so‘ngra* leksemalari ifoda etgan zamon bevosita o‘zidan avvalgi zamon bilan *vaqt* nuqtayi nazaridan uzviy aloqador bo‘lgani bois *avval*, *ilgari*, *oldin*, *burun* leksemalariga ham ishora qilib turishi ularning mohiyatan pragmatik xususiyatga egaligidan dalolat beradi. Bu xususiyat turli tizimdagi tillarga mansub undov, taqlid, modal so‘zlarda ham kuzatiladi. Mazkur holat ushbu birliklar pragmatik xususiyatining tadqiq obyekti bo‘la olishini asoslaydi.

Til birliklarining nutq egasining kommunikativ maqsadi asosida pragmatik vazifa bajarishga yo‘naltirilishi taqlid, undov va modal so‘zlardaham kuzatiladi. Taqlid, undov va modal so‘zlarning ayrimlarida pragmatik vazifa bajarish birlamchi mohiyat kasb etsa, ayrim turlarida pragmatik xususiyat ikkilamchi vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikki holatga asosan ham bu turkum so‘zlar pragmatik xususiyatining tadqiq obyekti sanaladi.

Til birliklarining nutq egasi maqsadi bilan bog‘liq holda nutqda pragmatik xususiyat kasb etishi maxsus nutqiy qo‘llanish, kontekstni taqozo etadi. Nutqiy vaziyat va kontekst bunday til birligiga yuklatilgan pragmatik vazifaga aniqlik

kiritadi. Masalan, o‘zbek tilida nutq egasi tinglovchi fikriga munosabat bildirar ekan, unga nisbatan kesatqni ifoda etganda, *Assalom-u alaykum* undovidan foydalanib, bu birlikka ushbu vazifani yuklashi kuzatiladi. Bunday vaqtda undov so‘z salomlashuv uchun xizmat qilmaydi.

Til birliklarining nutq egasi maqsadi bilan bog‘liq holda nutqda pragmatik xususiyat kasb etishi boshqa birliklar, masalan, ayrim yuklamalarda ham kuzatiladi. Masalan, “*Men ham bordim*” gapidan “*Boshqalar ham borgan*” presuppozitsiyasi anglashiladi. Presuppozitsiya *ham* yuklamasiga yuklatilgan pragmatik vazifa asosida yuzaga chiqadi. Rus tilidagi *тоже* yordamchisi ham shu vazifani bajaradi. Qiyoslang: *Я тоже читала. (Другие читали. Я тоже читала). Также (ham) yordamchisining bu vazifasi kontekstdan tashqarida amal qilmaydi. Bu birliklarga kontekstda pragmatik vazifa yuklanishi anglashiladi.*

Taqlid, undov va modal so‘zlar til egalarining subyektiv munosabatini namoyon etishda ham ishtirok etadi. Bu vazifa, ayniqsa, modal va undov so‘zlarning substansial mohiyatida mujassam, taqlidlarga esa nutq jarayonida bu vazifa yuklatiladi. Har ikki holatda ham taqlid, undov va modal so‘zlar orqali ifodalangan pragmatik baho munosabati bu turkum so‘zlarni pragmatik aspektida o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi.

Nutq jarayonida ayrim taqlid, undov va modal so‘zlar til sohibining gapda bevosita ifodalanmagan, yashirin xarakterdagi ichki nutqiga ishora qilib keladi. Bu o‘rinda taqlid, undov va modal so‘zlar nutq vaziyati, kontekst bilan zich bog‘lanadi. Kontekst, nutq vaziyatidan tashqarida ularning mazkur xususiyati aktuallashtirmay qoladi. Taqlid, undov va modal so‘zlarga xos bu turdagi vazifa, tabiiyki, pragmatik tahlilga muhtoj bo‘ladi.

Taqlid, undov va modal so‘zlarning bu kabi pragmatik xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan bo‘lsa-da, ayrim maqolalarda tahlilga tortilgan. Jumladan, D.Lutfullayeva, L.Boboxonovlar undov so‘zlarning

pragmatik mohiyatini yoritishga harakat qilgan⁸⁰. Ular o‘zbek tilidagi his-hayajon undovlarining nutq subyektining his-tuyg‘usini aks ettirish orqali uning voqelikka emotsional baho munosabatini ham ifoda etishi natijasida bevosita pragmatik vazifa bajarishini yoki buyruq-xitob, minnatdorchilik, salomlashuv, xayrlashuv undovlarining so‘zlovchi kommunikativ niyati, ichki maqsadini aks ettirishga bo‘ysundirilishi oqibatida pragmatik xususiyat kasb etishini *rahmat, tashakkur, qulluq* undovlari misolida asoslab berishgan. Shuningdek, undov so‘zlarning nutq subyektining shaxsi, yoshi, jinsi hamda milliy qadriyatlar bilan bog‘langan holatlarda ham pragmatik xususiyatga ega bo‘lishi haqida fikr yuritishgan⁸¹. Mualliflarning qayd etilgan maqolalari morfologik birliklarning pragmatik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida, albatta, diqqatga sazovor. Biroq undov so‘zlarning pragmatik xususiyatlarini nafaqat shu til doirasida maxsus tadqiq etish, balki qiyosiy aspektda ham o‘rganish tilshunoslikning navbatdagi vazifalaridan biridir.

Anglashiladiki, undov, taqlid, modal so‘zlar pragmalingsvistikaning tadqiq obykti bo‘la oladi. Bu birliklar nafaqat pragmalingsvistikaning, balki inson omili bilan bevosita bog‘lanishi sababli antropotsentrik tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlarida ham tadqiq etilishi maqsadga muvofiq. Masalan, yndov so‘zlarning intralingsvistik xususiyatlariga hamohang tarzda ularning ekstralingsvistik jihatlari (mimika, jest, tana harakatlari bilan bog‘lanishi) ham undovlar voqelanishidagi asosiy farqli tomoni hisoblanadi. Mazkur birliklar bilan bog‘liq hodisalar nafaqat pragmatik, balki lingvopoetik aspektda ham alohida o‘rganilishi maqsadga muvoviq⁸².

⁸⁰ Lutfulloeva D., Boboxonov L. Ўзбек тилининг айрим морфопрагматик воситалари таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. – № 3. – Б. 63-66; Shu mualliflar. Undov sўzlarining pragmatik xususiyati // Adabiy taъlim va ёшlar tarbiyasi. – Toshkent: TDPU, 2010. – Б. 106-108; Shu mualliflar. Undov sўzlarining morfo pragmatik taъlimi // TVDPI professor-ўqituvchilarining “Mustaъkam oila” йилига бағишланган анъанавий, илмий-назарий ва амалий-услубий анжумани мақолалари тўплами. – Toshkent: Fan технологиялари, 2012. – Б. 73–75.

⁸¹ Qarang: Lutfulloeva D., Boboxonov L. Ўзбек тилининг айрим морфопрагматик воситалари таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. № 3. – Б. 63–66.

⁸² Yodgorov J.J. O‘zbek tilidagi undov va taqlid so‘zlar lingvopoetikasi: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 14.

E'tiborga loyiqki, ingliz va rus tilshunosligida undov so'zlarning pragmatik xususiyatlari maxsus tadqiqot obyektini bo'lgan. E'tiborimizni monografik aspektida bajarilgan ayrim ishlar tahliliga qaratamiz.

Undov so'zlarni pragmatik aspektida o'rganishga qaratilgan ishlar ichida G.V.Sinekopaning "Междометия первого слоя в английском языке и их дериваты: семантико-прагматический и ономазиологический аспекты" mavzuidagi tadqiqoti, T.V.Belousning "Когнитивно-прагматический анализ междометий в англоязычном дискурсе", S.Y.Mamushkinaning "Семантика и прагматика междометий в современном английском языке" mavzusidagi tadqiqot ishlari diqqatga sazovor⁸³.

G.V.Sinekopaning qayd etilgan tadqiqotida ingliz tilidagi undov so'zlar pragmatik, onomasiologik aspektlarda tadqiq etilgan. Undovlar situativ undov so'zlar va alohida ma'no ifodalovchi undov so'zlarga bo'linib o'rganilgan. Har bir turga mansub undov so'zlarning nutqiy qo'llanishda yuzaga chiqadigan ma'no xususiyatlari tahlil qilingan.

T.V.Belousning tadqiqotida esa undov so'zlarning til sistemasidagi mavqeyi, birlamchi va ikkilamchi undovlar, emotsiyani til vositalari orqali ifoda etishning ilmiy konsepsiyasi, ingliz tilidagi undov so'zlarning emotivlik kognitiv kategoriyasini hosil qilishi, dialogik diskurs tarkibida qo'llangan undovlarning pragmatik vazifalari, xususan, undov so'zlarning emotiv akt tuzishdagi ishtiroki, diskursni hosil qiluvchi marker sifatidagi mavqeyi atroflicha tahlil etilgan⁸⁴.

S.Y.Mamushkinaning qayd etilgan tadqiqotida ingliz tilidagi undov so'zlarning morfologik, semantik xususiyatlari qatorida pragma-diskursiv xususiyatlarini o'rganishga ham e'tibor qaratilgan⁸⁵. Bu ishning xarakterli jihati

⁸³ Синекопа Г.В. Междометия первого слоя в английском языке и их дериваты: семантико-прагматический и ономазиологический аспекты: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Одесса, 1989. – 16 с.; Белоус Т.В. Когнитивно-прагматический анализ междометий в англоязычном дискурсе: Дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2006. – 187 с.; Мамушкина С.Ю. Семантика и прагматика междометий в современном английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2003. – 175 с.

⁸⁴ Белоус Т.В. Ко'rsatilgan tadqiqot.

⁸⁵ Мамушкина С.Ю. Ко'rsatilgan tadqiqot.

shundaki, unda ingliz tilidagi monologik va dialogik matnlarda qoʻllangan undov soʻzlarning muayyan kommunikativ maqsad asosida mustaqil tarzda axborot ifodalashga qaratilishi, yaʼni nutqiy faoliyatning undov soʻzlar yordamida aktuallashuvi va bunda kontekst hamda nutq vaziyati omilining oʻrni masalasi ochib berilgan.

Ingliz tili undovlarining pragmatik xususiyatlari qiyosiy aspektda ham maxsus oʻrganilgan. Y.S.Nikolayevaning “Междометия в прагмалингвистическом аспекте” nomli tadqiqotida rus va ingliz tillaridagi undov soʻzlarga formal-grammatik, semantik-sintaktik jihatdan tavsif berildi, bu tillardagi soʻzlashuv nutqida qoʻllanuvchi undov soʻzlar pragmatik aspektda oʻrganilgan. Xususan, rus va amerikalik aktyorlar televizion nutqida qoʻllangan undovlarning pragmatik xususiyatlari nutqiy strategiya nuqtayi nazaridan tahlil etilgan, aktyorlar nutqining emotiv taʼsir xususiyatlari va unda undovlarning oʻrni milliy-madaniy va genderologik jihatdan qiyoslangan va emotivlarning nutqiy aktualizatorlik vazifasi ochib berilgan⁸⁶.

Shuningdek, I.A.Turdi-Axanovanning “Сопоставительный анализ междометий в таджикском и английском языках” mavzusidagi tadqiqot ishining 2-bobida tojik va ingliz tillaridagi undov soʻzlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari qiyosan tahlil etilgan⁸⁷. Bu ishda undov soʻzlar ham sistem-struktur, ham pragmalingvistik aspektlarda oʻrganilgan.

Rus tilshunosligida ham undov soʻzlar pragmatik aspektda maxsus tadqiq obyektini boʻlgan. Jumladan, T.M.Shkapenkoning “Интеракционно-прагматические функции междометий” mavzusidagi doktorlik ishida (ingliz-amerika interyektivlarini almashtiruvchi rus tilidagi undovlar misolida) undov soʻzlarning pragmatik xususiyatlari tadqiq etilgan⁸⁸.

⁸⁶ Николаева Е.С. Междометия в прагмалингвистическом аспекте (на материале русского и английского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ростов н/Д., 2006. – 180 с.

⁸⁷ Турды-Аханова И.А. Сопоставительный анализ междометий в таджикском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2015. – 132 с.

⁸⁸ Шкапенко Т.М. Интеракционно-прагматические функции междометий (на материале заимствованных англо-американских интеръективов в современном русском языке): Дисс. ... докт. филол. наук. – Калининград, 2017. – 378 с.

Ingliz va rus tilshunosligida taqlid soʻzlar ham pragmatik aspektda tekshirilgan. Rus tilidagi taqlid soʻzlarning pragmatik xususiyatlarini monografik aspektda oʻrganishga bagʻishlangan ishlardan biri S.A.Aliyevaning “Функционально-семантический анализ звукоподражательной лексики в современном русском языке” mavzusidagi tadqiqotidir. Bu ishda taqlid soʻzlar struktur-semantik, funksional va pragmatik aspektlarda oʻrganilgan ⁸⁹. Tadqiqotda taqlid soʻzlarning konnotatsiyani ifodalashi hamda taqlid soʻzlar metaforizatsiyasining semantik asoslari muammosi pragmatik aspektda tahlil qilingan.

Van Sinsinning “Междометия и звукоподражания русского языка (в функциональном соотношении с китайскими)” mavzusidagi nomzodlik ishida esa rus tilidagi undov va taqlid soʻzlar xitoy tili materiallari bilan qiyosan oʻrganilgan. Bu ishda ham taqlid va undov soʻzlar turli aspektlarda oʻrganilgan. Undov va taqlid soʻzlarning grammatik, funksional xususiyatlari bilan birga, pragmatik vazifasi ham tahlilga tortilgan⁹⁰.

Ingliz tilidagi taqlid soʻzlar *onomatopoik soʻzlar* sifatida baholanadi. Onomatopoik soʻzlar mohiyatini matnsiz anglash mumkin emas. Gapning komponent va sintaksem bogʻlanishlarini aniqlashda, odatda, gapda komponentlarni tushirib qoldirish eksperimentidan foydalaniladi. Sintaksemalarni oʻrganishda boshqa xil eksperiment metodidan foydalaniladi, yaʼni biron bir paradigmatic qatorni tashkil etuvchi sintaksemani aniqlashda unga yaqin maʼnoli boshqa sintaksema bilan almashtirilgan eksperiment metodi qoʻllaniladi.

Rus va ingliz tillaridagi modal soʻzlarning pragmatik xususiyatlariga koʻra, aniqlik, qatʼiylikni ifodalovchi vositalar orasida asosiy oʻrinni qatʼiylikning tub semasiga ega modal birliklar egallaydi; ularning asosiy pragmatik vazifasi propozitsiyaning haqqoniyligi, rostligini taʼkidlash hisoblanadi. Mazkur turkumdagi modal birliklari orasida quyidagi mazmunda guruhlar ajratiladi:

⁸⁹ Алиева С.А. Функционально-семантический анализ звукоподражательной лексики в современном русском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 1997. – 216 с.

⁹⁰ Ван Синсинь. Междометия и звукоподражания русского языка (в функциональном соотношении с китайскими): Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2016. – 265 с.

- 1) soʻzlovchining propozitsiya haqqoniyligiga ishonchini ifodalovchilar;
- 2) soʻzlovchining propozitsiya shubhasiz toʻgʻriligiga ishonchiga ishora qiluvchilar;
- 3) soʻzlovchining propozitsiya aniqligiga ishonchini bildiruvchilar.

Ajratilgan modal birliklarining har bir guruhi birliklarning lugʻaviy maʼnosidagi farqlarga asoslanib, taʼkidning turli darajasini namoyish etish mumkin. Modal operatorlar asosiy gapdan tortib maxsus gaplargacha turli grammatik mavqedagi birliklar orqali ifodalanishi mumkin. Aniqlik modal birliklari, xabar berilayotgan axborot haqqoniyligi va rostligini kuchaytirishdan tashqari, nutqiy tuzilma pragmatik mazmuniga adresat presuppozitsiyasining haqiqatligini tasdiqlash yoki inkor etish kabi qoʻshimcha tushlarni ham kiritishi mumkin. Ushbu turdagi operatorlar qatʼiy eʼtiroz, suhbatdosh fikriga qoʻshilish, uzil-kesil rad etish, qatʼiy baholash kabi ikkinchi darajali pragmatik mazmunlarni birinchi oʻringa olib chiqishga xizmat qiladi⁹¹. Aniqlik modal birliklarining mazmuni egiluvchan, ular oʻzgarishi va kategoriallik nuqtayi nazaridan neytral boʻlgan minnatdorlik, oqlash, tilak kabi nutqiy tuzilmalar mazmunini kuchaytirishi mumkin.

Oʻzbek, ingliz va rus tilshunosligida taqlid, undov va modal soʻzlarning pragmatik tadqiqida qamrab olingan masalalar shuni koʻrsatadiki, bu tillarda mazkur birliklarning pragmatik xususiyatlari, lisoniy ramzning anʼanaviy semiotik tavsif usullari asosida leksik birliklarning lingvosemiotik tabiatini ochishda lingvistik model yaratishga imkon beradi va bu muammo qiyosiy yoʻnalishda maxsus oʻrganilmagan. Bu turkum soʻzlar til egalarining hissiy kechinmalari, voqelikka munosabati, tovush, koʻrinish (obraz) kabilarni ularning milliy-madaniy qarashlari bilan bogʻliq holda aks ettirishini inobatga olsak, bu turdagi soʻzlarni nafaqat pragmatolingvistik aspektda, psixolingvistik, lingvokulturologik yoʻnalishlarda ham qiyosan oʻrganish maqsadga muvofiq.

⁹¹Холматова В.Н. Инглиз тилида аниқлик мазмунидаги модал соъзларнинг прагматик вазифалари ва гапда жойлашиш тартиби // Экономика и социум. – Тошкент, 2023. – № 2 (105). – Б.100.

Xullas, taqlid, undov va modal soʻzlar pragmalingsvistikaning oʻrganish obyekti sanaladi. Bu turkum soʻzlarning nutqiy vaziyat, kontekst orqali reallashuvchi, kontekstdan tashqaridagi ayrim xususiyatlari ularni pragmalingsvistik aspektda oʻrganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bob boʻyicha xulosalar

1. Oʻtgan asrda turli tizimdagi tillar – oʻzbek, ingliz va rus tillaridagi undov, taqlid va modal soʻzlarning semantik-struktur, formal-funksional xususiyatlari chuqur ochib berildi, semantik tasnifi amalga oshirildi. Ammo bu birliklarning pragmalingsvistik xususiyatlarini qyosan tahlil qilish va ularga xos umumiy hamda farqli pragmatik belgilarni aniqlash dolzarb masalalardan biri sanaladi.

2. Undov soʻzlar til sohiblarining hissiy kechinmalarini ularning milliy-madaniy qarashlari bilan bogʻliq holda aks ettirishi sababli bu tipdagi soʻzlarni nafaqat pragmatik aspektda, psixolingsvistik, lingvokulturologik yoʻnalishlarda ham qiyosan oʻrganish maqsadga muvofiq.

3. Undov soʻzlarning konkret shaxslarga oidligi, nutqqa hissiy subyektiv boʻyoq berishi ham ularning pragmalingsvistikaning tadqiq obyekti ekanligidan dalolat beradi.

4. Modal soʻzlarning lingvistik tabiatini yoritishga bagʻishlangan barcha ilmiy manbalarda bu turkum soʻzlarning munosabat ifodalashi qayd etilgan, modal soʻzlarning morfologik jihatdan oʻzgarmas soʻzlar ekanligi asoslab berilgan.

5. Tilshunoslikda modal soʻzlarning semantik tasnifida yakdillik mavjud emas. Modal soʻzlarning antropotsentrik mohiyatini ochib berish, ularni pragmalingsvistik aspektda oʻrganish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biridir.

6. Undov, taqlid va modal soʻzlarni nutq vaziyati, til egalarining kommunikativ maqsadi, kontekst kabi omillar bilan bogʻliqlikda tadqiq etish ularning nutqda reallashuvchi yashirin imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

II BOB. UNDOV SO‘ZLAR PRAGMATIKASI

2.1. Undov so‘zlarda pragmatik bahoning ifodalanishi

Ma'lumki, undov so‘zlar nutq egalarining his-tuyg‘ulari, ruhiy kechinmalarini ifodalovchi so‘zlardir. M.V.Lomonosovni undov so‘zlarning buyuk tadqiqotchisi desak bo‘ladi. Uning *“Undov so‘zlar insoniyat ruhiyatining qisqa so‘z bilan ifodalanishidir”* fikri undovlarning asl mohiyatini aniq aks ettiradi.

Undov so‘zlar bevosita nutq egasi ruhiyati bilan bog‘lanishi sababli ularda subyektiv munosabat aks etadi. Bu jihatdan undovlar antropotsentrik mohiyat kasb etuvchi morfologik birliklar hisoblanadi.

Muloqot muhitida undov so‘zlarning rang-barang pragmatik vazifalari yuzaga chiqadi. Undov so‘zlarning nutq egasining subyektiv baho munosabatini ifodalab kelishi ularning xarakterli pragmatik xususiyatidir.

Undov so‘zlarning nutq egasining qanday his-tuyg‘usini aks ettirishi asosiy hollarda nutqiy vaziyat, kontekst asosida aniqlanadi. Undov so‘zlarga xos bu xususiyatni payqagan professor Sh.Rahmatullayev bu haqda quyidagilarni qayd etgan: *“Undov bilan qanday his-hayajon ifodalanayotgani ko‘pincha aniq bo‘lmaydi; undovdan keyin (ba‘zan oldin) keladigan jumlaning mazmuni undov qanday his-hayajonni ifodalashini, qanday ohangda talaffuz qilinishini ko‘rsatib turadi”*⁹².

Undov so‘zlar orqali nutq egasining hissiy kechinmalari aks etar ekan, tabiiy ravishda ularda subyektiv munosabat ham o‘z ifodasini topadi. Shu bois undov so‘zlar ishtirokida tuzilgan gaplar subyektiv bo‘yoqqa ham ega bo‘ladi. Undov so‘zlarga xos bu holat ularning bevosita pragmatik tahlil obyektini ekanligini ko‘rsatadi. Undov so‘zlarning konkret shaxslarga oidligi, nutqqa hissiy subyektiv bo‘yoq berishi ham ularning pragmatik tahlil obyektini ekanligidan dalolat beradi.

⁹² Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 46.

Tilda shunday undov soʻzlar mavjudki, ular nutq egasining aniq hissiy kechinmalarini aks ettiradi. Ammo shu bilan birga, turli tillarda qanday his-tuygʻuni ifoda etayotgani faqat kontekstdan yoki nutq vaziyatidan maʼlum boʻladigan undov soʻzlar ham mavjud. Sh.Rahmatullayevning maʼlumot berishicha, “baʼzi undovlar aniq bir his-hayajonni ifodalashga xoslangan boʻladi. Masalan, *be* undovi rozi boʻlmaslik, qoʻshilmaslik kabi his-hayajonni, *iya* undovi “ajablanish” kabi his-hayajonni ifodalaydi. Tinglovchining diqqatini tortish uchun ishlatiladigan *hoy* undovi ham aniq bir maʼnoni ifodalaydi”⁹³.

Darhaqiqat, undov soʻzlarda nutq egasining qayday hissiy munosabati ifodalanganligi kontekst, muloqot vaziyati asosida aniqlanadi.

Turli tizimdagi tillarda subyektiv bahoning ifodalanishi emotsional undov soʻzlar orqali ancha yorqin aks etadi. Bu turdagi undovlar buyruq-xitob undovlaridan nutq egasining ruhiy holati bilan bogʻliq tarzda turli xildagi hissiyotlari (quvonchi, qaygʻusi, taajjubi, gumoni, eʼtirozi kabilar)ni ifoda etishi jihatidan farqlanadi. Emotsional undovlarning hissiy kechinmalarni aks ettirish jarayonida baho munosabatini ham ifoda etishi til egasining emotsional baho ifodasiga boʻlgan ehtiyoji va maqsadi bilan bogʻliq kechadi. Masalan:

– *Texnikumdan rabfakka oʻtibsanz, deb eshitdim, rostmi? – dedi. – Himm... yaxshi qilibsanz. Rabfakka oʻt, deb men aytib edim shekilli? Himm... Auff, zarda boʻlibmans...* (A.Qahhor. “Adabiyot muallimi”)

Ushbu matnda qoʻllangan *himm* undov soʻzi nutq egasining hissiyotini ifoda etish bilan birga, voqelikka ijobiy munosabatini ham aks ettirgan. *Auff* undovi orqali esa soʻzlovchining salbiy munosabati anglashiladi.

Oʻzbek, ingliz, rus tillarida keng qoʻllanuvchi *oh, voy, oʻh, voh, voh-voh, eh; ack, ah, hey, huh (hunh), oh, wow, aha, ahem, argh, aw, aye, bah, blah, blech (bleah, bleh), boo, boo-hoo, bwah-hah-hah, duh, eek, eh, er, ew, feh, gak, ha, ha-ha, hey, hist, hm, ho-ho, hubbahubba, hup, hurrah, lahdedah, Mm, Mmwah, now, phew, poof, pooh, pshaw, psst, shh, tsk-tsk, uh, whee, whoowhee, hoowee, oops; o,*

⁹³ Раҳматуллаев III. Koʻrsatilgan darslik. – B. 46.

a, ax, yx, ox, oʻ, axa, ozo kabi qator undov soʻzlar orqali sevinch yoki qaygʻu-iztirobning ifodalana-yotganini bevosita anglash qiyin. Bu undovlar nutq egasining qanday hissiy kechinmasini aks ettirayotganini tushunish uchun nutq vaziyati, kontekstga murojaat qilishga toʻgʻri keladi.

Quyidagi matnni tahlil qilamiz:

The flower doesn't want to show her colours fast. Then one morning, exactly at sunrise, the flower shows her colours. And after all her preparation for this moment, she says. "Ah! I am sorry. Give me some time. I need some time to be perfect. "But the little prince can't hide his feelings: "Oh! How beautiful you are!" "Yes, I am beautiful. Look at me", the flower says. "And I born at the same moment as the sun". (A.de Sent Ekzyuperi. "Kichkina shahzoda")

Berilgan matndagi *"Ah! I am sorry"* gapida *"I am sorry"* jumlasini qoʻllanmasa, gapda hijolat, uzr soʻrashi maʼnosi tushunilmaydi.

Keyingi gapda esa *"Oh! How beautiful you are!"* gapida *beautiful* (goʻzal) soʻzi ishtirok etmasa, bu gapdan nutq egasining ijobiy bahosi anglashilmaydi.

Undovlarning kontekst bilan bogʻlanishi quyidagi misollarda ham kuzatiladi:

1. – *"Well, Harry", said the old gentleman, "what brings you out so early?"* (O. Wilde. "The Picture of Dorian Gray")

("Ho'sh, Garri", dedi qariya, "nima seni bu qadar vaqtli kelishga undadi?")

– *Well, ask Mr. Gray. He is one of her most intimate friends.* (O.Wilde. "The Picture of Dorian Gray")

(– Yaxshi, janob Greydan soʻra. U uning juda yaqin doʻstlaridan biri)

Misollar tahlilidan maʼlum boʻladiki, *well* undovi nutqda qoʻllanganda muloqot vaziyati, soʻzlovchining kommunikativ maqsadi asosida turli maʼnolarni ifodalab keladi.

Rus tilida keng qoʻllanuvchi *Ax, Ox, Oʻ, Увы, Ура, Фу, Ах, Hy, Тьфу, Ого, браво* va boshqa undov soʻzlar orqali nutq egasi qanday ruhiy kechinmalarini ifodalaganligi, uning salbiy yoki ijobiy bahosi kontekst asosida aniqlanadi. Bu holat quyidagi misollarda ham kuzatiladi:

1. – **Ой**, матушки, – сказала я, выхватывая чашку из руки Мала. – **Ой**, матушки, как же грустно. (Л.Бардуго. “Штурм и буря”)

2. – **Ой!** – взвизгнула Вера. – Меня покажут по телику? (Д.Донцова. “Билет на ковер-вертолет”)

Birinchi misolda qo‘llangan *ой* undovi nutq egasining iztirobini aks ettirsa, keyingi gapdagi *ой* undovi esa hayratini idodalashga xizmat qilgan. Demak, *ой* undovining ma’nosiga kontekst bilan bog‘liq holda aniqlik kiritiladi. Bu holat ayni undov so‘zning pragmatik mohiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Ammo ayrim undov so‘zlarda nutq egasining subyektiv munosabati kontekstsiz ham bevosita anglashilib turadi. Masalan:

– *Тьфу тебя!* – сплюнул черномазый (Ф.М.Достоевский. “Идиот”)

– **Чудно, чудно!** Из Моршанска. (И.Ильф, Е.Петров. “Двенадцать стульев”)

Birinchi gapda qo‘llangan *Тьфу* undovi nutqda asosan salbiy baho ifodolovchi birlik sifatida ishlatiladi. Keyingi misolda qo‘llangan *чудно* undovi esa nutqda asosan ijobiy bahoni ifodalab keladi.

Turli tillarda bir tovushdan iborat *O, A, E* undovlari orqali ham nutqda baho munosabatining ifodalanishi kuzatiladi. Bunday undovlarning baho munosabatini ifodalayotgani faqat kontekst yoki nutq vaziyati asosida ma’lum bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida bir tovushdan iborat *O, A* undovlari orqali baho munosabatining ifodalanishi quyidagi misollarda kuzatiladi:

1. *Miryoqub “astag‘firullo” o‘rniga uyat bir so‘z aytdi. Mingboshi beshbattar yoyilib kuldi.*

– *A, battol-yey! O, battol-yey! Xudo urdi seni! Xudo urdi endi!.. – dedi u.* (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”)

2. *O, o‘sha kun mening quvonganimni aytsangiz. Ko‘chada ketyarman-u, sakrab-sakrab o‘yinga tushaman, ashula aytaman, do‘ppimni osmonga otaman, yuguraman-yelaman.* (X.To‘xtaboyev. “Sariq devni minib”)

Birinchi misolda qo‘llangan *A, O* undovlarining salbiy munosabatni yuzaga chiqarish uchun xizmat qilayotgani kontekst asosida ma’lum bo‘ladi. Ikkinchi

misolda qo‘llangan *O* undovi esa ijobiy munosabat ifodasi uchun yo‘naltirilgan. Kontekstdan tashqarida mazkur undovlarning ushbu pragmatik vazifasi aktuallashtirmaydi.

Rus tilidagi buyruq-xitob undovlarining subyektiv baho ifodalashi quyidagi birliklarda kuzatiladi: *Вон, Цыц, Тсс, Эй, Алло, Ау, Брыс, Ну* kabilar. Bulardan *Вон, Цыц, Тсс, Эй, Брысь* undovlarida salbiy baho yorqin aks etadi.

Ingliz, rus, o‘zbek tillarida nutqiy etiketlarni bildiruvchi birliklar (salomlashish, xayrlashish, izn so‘rash, kechirim so‘rash, olqishlash, tabriklash, va hokazolarni anglatuvchi birliklar) ham mavjud bo‘lib, ularning turkumini belgilashda har xil qarashlar kuzatiladi. Bu birliklar undovlar, nutqiy etiket birliklari, taklif-xitob so‘z-gaplar sifatida talqin etiladi⁹⁴.

Mazkur birliklar qanday turkumga kiritilishidan qat’iy nazar nutqda qo‘llanganda nutq egasining voqelikka, aytilgan fikrga nisbatan salbiy yoki ijobiy bahosini ham ifodalab keladi. Masalan:

1. *“Okay, I guess”. My father hated those conferences too, and he didn’t always go. I never had a problem at school, my grades were good, and he didn’t think it was necessary.* (D. Steel. “The right time”)

(*“Yaxshi, tushunarli”. Otam ham o’sha anjumanlarni hech yoqtirmas va bormas edi. Men maktabda hech qachon muammoga duch kelmagandim, baholarim ham yaxshi edi, shu sababdanmi otam buni zarur deb hisoblamadi.*)

2. – *Спасибо. Нет, правда, огромное спасибо, – тихо произнесла она. – Я пойду...* (Я.Вишневский. “Повторение судьбы”)

3. *“Thank you, ma’am”, he said with irony in his voice, but feeling at the same time like he might as well be nice.* (C.Major. “Dirty bird blues”)

(*“Rahmat, xonim”, dedi u istehzo bilan, lekin ayni paytda yanada xushmuomala bo‘lishi mumkinligini his qildi*)

⁹⁴ Чеснокова Л.Д. Трудные случаи морфологического разбора. – М.: Высшая школа, 1991. – 192 с.; Бобокалонов Р.Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 135 б.

Berilgan misollarda ingliz tilidagi *okay*, rus tilidagi *cnacu6o* undovlari nutq egasining ijobiy xarakterdagi baho munosabatini aks ettirgan. Ammo so'nggi gapda qo'llangan *thank you* undovi orqali ifodalangan subyektiv munosabatni gapda nutq egasining iztehzosi aks etganligi sababli ijobiy xarakterda deb bo'lmaydi.

Nutq egasi hissiy kechinmalarini ifodalash jarayonida voqelikka nisbatan emotsional bahosini ham bildirar ekan, bu holat uning kommunikativ maqsadi va istagi bilan bog'liq holda amalga oshadi. Undov so'zlarning nutq egalarining maqsadi va istagini ifoda etishi ham bu turkumga mansub birliklar pragmatikning tadqiq obyekti ekanligidan dalolat beradi.

Tilda modallikning ifodalanishi masalasiga munosabat bildirgan olim Y.Y.Kordi undov so'zlar va turli lug'aviy birliklar orqali ifodalanuvchi emotsional bahoni modallikning alohida turi sifatida ajratadi⁹⁵.

Darhaqiqat, undov so'zlar orqali ifodalanuvchi emotsional baho subyektiv modallik kategoriyasiga xos. Nutq egasi voqelikni tilga ko'chirar ekan, yuzaga kelgan hissiy kechinmalarini ifoda etish jarayonida ushbu voqelikka shaxsiy munosabatini ham bildiradi. Natijada ifoda etilayotgan axborotda subyektiv munosabat shakllanadi. Undov so'zlar orqali ifodalangan bunday munosabat pragmatik aspektga aloqador hodisadir.

Rus tilidagi undov va taqlid so'zlarning funksional xususiyatlarini xitoy tili undovlariga muqoyasa qilgan holda o'rgangan Van Sinsin ham undov so'zlarda subyektiv munosabatning ifodalanishini qayd etgan. Uning fikricha, undov so'zlar kommunikativ-pragmatik sathda so'zlovchi munosabatini namoyish etish, kommunikatsiya jarayonida adresatga ta'sir ko'rsatish, jumlaning mazmuniy markazini aktuallashtirishda muhim vosita sanaladi⁹⁶.

Ma'lumki, tilshunoslikda "so'zlovchining obyektiv borliqqa va o'z nutqiga ijobiy yoki salbiy munosabatining ifodalanishi subyektiv baho" sifatida

⁹⁵ Корди Е.Е. Модальные и каузативные глаголы в современном французском языке. – Л.: Наука, 1988. – С. 13.

⁹⁶ Ван Синсинь. Междометия и звукоподражания русского языка (в функциональном соотношении с китайскими): Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2016. – С. 9.

tavsiflanadi⁹⁷. Voqelikning nutq egasi nuqtayi nazaridan ijobiy deb qabul qilingan tomoniga munosabat bildirilganda subyektiv baho ijobiy tus oladi, voqelik nutq egasi tomonidan salbiy hodisa sifatida idrok etilganda unga munosabat salbiy xarakterda bo‘ladi. Shu jihatdan subyektiv baho salbiy yoki ijobiy baho turlariga bo‘lib o‘rganiladi.

Sh.Safarovning fikricha, baholash harakatining mantiqiy asosida emotsiya intensiyasi yotadi, baholash dastlabki o‘rinda subyekt-obyekt munosabatida, ya’ni subyekt tomonidan obyektning muhimligi, e’tiborga molikligi, miqdor va sifat jihatidan ajralib turishini aniqlash jarayonida hosil bo‘ladi, ushbu jarayonda subyekt obyektning baholanayotgan xususiyatini ideal namuna yoki me’yorga qiyoslaydi hamda ushbu me’yorga qay darajada mos kelishi yoki uzoqlashishiga nisbat beradi, nihoyat, barcha “o‘lchov”lar bosqichidan o‘tgan baho lisoniy belgi vositasida voqelanadi⁹⁸.

Undov so‘zlar ham voqelik nutq egasi tomonidan ideal namuna sifatida baholangan vaqtda ijobiy munosabatni, me’yordan uzoqlashgan hollarda esa salbiy baho munosabatini verbal ifodalovchisi sifatida pragmatik vazifa bajaradi. Bu holat nutq egasining ruhiy holati hamda voqelikni qanday idrok etishi kabilarga ham bog‘liq. Masalan, o‘zbek tilidagi *oh* undovi ham salbiy, ham ijobiy baho munosabatini ifodalay oladi. Qiyoslang:

– *Oh, oting ham o‘zingga o‘xshash chiroylik ekan...* (A.Qodiriy. “Mehrobdan chayon”)

– *Oh, zolim falak! (Abbos qo‘lidan olgan xanjarga qarab) U la’nati sizga tiqqan shu xanjar tig‘in, Abdulatif ismi bunga yozug‘lik ekan!* (M.Shayxzoda. “Mirzo Ulug‘bek”)

E’tibor berilsa, birinchi misolda qo‘llangan *oh* undovi nutq egasining kuchli hissiyotini ifoda etish bilan bir qatorda, ijobiy bahosini ham aks ettirgan, keyingi misolda esa bu undov so‘z nutq egasining voqelikka nisbatan salbiy munosabatini

⁹⁷ Кўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 42.

⁹⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 184–185.

ifoda etishga qaratilgan. Salbiy munosabat matnda qo‘llangan *la'nati* leksemasi orqali yanada kuchaygan. *Oh* undovining har ikki nutqiy qo‘llanishda turli pragmatik ma‘nolarni hosil qilishi nutq egasining ruhiy holati va kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq.

Ingliz tilida ham *oh* undov so‘zi ham salbiy, ham ijobiy baho munosabatini ifodalash uchun qo‘llanadi. Quyidagi misollar tahliliga e‘tibor qaratamiz:

1. *There is a chance. Oh, yes! But if he spoke it would mean that all this world would end now.* (R.Kipling. “The finest story in the world”)

(*Zo‘r imkoniyat-ku. Oh, ha! Uning aytishiga qaraganda, bu barchasi tamom degani*)

2. *Oh, I don't know. Perhaps it means I'm beastly tired.* (R.Kipling. “The finest story in the world”)

(*Oh, bilmadim. Balki bu mening “itdek” charchaganimdan dalolatdir*)

Birinchi matnda *oh* undov so‘zi yordamida nutq egasining voqelikdan qoniqish hissi ifoda etilgan. Keyingi matnda esa, aksincha, nutq egasining norozilik kayfiyati aks etgan.

Bunday holat rus tilidagi *ax* emotsional undovlarida ham kuzatiladi. Masalan:

1. – *Ах...* – *Николай завел руки за спину. – Я заметил, что в последнее время твой дружок с головой окунулся в работу. Он очень востребован.* (Ли Бардуго. “Штурм и буря”) (iztirob ifodasi, salbiy baho)

2. *Ах, ах, ах! Ааа!...* – *замычал он, вспоминая все, что было. И его воображению представились опять все подробности ссоры с женою, вся безвыходность его положения и мучительнее всего собственная вина его.* (Л. Толстой. “Анна Каренина”) (qayg‘u ifodasi, salbiy baho)

3. *Ах, ужасно! ай, ай, ай! ужасно!* – *твердил себе Степан Аркадич и ничего не мог придумать. – И как хорошо все это было до этого, как мы хорошо жили! ... Ай, ай, ай! Аяй! Но что же, что же делать.* (Л. Толстой. “Анна Каренина”) (achinish, iztirob ifodasi)

4. *Ах, как хочется жить!* (V.Porfirov) (xursandchilik ifodasi, ijobiy baho)

Misollar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, nutq egasining undov so'zlardan foydalangan holda voqelikka baho munosabatini ifoda etishi barcha tillarda kuzatiladi. Ammo baho ifodalashning turli tillarda, xususan, o'zbek, ingliz, rus tillaridagi vositalari o'ziga xos va tubdan farq qiladi.

Shunisi xarakterliki, turli tillarda undov so'zlar orqali hosil qilingan baho munosabati, asosan, xususiy munosabat tarzida yuzaga chiqadi. M.Hakimov matnda aks etgan emotsional munosabat haqida fikr yuritar ekan, quyidagilarni bayon qiladi: "Shaxs nutqni hosil qilishda faqat uning mavzusi bilan qiziqib qolmasdan, nutq jarayonida o'z his-tuyg'ularini ham bildiradi. Nutq jarayonidagi his-tuyg'ulari va ichki kechinmasi shaxsning xususiy munosabati sifatida shakllanadi. Xususiy emotsional munosabat, albatta, matn muallifining ruhiy holatidan kelib chiqadi va bevosita matn mazmunidan anglashilib turadi"⁹⁹.

Undov so'zlar orqali nutq egasiga xos qanday xususiy munosabat ifoda etilganligi muloqot muhiti, kontekst asosida belgilanadi. Bu masalaga munosabat bildirgan D.Lutfullayeva, L.Boboxonovlar quyidagilarni yozishadi: "Undov so'zlarning nutq subyektining kommunikativ niyati bilan bog'liq holda pragmatik mazmuni hosil qilishida muayyan mikromatn (minimal kontekst) muhim o'rin tutadi. Chunki bunday kontekst, hech bo'lmaganda, nutq ishtirokchilari, nutqiy vaziyat, muloqot jarayoni amalga oshirilayotgan zamon va makon, nutq obyekti, so'zlovchining voqelikka hamda axborot mazmuniga munosabati kabilar haqidagi eng kichik ma'lumotni o'zida jamlaydi. Agar undov so'zning pragmatik ma'nosi so'zlovchining kommunikativ niyati asosida shakllansa, bu kabi minimal kontekstga ehtiyoj tug'iladi. Agar nutq ishtirokchilari ayni kontekst bilan bog'lanmasalar, undov so'zning ko'zda tutilgan pragmatik ma'nosini anglab yetmaydilar"¹⁰⁰.

Undov so'zlarga xos yana bir xususiyat shundaki, ular nutq egasining kommunikativ niyatiga moslasha oladi. Undov so'zlar nutq egasining kesatig'i,

⁹⁹Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 184-185.

¹⁰⁰ Лутфуллаева Д., Бoboxонов Л. Ундов сўзларнинг прагматик хусусияти // Адабий таълим ва ёшлар тарбияси. – Тошкент: ТДПУ, 2010. – Б. 106-108.

pichingi ta'sirida doimiy ifoda etuvchi konnotativ ma'nosiga zid bo'lgan baho munosabatini ifodalaydi. Bu haqda Y.Odilov quyidagilarni bayon qiladi: "Ironiya bir qator undov so'zlar semantikasidagi subyektiv bahoni qarama-qarshi tomonga o'zgartirib yuboradi. Bunday undovlar sirasiga *balli, barakalla, tasanno, ofarin, obbo* kabilarni kiritish mumkin"¹⁰¹.

Ma'lum bo'ladiki, undov so'zlarning pragmatik ma'nosi nutq egasining kommunikativ niyatiga bog'liq holda shakllansa, undov so'z ifoda etgan pragmatik mazmunga faqat kontekst asosida aniqlik kiritiladi. Sh.Safarov ham bu haqda fikr yuritar ekan, ingliz tilidagi ayrim undov gaplarda aks etgan emotsional bahoni matnsiz belgilab bo'lmasligini bayon qiladi: "Shu o'rinda emotsional baho berish vositasi bo'lgan gaplarning haqiqiy mazmunini matnsiz aniqlash qiyin vazifa ekanligini eslatmoqchiman. Binobarin, ingliz tilidagi *What a life that is!* undovini intonatsiyaning o'zgarishi hamda qaysi vaziyatda qo'llanishiga nisbatan "*Qanday yaxshi hayot!*" va "*Qanday yomon hayot!*" muqobilligida tarjima qilish mumkin"¹⁰².

Undov so'zlar orqali ifodalangan baho munosabati asosiy hollarda nutq egasining hissiy kechinmasi orqali hosil bo'lar ekan, axborotni qabul qilayotgan tinglovchi ham mavjud hissiy kechinma va u orqali bayon qilinayotgan emotsional bahoni aniq idrok etishi lozim bo'ladi. Agar undov so'zlar orqali ifoda etilayotgan hissiy kechinma va emotsional baho tinglovchi tomonidan turli sabablarga ko'ra (tilni bilmaslik, til birligining pragmatik imkoniyatini his qilmaslik kabilar) idrok qilinmasa, undov so'zning muloqot muhitida yuzaga chiqayotgan kommunikativ-pragmatik vazifasiga to'g'ri baho berilmaydi.

Undov so'zlar orqali ifodalangan emotsional baho implitsit tarzda ifodalangan hollarda ham shu holat kuzatilishi mumkin. Emotsional baho implitsit tus olgan hollarda unga faqat kontekst asosida aniqlik kiritiladi. Bunday vaqtda

¹⁰¹ Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. – Тошкент: Тафаккур, 2015. – Б. 118.

¹⁰² Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 34–35.

undov soʻzlar matnning implitsit birligiga aylanadi. Quyidagi matnlar tahliliga eʼtibor qaratamiz:

1. *Men bazm boʻlayotgan maydon orqali oʻtmoqchi boʻlib, devor raxnasidan oshib tushdim... Oʻh-hoʻ-oʻ-oʻ, maydon ichi kunduzgidek yorugʻ, daraxt shoxlariga chiroqlar osilgan, yerlarga ipak gilamlar yozilgan. Bir chekkaga katta oq samovarlar qoʻyilgan, bir tarafda katta qozonlar qurilgan, jaz-biz davom etar edi. Maydonning oʻrta yerida yuz chogʻli yosh-qari kishilar qurshalib oʻltirib, dutor, tanbur, childirma, nogʻoralar chalib bazm qilar edilar.* (A.Qodiriy. “Jinlar bazmi”)

Ushbu matnda qoʻllangan *oʻh-hoʻ-oʻ-oʻ* undov soʻzi orqali nutq egasining hayrati, taajjubi bilan birga yashirin tarzda ifodalangan “*Bunday maydonni umrimda koʻrmaganman*” mazmuni ham aks etgan. Nutq egasi mavjud voqelikni idrok etish jarayonida yuzaga kelgan hissiyotini beixtiyor ifoda etar ekan, koʻz oldida namoyon boʻlgan ushbu voqelikka shaxsiy munosabatini ham izhor etadi, natijada uzatilayotgan axborotda subyektiv munosabat shakllanadi.

2. *Oybaldoq shoyi roʻmol tagidan ham yaraqlab koʻrinib turar, kelinning husniga husn qoʻshib yuborgandek edi. Chekka-chekkadagi xotinlarning hayratli xitobi eshitildi:*

– *Vuy-y-y-y!* (Oʻ.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Bu matn parchasida esa *vuy-y-y-y* undov soʻzi orqali nutq egalarining hayrati oʻz ifodasini topgan. Ayni vaqtda bu hayratga yashirin tarzda ijobiy munosabat ham qoʻshilgan.

Ingliz tiliga mansub quyidagi matn parchasida ham undov soʻz orqali nutq egasining voqelikka munosabatini ifoda etuvchi yashirin xarakterdagi axborot ifodalangan:

1. *“Woohoo!” Luz cried exuberantly, jumping up and down like a schoolgirl ...* (Mary Monroe. “The butterfly’s daughter”)

(Voy-voʻoʻoʻ! Lyuiz xuddi yosh maktab qizalogʻidek hissiyotga berilib, sakrab qichqirib yubordi.)

Ushbu gapda *Woohoo!* undov soʻzi orqali “nutq egasining voqelikka munosabati” yuzaga chiqqan.

Undov soʻzlarning jumla tarkibida takroriy shaklda qoʻllanishi natijasida nutqiy emotsional baho yanada boʻrttiriladi. Qiyoslang:

1. – *Voy-voy-voy! Dokayiz hammomda boʻladi! – Huri satang qoshini chimirdi. – “Mokriy trikotin” desam doka deydi.* (Oʻ.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

2. – *Oh-oh, darling, darling, she said, with that almost Englishness, “wouldn’t it”.* (D.Strauss. “The real McCoy”)

(*Voy-voy, azizim, aziziiim bunday emas, – dedi u inglizcha ohangda ensasini qotirib*)

3. – *Oh-oh, Duck, how can you say that? – McCoy almost added Don’t you know me? But thought better of it.* (D. Strauss. “The real McCoy”)

(*Voy-voy, Dyuk, qanday hadding sigʻdi bunday deyishga? – Mak Koy endigina “Meni bilmaysanmi?” demoqchi edi-yu, lekin oʻylandi*) (D.Shtraus. “Haqiqiy Mak Koy”)

Misollardan koʻrinadiki, takror qoʻllangan undovlar nutq egasining salbiy baho munosabatini boʻrttirib koʻrsatishga xizmat qilgan. Bu holat quyidagi misollarda ham kuzatiladi:

1. – *Э-э-эх! И зачем вам было болтать! – вскричал он в злобной досаде.* (Ф.М. Достоевский. “Идиот”)

2. – *Ах, ах, ах... – Николай завел руки за спину. – Я заметил, что в последнее время твой дружок с головой окунулся в работу. Он очень востребован.* (Л.Бардуго. “Штурм и буря”)

3. *“Ah, don’t care. Ah, would not care, but ma heart is plaayin tivvy-tivvy on ma ribs. Let me die! Oh, leave me die!” groaned the huge Yorkshireman, who was feeling the heat acutely, being of fleshly build.* (R.Kipling. “The finest story in the world”)

Anglashiladiki, turli tillarda takror qoʻllangan undovlar nutq egasining baho munosabatini boʻrttirib koʻrsatishga xizmat qiladi.

Ba'zan nutq egasi har xil undovlardan foydalanib, hissiy munosabatini kuchli tarzda aks ettiradi:

– *А такие... – сказал голос и вдруг закричал: – Ой! Ай! Эх! Ух! Ай-яй-яй! Ыыыыыыы!* Редактор услышал, как в трубке кого-то стукнули арбузом по лбу, а потом стали поливать квасом. По полу прокатилась кастрюля с супом, и всё затихло. Телефон отключился. (Г.Остер. “Сказка с подробностями”)

Ushbu gapda *Ой! Ай! Эх! Ух! Ай-яй-яй! Ыыыыыыыы!* kabi turli strukturadagi emotsional undov soʻzlar ketma-ket qoʻllangan. Bu holda gapda taʼsirchanlikni oshirishga xizmat qilgan.

Oʻzbek, ingliz, rus tilarida salomlashuv va xayrlashuvni ifoda etish, minnatdorchilik bildirish, tashakkurni bayon qilish, taklif qilish kabilarni anglatuvchi *salom, assalom-u alaykum, xayr, rahmat, tashakkur, marhamat, shukur, qulluq, balli, ofarin; hello, hi, bye-bye, see you, thank you, thanks, o.k. (okey), really, good job; здравствуйте, привет, до свидания, спасибо, благодарю* kabi undovlar orqali ham baho munosabatining ifodalanishi kuzatiladi. Bunday vaziyatda undov soʻzlar birlamchi vazifasidan uzoqlashib, nutq egasining baho munosabatini aks ettirishga yoʻnaltiriladi. Masalan, oʻzbeklar nutqida koʻpincha *rahmat (rahmat-e shaklida)* undov soʻzi kesatig, kinoya, piching kabilarni ifoda etishda qoʻllanadi. Bunday holatda mazkur undov soʻz nutq egasining salbiy bahosini ifoda etuvchi pragmatik vositaga aylanadi. Misol:

– *Sizni hasharga boruvchilar roʻyxatiga yozib qoʻydim. – “Qulluq” takalluf koʻrsatganingizga! (Soʻzl.)*

Berilgan misolda qoʻllangan undov soʻz orqali nutq egasining kesatigʻi ifodalangan.

Oʻzbek tili egalari taklifni ifodalash uchun soʻz-gaplarning taklif-xitob turidan unumli foydalanishadi. Bunda *marhamat, qani-qani* kabilar bilan bir qatorda *keling-keling* feʼl shakli ham ishlatiladi. Ingliz tilida esa bu soʻzlarning

o‘rnida *please* so‘zi qo‘llaniladi. O‘zbek tilida bu kabi so‘z-gaplar kinoya bilan ham aytilishi mumkin. Ingliz tilida bunday holat kuzatilmaydi¹⁰³.

Xuddi shunday, o‘zbek tilidagi *rahmat*, *balli*, *tashakkur* undovlari; rus tilidagi *здравствуйте*, *привет*, *благодарю* undovlari so‘zlovchining muayyan maqsadi yoki subyektiv qarashlarini namoyish etishga yo‘naltiriladi. Bu undov so‘zlar orqali nutq egasining minnatdorchilik tuyg‘usini emas, aksincha, e’tirozi, voqelikdan noroziligini ifoda etish ko‘zda tutilganda, ular salbiy baho munosabatini yuzaga chiqaradi. Undov so‘zlar nutq egasi tomonidan shu kabi maqsadlar uchun yo‘naltirilishi natijasida pragmatik vazifa bajaradi. Quyidagi matnga e’tibor qaratamiz:

*Ba‘zan egatlar ichida tarvuz, qovun palaklari chiqib qolardi. Albatta, bitta-ikkita burishgan, tirishgan tuynak bo‘lardi. Ammo uni yorib yesangiz, mazasi tilni yoradi. E, azizim, menga, bir faqir studentga shunday tuyulgan-da! Bo‘lmasa ichi tushgan, ayniy boshlagan tarrakning nimasi shirin? **Balli**, odam degan munday injiq bo‘lmaydi: boriga qanoat qilish kerak...*

*Terimda esa hamma vaqt qorningiz to‘ygan qo‘zining qornidek bo‘lmasligi o‘zingizga ma‘lum... bir tuyur go‘sh-t-u makaron solib qaynatilgan sho‘lan sho‘rva mana shunday ... joningizga tegib ketadi: **rahmat**. (Sh.Xolmirzayev. “O‘zbeklar”)*

Berilgan matnda qo‘llangan *rahmat*, *balli* undov so‘zlari nutq egasining minnatdorchilik tuyg‘usini ifoda etmayotgani sezilarli. Aksincha, ular nutq egasining voqelikdan qoniqmagani, e’tirozini ifoda etib, salbiy baho munosabatini hosil qilgan.

Quyidagi misolda esa rus tilidagi *привет* undovi ironik ma‘no kasb etgan:

– “Привет!” Как это так? Разве ты уходишь? Ты должен сначала извиниться.

Xullas, undov so‘zlar nutq egasining ichki maqsadi – voqelikka nisbatan salbiy bahosini ifoda etishga yo‘naltirilganda ham pragmatik vazifa bajaradi.

¹⁰³ Karimova Z.G‘. O‘zbek va ingliz tillarida so‘z-gaplarning sotsiopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – B. 15–16.

Undov soʻzlarning bu kabi pragmatik vazifasi kontekst, nutq vaziyati asosida oydinlashadi.

2.2. Undov soʻzlar presuppozitsiya signalizatori sifatida

Turli tizimdagi undov soʻzlar matnni semantik jihatdan murakkablashtirish xususiyatiga ham ega. Bunday vaqtda matn sintaktik strukturasi birdan ortiq axborot siqiq tarzda aks etadi. Matnda ifodalangan axborotlardan biri ochiq, boshqasi undov soʻzning presuppozitsiyasi sifatida yashirin tarzda yuzaga chiqadi. Undov soʻzning presuppozitsiyaga ishorasi natijasida matn axborotlarga boy boʻladi.

Ingliz tilidagi undov soʻzlarning pragmatik xususiyatini tekshirgan S.Y.Mamushkina ham bu soʻzlarning matnni mazmunan boyitishini qayd etadi. Uning fikricha, undov soʻzlar kogeziya vazifasini bajarar ekan, matnni hosil qilish jarayonida uni tashkillantiruvchi muhim omil hisoblanadi, undov soʻzlar nutqni emfatik jihatdan relevant hamda axborotga toʻla, boy qiladi ¹⁰⁴.

Undov soʻzlar nutq egasining hissiy kechinmalarini ifodalash bilan birga, baʼzan presuppozitsiya signalizatori vazifasini bajarib, jumlaning mazmunan murakkablashtiradi. Masalan, oʻzbek tilidagi badiiy matnlarda qoʻllangan quyidagi undovlar qoʻshimcha axborotga ishora qilgan:

1. Oyim endi oʻrnidan turayotgan edi, eshik shaxt bilan ochildi. Uyga avval ammam, ketidan sovuq gʻurullab kirdi... Oyim ildam borib, uning qoʻlidagi katta tugunni oldi. Dadam ham shoshib qoldi.

– Iye, iye! – dedi chehrasi yorishib. Ammo boshqa gapirolmadi. Ogʻzida nosvoy bor edi. (Oʻ.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

2. – Oldin unaqa emasdi, hozir itdek ichadi. Alamlaridan icharmishlar! – chiroyli juvon qoʻl siltadi...

¹⁰⁴ Мамушкина С.Ю. Семантика и прагматика междометий в современном английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2003. – 175 с.

– *Bolangiz bo‘lsa, unaqa qilmang, singlim, – deya ro‘molli ayol nasihat qildi. – Harqalay, umid bilan bir yostiqa bosh qo‘ygansiz, bolani tirik yetim qilmang, opovsi aylansin.*

– *E!* – *Ko‘hlik juvon tilla zanjirini yana asabiy o‘ynay boshladi.*
(O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Birinchi matnda takror qo‘llangan *ie* undov so‘zi orqali nutq egasining ajablanishi bilan birga “*Kelishingizni kutmagan edik*” tarzidagi yashirin axboroti ham anglashiladi. Bu axborot undov so‘zning presuppozitsiyasi sifatida matn tarkibida voqelanadi.

Ikkinchi matnda esa bir tovushdan iborat *E* undovi “*Befoyda, ichkilikdan qaytmaydi*” presuppozitsiyasiga ishora qilgan.

Undov so‘zlar ba‘zan gap tarkibida birdan ortiq presuppozitsiyalarni hosil qiladi. Bunday vaziyatda faqat kontekst asosida asosiy va ikkinchi darajali presuppozitsiyalarni farqlash mumkin bo‘ladi. Masalan:

1. – *Kecha aytgan joyimga bordingizmi?*

– *Eh!* – *Samad bo‘shashib joyiga o‘tirib qoldi.* (Gazetadan)

2. “*Oh! oh! oh!*” *A young fellow lying asleep... raised a moan of pain...* (J. London. “Grit of women”)

(“*Voy-voy-voy-ey*”, – *dedi yosh yo‘lovchi yotib, simillab boshlanayotgan og‘riqning kuchayishidan qattiq ingrab.*)

O‘zbek tilidagi birinchi misolda qo‘llangan *Eh!* undov gapi “*Kecha aytilgan joyga bormadim*”, “*Aytilgan joyga borish xayolimdan ko‘tarilibdi*”, “*Aytilgan joyga bormaganimdan afsusdaman*” presuppozitsiyalarini hosil qiladi. Bunday vaziyatda so‘roqqa javob sifatida anglashiluvchi “*Kecha aytilgan joyga bormadim*” presuppozitsiyasi matnda bayon etilmoqchi bo‘lgan asosiy axborot sifatida muhim ahamiyatga ega. “*Aytilgan joyga borish xayolimdan ko‘tarilibdi*” presuppozitsiyasi asosiy presuppozitsiyani qo‘shimcha ma‘lumot bilan to‘ldirishga xizmat qiladi. “*Aytilgan joyga bormaganimdan afsusdaman*” presuppozitsiyasi esa nutq egasining voqelikka hissiy munosabatini ifoda etadi.

Keyingi ingliz tilidagi misolda esa “*Oh! oh! oh*” undov so‘zi orqali nutq egasining emotsional holati bilan bog‘liq quyidagi presuppozitsiyalarni anglash mumkin bo‘ladi: “*Jonim og‘riyapti*”, “*Endi nima qilaman?*” kabilar.

Anglashiladiki, emotsional undovlar orqali gapda ifodalangan presuppozitsiyalarni so‘zlovchi kommunikativ maqsadi asosida bir-biridan farqlash mumkin bo‘ladi.

Shunisi xarakterliki, ba‘zan sintaktik strukturada undov so‘z ishora qilgan presuppozitsiyaga kontekstda berilgan so‘zlovchi izohi yordamida oydinlik kiritiladi:

1. – *Mollarga yemish berib, kechga tomon borarman.*

– *Molingiz bormi? – so‘radi galstukli odam.*

– *Iya, sizningcha, qishloqdagilar qanday kun kechiradi? Chorva qishlog‘imiz aholisining tirikchilik manbayi.* (Gazetadan)

2. – *Oh, I’m sure you remember him, Mr. Haffigan.* (B.Show. “John Bull’s other island”) (*Ия, аминманки, сиз уни эслайсиз, жаноб Хаффиган*)

Birinchi misolda qo‘llangan *iya* undov so‘zi so‘zlovchining taajjubi bilan birga, “*Qishloqda mol boqmaydigan xonadon bo‘lmaydi*” presuppozitsiyasini hosil qiladi. Undov so‘z orqali ifodalangan bu presuppozitsiyani kontekstdagi «*Chorva qishlog‘imiz aholisining tirikchilik manbayi*» izohi orqali ham anglash mumkin bo‘ladi.

Ingliz tilidagi misolda esa *oh* undovi orqali “*Siz uni esingizdan chiqarishingiz mumkin emas*” presuppozitsiyasi anglashiladi. Bu axborot gapning “*I’m sure you remember him, Mr. Haffigan*” (*Siz uni eslaysiz, janob Xaffigan*) qismi orqali ham anglashilib turadi.

Ingliz va rus tillaridagi quyidagi misollarda qo‘llangan undovlar presuppozitsiyasini aniqlaymiz:

1. “*New girl in town?*” he asked, raising an eyebrow, and she smiled and nodded. She was wearing jeans and a sweater because she’d been told that casual dress was allowed, within reason. No flip-flops, no shorts, no halter tops, but jeans were fine.

“Yes”, she said simply, as he fell into step with her.

“Ah, American?”

“Boston.” (D.Steel. “The right time”)

(“Shaharda yangimisan?” dedi u qoshini ko‘tarib, qiz kulib boshini silkidi. Qizcha jinsi shim va sviter kiygan, chunki oddiy kiyim kiyishga ruxsat berilgandi. Hech qanday shippak, shorti, kalta kiyim emas, balki jinsi mumkin edi.

“Ha” dedi, erkak u bilan zinadan tushar ekan, “Eh, Amerikalikmi?”

“Bostondan”)

2. А сколько вам лет, князь?

– Двадцать шесть.

– Ух! А я думал, гораздо меньше.

– Да, говорят, у меня лицо молоджавое. (Федор Михайлович Достоевский. “Идиот”)

3. “Wow! You’ve gotten so tall!” she said, as Alex held her tight around her waist, and Carmen slowly put her arms around her, as though she were a stranger and not her child. (Daniella Steel. “The right time”)

(Karmen sekingina quchoqlab: “Voy, rosa katta bo‘libsan!” dedi. Aleks uning belini sekingina qo‘li bilan aylantirib olar ekan, go‘yo ular ona-bola emas, begonalardek edi)

Ingliz tilidagi birinchi misolda qo‘llangan *Ah* undovi orqali gapda “Amerikaliklar shunday kiyinishadi” presuppozitsiyasi hosil bo‘lgan.

Rus tilidagi ikkinchi misolda qo‘llangan *Ух* undovi esa “Men men o‘ylaganimdan kattaroq ekansiz” presuppozitsiyasiga ishora qiladi. Ingliz tilidagi so‘nggi misolda esa *Wow!* undovi kontekst bilan bog‘liq holda “Men ko‘rganimda kichik eding” presuppozitsiyasini ifodalaydi.

Ba‘zan undov so‘zning nutq egasining ijobiy baho munosabatini ifoda etishga qaratilgani jumla tarkibida qo‘llangan aktualizatorlar orqali ham sezilib turadi. Masalan, “ – *Barakalla!* – deydi Ermon buva mamnun bo‘lib” (O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”) jumlasida qo‘llangan *mamnun bo‘lmoq* fe‘li *barakalla* undov so‘zi orqali ifodalangan ijobiy munosabat (“Men

juda xursandman")ni aktuallashtiruvchi vosita vazifani bajaradi. Bu holat boshqa tillarda ham kuzatiladi. Masalan:

1. – *No. On Henrietta it looked very nice.*

– *Well, of course, it would.* (A.Christie. "The Hollow")

(– *Йўқ, Генриэттада бу чиройли кўринганди. – На, албатта, шундай*)

2. – *Вершинин. А наливка вкусная. На чем это настоено?*

Соленый. На тараканах.

Ирина (плачущим голосом). Фу! Фу! Какое отвращение!.. (А.Чехов. "Три сестры")

Ushbu misollardan ko‘rinadiki, *Well* undovi *of course* birligi bilan birga qo‘llanib, "*Bunga hech qanday shubha yo‘q*" presuppozitsiyasini hosil qiladi.

Rus tilidagi misolda esa *Фу! Фу!* undov so‘zining salbiy munosabatni ifodalovchi "*Menga utuman yoqmaydi*" presuppozitsiyasining ifodalanishida *Какое отвращение!* jumlasini signalizator vazifasini bajaradi.

Ma‘lum bo‘ladiki, emotsional undovlarning bu kabi pragmatik vazifalari nutq egasining kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq holda voqelanadi.

Ba‘zi emotsional undov so‘zlar bir vaqtda turli pragmatik vazifalarni ado etadi. Jumladan, gapda undov so‘z orqali nutq egasining voqelikka baho munosabati hamda voqelik haqidagi qo‘shimcha axboroti ifodalanadi. Masalan, "*Adham hovlisida qo‘shni xotinning shang‘illagan ovozi eshitdi va xo‘rsinib, "Uff!" dedi*" gapida qo‘llangan *uff* undov so‘zi so‘zlovchining e‘tirozini aks ettirish bilan birga, voqelik haqidagi qo‘shimcha axborot (*Yana kelibdi*)ga ham ishora qiladi. Undov so‘z orqali ifodalangan mazkur presuppozitsiya matn semantik strukturasi murakkablashtiradi.

Presuppozitsiyaning yuzaga chiqishi nutqiy vaziyat yoki kontekstni taqozo etadi. Agar mikromatn tarkibidan "*Adham hovlisida qo‘shni xotinning shang‘illagan ovozi eshitdi*" jumlasini tushirib qoldirilsa, "*Uff!*" undov so‘zining presuppozitsiyaga ishora qilayotgani ma‘lum bo‘lmay qoladi. Ko‘rinadiki, undov so‘zlar nutqiy vaziyat yoki kontekst bilan bog‘lanmasa, presuppozitsiyaga yo‘l yopiladi.

Emotsional undovlar orqali ifodalangan presuppozitsiya ba'zan irreal (xayoliy, tasavvurdagi) holatda bo'lishi mumkin. Masalan:

Sodiq Shukurovning bu tuhmatidan yoqa ushladi: – Yo tavba! – saldan keyin o'zini tutib oldi, – Shukurov, sizning tuhmatchiligingizga emas, it yeganini qusadi-ku, lekin qo'lingizga tarbiyalash uchun ishonib topshirilgan bolalarga jonim achiyapti. Essiz bolalar! Essiz tarbiya! (Shuhrat. “Oltin zanglamas”)

Ushbu matnda qo'llangan *essiz* emotsional undovi nutq egasining achinish hissini ifoda etish bilan birga, uning xayoli, tasavvuridagi voqelikka ham ishora qiladi. Shu sababli “*Essiz bolalar! Essiz tarbiya!*” qo'llanishlari orqali “*Bu bolalarning kelajagi yo'q*”, “*Bu bolalarga umuman tarbiya berilmagan*” mazmunidagi presuppozitsiyalar anglashiladi.

Shunisi xarakterliki, emotsional undovlar dialogik nutqda matn qismlarini bog'lovchi vosita sifatida ham qo'llanadi va bu vaziyatda nutq egasining matnning oldingi qismiga nisbatan munosabatini ifoda etadi. T.V.Belousning qayd etishicha, “dialogik diskursda undov so'zlar diskurs markeri va oldingi qism bilan aloqani ta'minlovchi vosita sifatida ishtirok etib, metakommunikativ vazifa bajaradi. Ular diskurs replikalarining bog'lanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, nutq egasining suhbatdoshi replikasiga e'tibori, suhbatning umumiy kechishi haqida signal beradi, tinglovchi tomonidan diskursning qabul qilinishini yengillatish, uning yaxshi tushunilishiga erishish orqali kommunikantlarning nutqiy aloqasini ta'minlash asosida kommunikatsiyaning muvaffaqiyatli kechishiga erishish imkoniyatini yaratadi”¹⁰⁵. Misollarga e'tiborimizni qaratamiz:

1. *I'm a musician. Oh, how nice. Like Mister Thigpen. I was so impressed when Mister Thigpen invited me to hear him play at that place down on Thirty-first and Cottage.* (C.Major. “Dirty bird blues”)

(Men musiqachiman. Oh, qanday yaxshi. Janob Tigpen kabi. Janob Tigpen meni O'ttiz birinchi va Kottejdagi pyesasiga tinglashga taklif qilganida juda ta'sirlanganman)

¹⁰⁵ Белоус Т.В. Когнитивно-прагматический анализ междометий в англоязычном дискурсе: Дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2006. – 187 с.

2. *Solly said, "It's a gas stove".*

Holly said, "Uh huh." And she walked on into the kitchen. (C.Major. "Dirty bird blues")

(Solli: "Bu gaz plitasi", dedi.

Xolli: "O'h-ho" dedi va oshxonaga kirdi)

3. *"Y' all ain't seen nothing", "Karl exclaims, Till you've seen my grandmother, boy, **howee!** Could she raise the dead with a whuppin"! I remembered this one night, my grandmother wanted me to do something and I said, "No". Well, I did 'n I saw her start to come after me, so I grabbed the belt off the wall so she couldn't use it on me. In addition, do you know what she did? She went upstairs 'n got an old pipe and come after me with it. **Howee**, did I run. Run right out the house into the snow with no shoes on!" (C.Major. "Dirty bird blues")*

(– Sizlar hech nima ko'rmadinglar-a. Karl hayajonda, buvimni ko'rmaguningizcha, "vooy" bolalar, u hattoki o'likni ham tiriltiradi-yu. Yodimda bir kuni u menga ish buyurdi, men "yo'q" dedim. Ortimdan uning "haa shoshmay tur hali, men seni...", deb kelayotganini ko'rib devorda osig'lik kamarni yulib olib, menga ishlatmasligi uchun shu qadar tez qochdimki. Bilasizmi u nima qildi? U zinadan tushib, eski quvur (truba)ni olib ortimdan yurdi. "Vuuy" deb men yalang oyoq yugurgancha qorli ko'chaga qochdim)

Berilgan matnlarda qo'llangan undov so'zlar nutq egasining hissiy kechinmasini ifoda etish bilan birga, matnning oldingi qism bilan aloqasini ta'minlashga xizmat qilgan.

Emotsional undovlar nutq egasining shaxs xususiyatlari bilan bog'langanda ham pragmatik xususiyatga ega bo'ladi. Bunda emotsional undovlar yoki ular ishtirokidagi sintaktik qurilmalar orqali nutq egasining yoshi, jinsi, kasb-kori kabilarga ishora qilinishi kuzatiladi. Masalan:

– Voy, sho'rim! – dedi pichirlab. – Kelib-kelib xotinidan so'rabman shekilli. (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari")

– Voy, man o'lay! Qoching bo'lmasa. (O'.Hoshimov. "Ikki eshik orasi")

Berilgan misollarda qoʻllangan *voy* undov soʻzi nutq egasining afsusnadomatini ifoda etadi. Shu bilan birga, ushbu undov soʻz ishtirokidagi sintaktik qurilma orqali nutq egasining ayol kishi ekaniga ishora qilinadi. Umuman, *voy shoʻrim (shoʻrim), shoʻrim qursin, voy oʻlay (voy man oʻlay), oʻrgilay* tipidagi sintaktik qurilmalar, asosan, oʻzbek ayollari nutqiga xos boʻlgani bois, nutqda ular orqali ayollarga ishora sezilib turadi. Bu holat ayni sintaktik qurilmalarning ijtimoiylik belgisiga ega ekanini koʻrsatadi.

Baʼzan *voy* undov soʻzi uyingga bugʻdoy toʻlgur, oʻzingdan koʻpaygur kabi ijobiy baho munosabatli iboralar tarkibida keladi. Bunday holatda ham ular orqali nutq egasining jinsiga ishora sezilib turadi. Qiyosan koʻrib chiqamiz:

– *Voy uyingga bugʻdoy toʻlgurlar, voy koʻpaygurlar, kela qolinglar, – deydi ovozi tovlanib.* (Oʻ.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Baʼzi hollarda emotsional undovlar orqali nutq egasining nafaqat jinsi, balki yosh xususiyatiga ham ishora qilinadi. Masalan:

– *Menga ham ber.*

– *Ho, hecham-da, oʻzimda qolmaydi-ku.*

Matnda qoʻllangan *ho* undov soʻzi orqali yosh bolaga ishora qilinayotganini sezish mumkin. Albatta, bu oʻrinda undov soʻzning shaxs yoshiga ishora qilishi kontekstsiz reallashmaydi.

Har bir millatning oʻziga xosligi muayyan davrning faol qoʻllanadigan undovlari badiiy asarlarda u yoki bu shaklda aks etadi. Mumtoz sheʼriyatimizda faol qoʻllangan *hasrato, vo hasrato* undovlari qattiq afsuslanish, achinish his-tuygʻusini ifodalovchi *evoh, hayhot, afsus* soʻzlari oʻrnida qoʻllanuvchi, kuchli hissiyot tashuvchi undovlar sirasiga kiradi. *Hasrato* undovi shunchaki afsuslanishni emas, balki barcha choralar tugagan joyda, umid tamoman soʻnganda qoʻllanuvchi undov soʻz hisoblanadi¹⁰⁶.

Xullas, turli tizimdagi tillarda, xususan, oʻzbek, ingliz, rus tillaridagi ayrim undov soʻzlar nutq egasining kommunikativ maqsadi bilan bogʻliq holda gapda

¹⁰⁶ Yodgorov J.J. Oʻzbek tilidagi undov va taqlid soʻzlar lingvopoetikasi: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent. 2024. – B. 16–17.

pressupozitsiya signalizatori vazifasida qo‘llanadi. Natijada bunday gaplarda undovlar ishorasi asosida qo‘shimcha axborot ifodalanib, gap semantik jihatdan murakkablashadi.

2.3. Undov so‘zlarning deyktik funksiyasi

Ma’lumki, so‘z tushunchani ifodalovchi oddiy belgigina emas, o‘zida muayyan etnosning milliy-madaniy xususiyatlarini ham aks ettiruvchi birlikdir¹⁰⁷. Undov so‘zlar ham bu belgidan mustasno emas.

Undov so‘zlar nafaqat insonning hissiy kechinmalarini aks ettiradi, balki bu kechinmalar taalluqli bo‘lgan insonga, uning madaniyatiga ham bevosita ishora qilib turadi. Bunday vaziyatda undovlar deyktik xususiyatini namoyon qiladi.

Tildagi undovlar uni hosil qilgan inson bilan bevosita bog‘lanuvchi belgilardir. D.P.Gorskiy bunday belgilarni ikki katta guruhga ajratadi:

1) o‘zi ifodalayotgan narsa bilan sababiy yoki determinativ bog‘lanishga ega bo‘lgan belgilar;

2) o‘zi bog‘lanayotgan narsa bilan determinativ bog‘lanishga ega bo‘lmagan belgilar¹⁰⁸.

Y.S.Maslova tilning belgilik xususiyatiga tavsif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi: “Belgi – bu idrok qilinadigan narsa bo‘lib, idrok qiluvchiga o‘zi haqida va ushbu belgidan tashqari bo‘lgan boshqa narsa haqida ma’lumot beruvchi vositadir”¹⁰⁹.

V.Z.Panfilovning fikricha: “Belgi moddiy his qilinadigan predmet (voqea, hodisa, harakat) bo‘lib, u bilish va kishilar muloqotida boshqa predmet yoki predmetlarning xususiyatlari, munosabatlarning vakillari sifatida namoyon bo‘ladi hamda xabar yoki uning komponentlariga ega bo‘lish va yuborish (informatsiya, bilimlarni) uchun foydalaniladi¹¹⁰.

¹⁰⁷ Худойберганаева Д. Матнинг антропоцентрик таъқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 48.

¹⁰⁸ Горский Д.П. Логика. – М., 1963. – С. 14–15.

¹⁰⁹ Qarang. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. – Andijon, 2006. – 182 b.

¹¹⁰ Панфилов В.З. О гносеологических аспектах проблемы языкового знака // Вопросы языкознания. – М., 1977. – № 2. – С. 3–14.

Demak, til belgi sifatida o‘z referentini ifodalaydigina emas, balki uni tavsiflaydi, unga ishora qiladi. Bu jarayonda tilning deyktik xususiyati namoyon bo‘ladi. Masalan:

– *Ой, я так беспокоилась! Думала, тетрадка выпала, когда мы с Шимоном ехали на мотоцикле. Сегодня я пешком прошла весь путь. Искала даже в кустах и урнах. Но ее нигде не было. Вы мой спаситель, – прошептала она, коснувшись губами его уха. – Я уж боялась, что не найду ее...*

– *Ой, простите... Я совсем сошла с ума. – Нервным движением она поправила волосы.* (Я.Вишневский. “Повторение судьбы”)

Ushbu matnda qo‘llangan *Ой* undov so‘zi so‘zlovchining emotsional holatini aks ettirish bilan birga, bu hissiyot, holat egasi – inson ekanligiga ishora qiladi.

R.Davlatova undovlarning deyktik xususiyati haqida shunday deydi: “Emotsional holatga ishora qiluvchi faol birliklardan biri his-hayajon undov so‘zidir. *Oh, eh, e, voy, ohho, ura, be, dod, eha, aw..* undov so‘zlari bevosita egasining his-tuyg‘usini ifoda etadi. Bu so‘zlarning deyktik xususiyati ularning qanday emotsional holatga ishora qilishi asosida belgilanadi”¹¹¹

“Aw, honey,” said Stanton. He tried to put his arm on her shoulder, but she pushed him away.(B.Furnas. “Primary colours”)

“ Oh, asalim,” dedi Stanton. Qo‘llarini ayolning elkasiga qo‘ymoqchi ediyu, ammo u siltalab yubordi. Tarjimadan ko‘rinadiki, “ *Oh, asalim,*” undov so‘zi emotsional holatga ishora qilmoqda.

V.V.Babaytseva undov so‘zlarning uchta katta guruhini belgilab, quyidagi tasnifni beradi: emotsional-baholovchi “*Ух ты!*”, “*Вот те на!*”, emotsional-undovchi “*Т-ш-ш!*”, “*Цыц!*” va etiket gaplar “*Спасибо!*”, “*Не за что*”¹¹²

¹¹¹ Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик birlikлари. Филол.фан.докт. (DSc) ... дисс. автореф. Тошкент, 2020. – Б. 85.

¹¹² Т.И.Хвостунова. Место глагольно-междометных форм в переходной зоне между глаголами и звукоподражательными междометиями, – Научный диалог, 2016. Выпуск № 2 ; -77с

– *Ш-ш-ш, – тихонько шепнула Мариам, – маму разбудишь. Её счастье, что она глухая на одно ухо.* (Х.Хоссейни. “Тысяча сияющих солнц”)

Matnda qo‘llangan “*Ш-ш-ш*” undov so‘zi so‘zlovchining emotsional undash holatini aks ettirish bilan birga, holat egasi- inson ekanligi va harakatni to‘xtatishga ishora qiladi.

Shunisi xarakterliki, turli tizimdagi tillarda emotsional undovlarga nisbatan buyruq-xitob undovlarida deytik vazifa yorqin aks etadi. Ma’lumki, buyruq-xitob undovlarining asosiy qismini hayvon va parrandalarga nisbatan haydash, chaqirishda qo‘llaniladigan undov so‘zlari tashkil qiladi. Bu turdagi undov so‘zlar kimga, nimaga qaratilganligiga ko‘ra deytik xususiyatga ega bo‘ladi.

T.Murodning “*Ot kishnagan oqshom*” asaridan olingan quyidagi misolda ham taqlid so‘z orqali presuppozitsiyaning ifodalanishi kuzatiladi:

-To‘da birdan jonlandi. Otlar yoppasiga chopdi. Dupur-dupur-dupur... Otlar uloq tevaragida chopdi. (T.Murod. “*Ot kishnagan oqshom*”)

Ushbu gapda qo‘llangan *Dupur-dupur-dupur...* konstruksiyasi vositasida otlar oyoqlaridan chiqadigan *dupur-dupur* tovushi haqida ma’lumot beruvchi xabar nutqiy akti hosil qilingan. Ushbu nutqiy aktdan kontekst bilan bog‘liq holda “*Yoppasiga chopgan ot oyoqlaridan dupur-dupur tovush eshitildi*” presuppozitsiyasi ham anglashiladi. Kontekstdan tashqarida ushbu presuppozitsiya yo‘qoladi. Ammo *dupur-dupur* so‘zi tovushni hosil qilgan obyektga ishora qilib, deytik xususiyatga ega bo‘ladi.

Turli tizimdagi tillar, xususan, o‘zbek, ingliz va rus tillarida kishilar, hayvon va parrandalarni chaqirish, haydash, ish-harakatni bajartirishga undash kabilarni anglatuvchi undovlarga quyidagilar kiradi:

1) harakatni bajarishga chaqiruvchi hayvon va parrandalarga nisbatan qo‘llanuvchi undovlar:

o‘zbek tilida: *beh-beh, tu-tu, chu, cho‘, qurey-qurey, ma* undov so‘zlari;

ingliz tilida: *baa, bow-wow, quack, moo, meow, wuff, oink, cock-a-doodle-doo, cuckoo, coo, tweet, chirp, chirrup*;

rus tilidagi *кис-кис, давай, но*.

2) harakatni bajarmaslikka chaqiruvchi hayvon va parrandalarga nisbatan qo‘llanuvchi undovlar:

o‘zbek tilida: *pisht, kisht, dirr*;

ingliz tilida: *lah-dedah, tss, ssh*;

rus tilida: *дпр, ноо, киш, ш-ш, фyu*.

Shuningdek, bu tillarda kishilarga nisbatan, ularni chaqirish, haydashda qo‘llanadigan *o‘v, hay, hey, huv, эй, hey* kabi undovlar ham mavjud. Bu turga mansub undov so‘zlar ham deytik xususiyati bilan ajralib turadi.

1. *Tarlanni suvladim. Izimizga qaytdim. Tarlon tag‘in terib-terib qadam tashladi: tik-tik-tik!* (Т.Мурод. “От кишнаган оқшом”)

2. *Qo‘llar uloqqa talpindi, ammo ololmadi. – Ha-ha-ha! – Chu-chu-chu! – Bos-bos-bos! Talpinishlar samara bermadi.* (Т.Мурод. “От кишнаган оқшом”)

3. *“Ssh!”-replied Mrs Brown. “I think he’s almost ready now. He’s doing something with a piece of string”.* (“Ssh!” -javob berdi Missis Braun. “Menimcha, u deyarli tayyor. U ip bilan nimadir qilayapti”) (M.Bond. “ Paddington’s adventures in England”)

Birinchi misolda berilgan *tik-tik-tik* undov so‘zlari otga egilmay, boshini tik yurishi uchun harakatni bajarishga chaqirib ishlatilgan. Ikkinchi misolda berilgan *Ha-ha-ha! – Chu-chu-chu! – Bos-bos-bos!* undov so‘zlari harakatni bajarishga, tezlikni oshirishga, to‘xtamaslikka undab ishlatilgan va yozuvchi redublikatsia orqali ma‘noni kuchaytirgan va uchinchi misolda berilgan *Ssh* undov so‘zi harakatni bajarmaslikka chaqirib, jim tur ma‘nosini beradi. Misollar taxlilidan shuni ko‘rish mumkinki, mazkur undov so‘zlar his-hayajon undovlaridan keskin farq qiladi, ular biror harakatni qilish-qilmaslikka ko‘rsatma berishi bilan ajralib turadi.

Buyruq-xitob undovlari aytilganda, ular qaysi hayvon va parrandalarni chaqirish-haydash uchun qo‘llansa, o‘sha hayvon va parrandani til egasi ongida

gavdalantiradi. Masalan, o‘zbek tilidagi *tu-tu* undov so‘zi tovuqni chaqirishda qo‘llansa-da, bir vaqtda unga ishora ham qiladi yoki *cho*‘ undovi bevosita otga ishora qiladi. Yoki ingliz tilida xo‘rozning qichqirig‘iga nisbatan ishlatiladigan *cock-a-doodle-doo* undovi xo‘rozga ishora qiladi. Bu holat o‘zbek va ingliz tillaridagi hayvon, parrandalarni haydash va chaqirishda qo‘llanuvchi buyruq-xitob undovlarning deyktik xususiyatli ekanini ko‘rsatadi.

Buyruq-xitob undovlari kishilarga nisbatan murojaatni ifodalab kelganda, shaxs deyksisini yuzaga keltiradi. Mazkur undov so‘zlarning deyktik xususiyati kontekst ichida reallashadi. Masalan:

1. – *U jimib qoldi. – Menga o‘rgatma, o‘v!* – dedi ko‘zlari g‘azabdan yonib. (O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

2. – *Эй, ты! Я тебя знаю... – Ты! Хазара! Я с тобой говорю! Ну-ка, посмотри на меня! – рывкнул солдат, передал сигарету соседу, поднял руки, чтобы всем было видно, и принялся соват палец в кулак.* (X.Хусейни. “Бегущий за ветром”)

3. *Kept knocking and pushing him in the back all the way to the car. Hey! Why for you gots to put cuffs on me? I ain’t done nothing.* (C.Major. “Dirty bird blues”)

Berilgan parchalarda qo‘llangan *o‘v, эй, hey* undov so‘zlari shaxslarga ishora qilgan. Bu kontekst asosida ma’lum bo‘ladi. Ushbu undov so‘zlar deyktik vazifa bajarish bilan birga, so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan baho munosabatini ham namoyish qilgan. Umuman, bu turdagi buyruq-xitob undovlarida asosiy hollarda salbiy baho aks etadi.

Bu turdagi undov so‘zlar undalma vazifasida kelib, shaxsga murojaatni ifoda etishi kuzatiladi. Masalan:

1. – *Эй, отонрите, кто там?* (Н.Островский. “Свои люди – сочтемся”)

2. – *Нов!* – *dadamning tahdidli ovozi eshitib, burilib qaradim-u, qo‘rqib ketdim. Uning yuzida boyagi yalinchoq ifodadan asar ham qolmagan, ko‘zi g‘azabdan chaqnar edi.* (O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Ba'zan bu turdagi undov so'zlar undalma bilan birga qo'llanadi. Bunday vaziyatda shaxsga murojaat ma'nosi yanada kuchayadi. Masalan:

– *Эй, музыканты, играйте, я желаю вас слушать.* (А.Чехов. “Вишневый сад”)

Ushbu misolda qo'llangan *музыканты* so'zi undalma bo'lib, uning ma'nosi *эй* undovi orqali ta'kidlangan.

O'zbek olimi A.G'ulomov bu haqda fikr yuritar ekan, quyidagilarni bayon etadi: “Undashni kuchli ifodalash uchun undalmaning oldidan *hoy, hov, hey, ey* kabi undov so'zlar ham keladi... Ba'zan undalmaning o'zi aytilmay, tinglovchining diqqatini tortish uchun undov so'zning o'zi qo'llanadi: “*Hoy (dadasi), qayoqqa ketyapsiz?*”¹¹³.

Albatta, keyingi holatda undov so'z zimmasiga shaxsga ishora qilish vazifasi yuklatiladi. Qiyosiy tahlilga e'tiborimizni qaratamiz:

– *Hov, olifta!* – *dedi yana o'sha tahdidli ohangda.* – *Tur o'rningdan!* – *Hov!*
– *dedi yana o'sha tahdidli ohangda.* – *Tur o'rningdan!* (O'.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Misoldan anglashiladiki, *hov* undovi bir o'rinda undalma bilan birga qo'llangan, boshqa o'rinda esa o'zi undalma vazifasida kelib, shaxsga ishora qilgan.

O'zbek milliy madaniyatida *ey, hov, hoy, hay, hey, huv* kabi buyruq-xitob undovlarining erning xotiniga yoki xotinning eriga murojaatini ifoda etishda qo'llanishi ham kuzatiladi. Bunday qo'llanish ba'zan milliy udum, nutqiy odatlar bilan bog'lansa, ba'zan nutq subyektining “muomala madaniyati” bilan aloqador bo'ladi. O'zbek madaniyatida qadimda er va xotinning biri-biriga ismini aytib murojaat qilishi odob-axloqqa zid hisoblangan. Shu bois er xotiniga bosh qiz farzandining ismi bilan, xotini esa eriga bosh o'g'il farzandining ismi bilan murojaat qilishgan. Oilada farzand tug'ilmagan bo'lsa, er va xotin bir-biriga murojaat qilishda *ey, hov, hoy, hay, hey, huv* kabi buyruq-xitob undovlaridan

¹¹³ Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 151.

foydalanishgan. Bu kabi odatlar hozirgi kunda ham ayrim hududlarda uchrab turadi. Buyruq-xitob undovlarining bu vazifada qo'llanishda ham deyktik xususiyati namoyon bo'ladi. Masalan, "Er xotiniga qarab: – Ey, ovqat-povqating bormi? – deb so'radi" gapida qo'llangan ey undov so'zi shaxs deyksisini hosil qilgan. Demak, nutq egasining shaxsga murojaat qilishda uning nomini aytmay, ey, hov, hoy, hay, hey, huv undovlaridan birini qo'llashida har doim ham salbiy munosabat anglashavermaydi.

Tadqiqotchi Z.Karimovanning ma'lumotiga ko'ra, o'zbek ayollar nutqida qarg'ishlar ko'p uchrasa, ingliz ayollari nutqida salbiy ma'noli so'kish so'zlari (*Hell with you!* kabi) keng ishlatiladi. So'kinishni bildiruvchi birliklar, vulgarizmlar ham o'zbek, ham ingliz erkaklari nutqida birdek uchraydi. Ingliz tilida so'kinishni bildiruvchi birliklar, vulgarizmlar undov so'zlar tarkibiga kiritilgan. Masalan, *Damn! Hell! Shit!* kabi.

O'zbek tilida ham so'kish yoki haqoratni bildiruvchi birliklar salbiy emotsional bahoni ifodalovchi so'z-gaplar guruhiga mansub bo'lib, vaziyatga qarab yakka holda yoki boshqa undov so'zlar bilan birga ishlatiladi: *Ablah!, La'nati! Voy la'nati!, Vah haromi!, He bachchag'ar! Voy, razil!* kabilar¹¹⁴.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida qarg'ishlar haqoratni bildiruvchi so'z-gaplardan deyarli farqlanmaydi. Bu tilda sof qarg'ish so'zlari o'zbek tilidagidek rang-barang emas. Bundan tashqari, ular bilan undov so'zlari deyarli birga ishlatilmaydi. Masalan, "God damn you!" (*Xudo ursin seni!*), "Go to Hell" (*Do'zaxga do'mbira bo'lgur!*), *You damned!* (*Yer yutsin seni!*) kabilar. Lekin *Damn!* (*La'nati!*) *Hell!* (*Do'zaxi!*) haqorat undovlari hisoblanadi. Ko'rinadiki, ingliz tili egalari qarg'ish o'rnida, asosan, vulgar so'zlarni ishlatishadi¹¹⁵.

Xullas, undov so'zlar nutqda quyidagi deyksis turlarini hosil qiladi: a) shaxslarga ishora qiladi; b) jonivorlarga ishora qilib, deyktik vazifa bajaradi.

¹¹⁴ Karimova Z.G'. O'zbek va ingliz tillarida so'z-gaplarning sotsiopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – B. 16-17.

¹¹⁵ Karimova Z.G'. Ko'rsatilgan tadqiqot. – B. 16-17.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Turli tizimdagi til birliklarining undov so'zlar orqali ifodalanuvchi emotsional baho subyektiv modallik kategoriyasiga xos bo'lib, nutq egasi voqelikni tilga ko'chirar ekan, hissiy kechinmalarini ifoda etish jarayonida voqelikka shaxsiy munosabatini ham bildiradi va ifoda etilayotgan axborotda subyektiv munosabat shakllanishi pragmatik aspektga aloqadordir.
2. Turli tizimdagi tillarda undov so'zlar nutq egasining kommunikativ niyatiga moslashadi va nutq egasining kesatig'i, pichingi ta'sirida doimiy ifoda etuvchi konnotativ ma'nosiga zid bo'lgan baho munosabatini ifodalaydi.
3. Undov so'zlarning pragmatik ma'nosi nutq egasining kommunikativ niyatiga bog'liq holda shakllansa, undov so'z ifoda etgan pragmatik mazmunga faqat kontekst asosida aniqlik kiritiladi.
4. Undov so'zlar nutq egasining hissiy kechinmalarini ifodalash bilan birga, ba'zan presuppozitsiya signalizatori vazifasini bajarib, jumlaning mazmunan murakkablashtiradi.
5. Turli tizimdagi tillarda emotsional undov so'zlar bir vaqtda turli pragmatik vazifalarni ado etadi va lingvomadaniy jihatdan undov so'z orqali nutq egasining voqelikka baho munosabati hamda voqelik haqidagi qo'shimcha axborotini ifodalaydi.
6. Buyruq-xitob undovlari kishilarga nisbatan murojaatni ifodalab kelganda, shaxs deysisini yuzaga kelib, turli tizimdagi tillarda undov so'zlarning deytik xususiyati kontekst ichida reallashadi.

III BOB. TAQLID VA MODAL SO‘ZLAR PRAGMATIKASI

3.1. Taqlid va modal so‘zlarda baho munosabatining ifodalanishi

Turli tizimdagi tillar, xususan, o‘zbek, ingliz va rus tillarida taqlid so‘zlar muayyan tovush yoki obrazga taqlidni anglatishiga ko‘ra umumiy xususiyatga ega bo‘lsa-da, bu tillarda ular fonetik, struktur jihatdan farqlanadi. Bunga o‘zbek, ingliz, rus xalqlarining tovushlarni idrok etishi va uni tilda aks ettirishda foydalangan milliy tilining ichki xususiyatlari ta’sir ko‘rsatadi. Quyidagi jadvalda o‘zbek, ingliz va rus tillarida taqlid so‘zlar qiyosi keltirilgan:

1-jadval

O‘zbek, ingliz va rus tillarida taqlid so‘zlar qiyosi

	Rus tilida taqlid	O‘zbek tilida	Ingliz tilida taqlid	Izoh
1	Уа-уа	Inga-inga	/wah-wah/	Bola yig‘isi
2	Гав-гав	Vov-vov	/wu:f /	It akillashi
3	Ш-ш-ш-ш	Shuv-sh-sh	/ʃʃ/ /S S/ swish	Shamol hurishi
4	Чик-чирик	Chir-chir	/tʃɪp tʃɪp/ /tʃɪp tʃɪp/	Qush sayrashi
5	Виш-виш	Vish-vush	/bʊzz bʊzz/	Noaniq tovushlar
6	Чирк-чирк	Chiy-chiy	/klak-klak/	Jo‘ja chiyillashi
7	Тик-так	Chiq-chiq	/click-clock/	Soat tovushi
8	Ку-ка-ре-ку	Qu-qu-ru-qu	/cock-a-doodle-doo/	Xo‘roz qichqirig‘i
9	Му-му	Мо‘ -мо‘	/moo moo/	Sigir ma‘rashi
10	Треск, шик	Buh, tirs	/ bæŋg/ / boom/	Sinish, portlash
11	Кар-кар	Qaq-qaq	/kaʊ kaʊ/	Qarg‘a tovushi
12	Ах, Ох	Oh-voy	/oʊtʃ/ /ah/	Og‘riqdan ingrash
13	Иа-иа	Yo-yo	/hi: haʊ/	Eshak hangrashi
14	Зинг-зинг	Jiring-jiring	/di:ŋ dʊŋg/	Eshik jiringlashi
15	Кап-кап	Tin-ting	/dri:p drap/	Suv tomchisi
16	Кря-кря	G‘aq-g‘aq	/kɔæk kɔæk/	O‘rdak ovozi
17	Ням-ням	Ham-ham	/yum yum/	Ovqat yeganda chapillash
18	Тук-тук	Duk-duk	/ba bʊmp/	Yurak urushi
19	Муах-муах	Cho‘lp-cho‘lp	/mwah/ /Smu:tʃ/	O‘pish
20	Тук-тук	Taq-taq	/nʌk nʌk/	Eshik taqillatishi
21	Ха-ха-ха	Xe-xe	/ha ha/	Kulish
22	Мяу-мяу	Миёв-миёв	/miju miju/	Mushuk ovozi
23	Апчи	Archu	/æti:shoo/ /ætʃoo/	Aksirish
24	Хр-хр	Xur-xur	/zzz.../	Xurak otish
25	Бе-бе	Ba-ba	/bææ... bææ/	Qo‘y ba‘rashi

E.Dofs fikricha, hayvonlarning tovushlari, masalan, barcha mamlakatlarda bir xil, ammo turli tizimdagi tillarda ifodalash usuli farqli¹¹⁶.

Hayvonlarning turli xil tovushlari, tillarning turli fonologik yoki morfologik tizimlari tufayli bo'lishi mumkin. Ko'rinadiki, turli tizimdagi tillardagi fonemalar har xil fonologik tizim tufayli jadvalga nisbatan turli xil ma'nolarga ega bo'lsa-da, undoshlarda ham, unilalarda ham farq bor ko'rinadi. Ikki tilda ma'no ozmi-ko'pmi bir xil. Tadqiqot doirasida biz turli tizimdagi tillarning ba'zi onomatopoeik harakatlari, ayniqsa, hayvonlarning turlari, har bir tilning turli fonologik yoki morfologik tizimlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan hayvonlarning ovozlari nisbatan bir-biridan farq qiladi degan xulosaga keldik. Ushbu tadqiqotga ko'ra, biz nafaqat onomatopeya va alliteratsiyadan, balki tovush imkoniyatlaridan ham foydalanishimiz mumkin.

Har bir xalq o'zicha ko'radi, eshitadi, zavqlanadi. Misol uchun *chittak* degan qush nomini olaylik. Bu qushni nomlashda o'zbek xalqi uning harakatini asos qilib olgan. Bu qush tez harakat qiladi ("*chit-chit*"), o'zbek shu harakatni dastlab ko'rgan bo'lsa, rus kishisi bu qushning rangini dastlab ko'rgan. U ana shu rangni nomga asos qilib olib, ayni qushni "*sinitsa*" deb nomlagan. Yoki o'zbek tovuqning bolasi chiqaradigan tovushni "*jip-jip*" tarzida eshitadi, shuning uchun uni *jo'ja* deb ataydi. Rus esa "*sip-sip*" deb eshitgani uchun uni "*siplyonok*" so'zi bilan ataydi. Bu juda oddiy misollar, aslida har bir xalqning dunyoni o'zicha ko'rishi va eshitishi, idrok etishi behad murakkab tarzda kechadi¹¹⁷.

1-Jadvalda berilgan taqlid so'zlardan misollar turli tizimdagi tillarda farqlanishiga olamning lisoniy manzarasini obrazli metaforik so'zlar , o'xshatishlar , konnotativ so'zlar, stereotiplar, ramzalar va h.k. vositasida yaratiladi. Har qanday til o'zida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, o'ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi .

¹¹⁶ Dofs E, 2008. Onomatopoeia and Iconicity (A Comparative Study of English and Swedish Animal Sounds). MA Thesis, Karstads University. Falk JS, 1978. – 28 p.

¹¹⁷ Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи.– Тошкент, 2012.– Б. 13.

Turli tizimdagi tillar, xususan, o‘zbek, ingliz va rus tillariga mansub bu kabi taqlid so‘zlar nutq egasining kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq holda turli pragmatik ma‘nolarga ega bo‘ladi. Bu holat ularni pragmatik aspektda o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, taqlid so‘zlarning nutq vaziyati, kontekstda reallashuvchi pragmatik xususiyatlari so‘zlovchining kommunikativ maqsadi asosida yuzaga chiqadi. So‘zlovchi nutqida taqlid so‘zlardan foydalanar ekan, ularga kommunikativ maqsadi asosida muayyan pragmatik vazifa yuklaydi. Natijada taqlid so‘zlar turli pragmatik ma‘nolarga ega bo‘ladi.

D.Lutfullayeva va L.Boboxonovlar o‘zbek tilidagi ayrim taqlid so‘zlarning pragmatik xususiyatini tekshirib, ularning quyidagi vaziyatlarda pragmatik vazifa bajarishini qayd etishgan: “... o‘zbek tilida taqlid so‘zlar: a) deytik (ishoraviy) xususiyati asosida nutqda pragmatik vazifa bajaradi: b) nutq subyektining voqelikka baho munosabatini ifoda etganda pragmatik vazifa bajaradi; c) nutqiy muloqot jarayonida nutq subyektining kommunikativ niyatiga bog‘liq holda yashirin propozitsiyaga ishora qilish vazifasi yuklatilganda pragmatik vazifa bajaradi”¹¹⁸.

Anglashiladiki, taqlid so‘zlarning pragmatik vazifaga ega bo‘lishi asosiy hollarda inson omili bilan bog‘liq. Taqlid so‘zlar deytik xususiyatli birliklar bo‘lganligi uchun ular o‘zi bog‘langan predmetlarga bevosita ishora qila oladi. Bu o‘rinda taqlid so‘zlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri pragmatik xususiyatini namoyon qiladi (ushbu masala bobning keyingi fasllarida yoritiladi)

Taqlid so‘zlarning qayd etilgan pragmatik vazifalari boshqa tillar, xususan, ingliz, rus tillaridagi taqlid so‘zlar uchun ham xos. Biroq taqlid so‘zlar boshqa til birliklari kabi til egalarining milliy-madaniy xususiyatlari, ruhiy holati, kommunikativ niyati bilan bog‘lanishi sababli turli tillarda taqlid so‘zlarning pragmatik ma‘nolarida farqli jihatlar kuzatiladi.

¹¹⁸ Lutfullayeva D., Boboxonov L. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 29.

Taqlid soʻzlarning pragmatik xususiyatlaridan biri nutq egasining baho munosabatini ifodalashda qoʻllanishida namoyon boʻladi. Nutq egasining muayyan nutq vaziyatida taqlid soʻzlar orqali voqelikka salbiy yoki ijobiy bahosining ifodalanishi koʻplab taqlid soʻzlar uchun xarakterli pragmatik belgi hisoblanadi. Ammo barcha taqlid soʻzlar ham nutq egasining subyektiv munosabatini ifoda etavermaydi. Shunga qaramay, har bir tildagi taqlid soʻzlar shu til egalarining tovush yoki koʻrinish (obraz)ni qanday idrok etishi haqida toʻliq maʼlumot bera oladi. Boshqacha aytganda, taqlid soʻzlarda til egalarining borliqdagi tovush yoki koʻrinish (obraz)ni fahmiy idrok etishi lisonda oʻz milliy manzarasiga ega boʻladi.

1. *Kelin uzatildi. Kelin yigʻi boshladi:* – *Uvv-uvvv-uvvv...* (T.Murod. “Oydinda yurgan odamlar”)
2. *Jiyani belidan qoʻshqoʻllab quchoqlab olmish kelin eshitilar-eshitilmas yigʻlab bordi:* – *Uvv-uvvv-uvvv...* (T.Murod. “Oydinda yurgan odamlar”)

Misollarda berilgan *Uvv-uvvv-uvvv...* taqlid soʻzi yigʻiga ishora boʻlib, oʻzbek milliy lingvomadaniyatida qizbolaning ota uyidan uzatilib sevgan yoriga turmushga chiqsa ham, yigʻilab uzatilib ketishi koʻrsatiladi. Bu holat ingliz yoki rus madaniyatiga xos emas. Yozuvchi taqlid soʻzlarning redublikatsiya (takror) qoʻllashi orqali matnda vaziyatga emotsional bahoni kuchaytirgan.

Turli tizimdagi tillar, xususan, oʻzbek, ingliz va rus tillarida taqlid soʻzlarning nutq egasining voqelikka munosabatini ifodalashida 2 holat kuzatiladi:

1) ayrim taqlid soʻzlar hosil qilinishining oʻzidayoq til egalarining subyektiv munosabatini ham qamrab oladi;

2) taqlid soʻzlarga nutq jarayonida subyektiv munosabat yuklanadi.

Birinchi turga mansub taqlid soʻzlar tabiiy asosda til egalarining subyektiv baho munosabatini ham aks ettiradi. Bunday turdagi taqlid soʻzlarning hosil boʻlishida quyidagi omillarni farqlash mumkin:

1. Baʼzan insonning begona tovush yoki biror koʻrinish (obraz)ga taqlid qilishi unga maʼqul boʻlmasligi yoki, aksincha, juda xush kelishi mumkin. Inson bunday tovush va koʻrinish (obraz)ni tilda voqelantirar ekan, unga nisbatan

subyektiv munosabatini ham ifoda etadi. Masalan, cho‘chqa yoki eshak tovushiga taqlid bu tovushni xushlamaydigan til egalarida salbiy munosabatni hosil qilishi mumkin.

2. Til egalari tomonidan salbiy assotsiatsiyalarni hosil qiluvchi narsa-predmetlar tovushiga nisbatan hosil qilingan taqlid so‘zlarda salbiy baho, o‘z navbatida, insonda ijobiy assotsiatsiyalarni hosil qiluvchi narsa-predmetlar tovushi, ko‘rinish (obraz)iga nisbatan hosil qilingan taqlid so‘zlarda ijobiy munosabat aks etadi. Masalan, o‘zbek lingvomadaniyatida *qarg‘a*, *ilon* salbiy assotsiatsiyalarni hosil qiladi. Ularning tovushiga nisbatan hosil qilingan *qarr-qarr*, *vish-vish* taqlid so‘zlari ham salbiy baho munosabatini ifoda etadi. Yoki *ming‘ir-ming‘ir*, *cho‘lp-cho‘lp*, *big‘-big‘*, *tars-turs* kabi taqlid so‘zlar ham bevosita salbiy munosabatni aks ettiradi. Bu taqlid so‘zlar hosil bo‘lishidayoq ularga baho munosabati qo‘shiladi.

Ingliz tilida ham bu tipdagi taqlid so‘zlar mavjud. Masalan, *posh!* taqlid so‘zi narsaga, insonga nisbatan nafratni ifodalashda ishlatiladigan tovushga taqlid so‘z sanaladi. Xuddi shunday, *pish!* taqlid so‘zi ham nafrat semasiga ega tovushga nisbatan hosil qilingan taqlid so‘z hisoblanadi. Bu so‘zlar bevosita salbiy munosabatni ifodalovchi taqlid so‘zlardir.

Ingliz tilidagi *to sniff* (burnini tortganda chiqadigan tovushga taqlid), *to champ* (ovqat chaynaganda chiqadigan tovushga taqlid), *to gulp* (ovqat yutganda, suv ho‘plaganda chiqadigan tovushga taqlid), *to splutter* (bo‘g‘ilib qolganda chiqadigan tovushga taqlid), *to spit* (tuflaganda chiqadigan tovushga taqlid), *ugh* yo‘talganda chiqadigan tovushga taqlid), *pas* (chaynash tovushiga taqlid), *to sneeze* (aksirganda chiqadigan tovushga taqlid), *to bark* (yo‘talganda chiqadigan qo‘pol bo‘g‘iq tovushga taqlid), *to sibilate* (shivirlaganda chiqadigan tovushga taqlid) so‘zlar ham mavjudki, ular qanday hodisaga nisbatan hosil qilinganligi yoki nutq egasining ulardan foydalanishda ko‘zlagan maqsadi asosida salbiy yoki ijobiy munosabatni ifodalashda qo‘llana oladi.

O‘zbeklar tomonidan ijobiy hodisa sifatida qabul qilinuvchi, asosan, bolalar uyquusi vaqtida hosil bo‘ladigan *pish-pish* tovushiga taqlidni bildiruvchi so‘z yoki kulish jarayoniga xos *qah-qah* taqlid so‘zlari esa bevosita ijobiy munosabatni ifoda

etadi. Rus tilidagi *xa-xa-xa*, *xu-xu-xu*, *yφ* soʻzlari ham tovushni ifoda etish bilan birga, subyektiv munosabatni ham qamrab oladi. Bu soʻzlar anglatgan tovushlar inson hissiy kechinmasi (kulgisi, iztirobi) jarayonida hosil boʻlishi sababli ularni ifoda etuvchi taqlid soʻzlarda bevosita subyektiv munosabat ham aks etadi. Shu bois rus tilshunosligidagi ayrim manbalarda bu tipdagi taqlid soʻzlar undov soʻzlarga ham kiritiladi¹¹⁹.

Anglashiladiki, ayrim taqlid soʻzlar tovush yoki koʻrinish (obraz)ni anglatish bilan birga, til egasining bu tovushga salbiy yoki ijobiy munosabatini ham aks ettiradi.

Shunisi xarakterliki, turli tizimdagi tillarda taqlid xarakteridagi undovlar mavjud. Ularda emotsional holat bilan birga insonning fizik holati ham namoyon boʻladi. Bizningcha, bunday undov va taqlid soʻzlarga xos xususiyatlarni jamlagan birliklarni undov va taqlidlar orasidagi oraliq soʻzlar sifatida baholash mumkin. Masalan, oʻzbek tilidagi *uf* undovi insonning ruhiy holatini aks ettirishi bilan birga u xoʻrsingan vaqtda hosil boʻladigan tovushni ham aks ettiradi. Bu soʻz bir vaqtda tovushga taqlid soʻz ham sanaladi.

Rus tilidagi *тьфу* soʻzi haqida ham shu fikrni bayon qilish mumkin. Bu soʻz insonning hissiy munosabatini ifodalash bilan birga, tuflash jarayonidan chiqadigan tovushga nisbatan hosil qilinishga koʻra tovushga taqlid soʻz deb ham baholanishi mumkin.

Van Sinsin rus tilidagi *тьфу* soʻzini nafrat, oʻkinch hissini ifodalovchi undov soʻzga kiritgan¹²⁰. Bizningcha, bu soʻz tuflash harakatida chiqadigan tovushga nisbatan hosil qilingan taqlid soʻz hamда инсон рухий ҳолатини акс эттирувчи ундов сифатида оралиқ ҳолатни эгаллайди. Quyidagi misollarni tahlil qilamiz:

1. – *Тьфу тебя!* – сплюнул черномазый. (Ф.М.Достоевский. “Идиот”)

¹¹⁹ Ван Синсинь. Междометия и звукоподражания русского языка (в функциональном соотношении с китайскими): Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2016. – С. 174.

¹²⁰ Van Sinsin. Koʻrsatilgan tadqiqot. – B. 111.

2. – Эге! Да ты вот что! – действительно удивился наконец Рогожин.
– *Тьфу* черт, да ведь он и впрям знает. (Ф.М.Достоевский. “Идиот”)

Berilgan misollarda nutq egasining hissiy munosabati yorqin aks etgan. Ayni vaqtda *тьфу* soʻzi tovushga taqlidni ham ifoda etadi.

Tovushlarga taqlidni bildiruvchi soʻzlarning salbiy yoki ijobiy munosabatni ifodalashi ularning tallaffuzi, ogʻiz shaklining oʻzgarishi asosida ham aniqlanadi.

F.Tursunovanning fikricha, biror narsa insonni qattiq hayratga solsa yoki ajablantirsa, darhol chuqur va tez nafas olish uchun ogʻizini katta ochishga moyil бўлади. Shundan soʻng toʻliq nafas chiqarilganda, ogʻiz biroz yopiladi va lablar biroz boʻrtib chiqadi. Ogʻizning bunday shaklida inson chiqaradigan tovush o / (oh) unlisi kabi yangraydi. Agar hayratlanish hissi ogʻriq bilan birga kuzatilsa, yuz mushaklarining qisqarish tendensiyasi kuzatiladi va bu holda lablar orqaga tortiladi, natijada tovush balandlashadi va “A! / ah!” yoki “Ah / Ach” tovushi eshitiladi. Ingliz tilida bunga misollar mavjud: *oho!* ajablanishni bildiradi, *ah!* vaziyatdan kelib chiqib, zavqlanish, hayratlanish, kutilmaganlik, ogʻriqni bildirishga moyil; *oh!* insonning hayratlangan (zavqlangan) holatini tavsiflaydi¹²¹

Demak, voqelikdagi turli tovush va koʻrinishlar tilga transformatsiya qilinlar ekan, hosil qilingan birlikda til egasining ruhiyati, voqelikka ham aks etadi. Bundan maʼlum boʻladiki, taqlid soʻzlar voqelikning shunchaki oddiy “nusxa”si emas, taqlid soʻzlar voqelik haqidagi tasavvurning milliy-madaniy munosabatlar, ruhiy holatlar bilan mazmunan boyitilgan “nusxasi”dir. Ayniqsa, bu jarayonda taqlid soʻzlarga nutq egasining subyektiv munosabatining “yuklanishi” muhim ahamiyatga ega.

Til egasining ruhiy holati uning nutqidan bilinib turadi. Bejiz til inson ruhiyatining koʻzgusi sifatida baholanmaydi. Til egasi oʻz nutqida salbiy munosabatni ifoda etuvchi taqlid soʻzni ijobiy munosabatini ifoda etishda ham

¹²¹ Турсунова Ф. Р. Структурно-семантический анализ звукоподражательных слов в английском и таджикском языках (в сопоставительном аспекте): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2013. – С. 11.

qo‘llay oladi. Bunday holatda ham taqlid so‘zga subyektiv munosabat “yuklanadi”. Quyida turli tillardagi matnlar tahliliga e‘tibor qaratamiz:

1. *Uning tirishqoqligini aytib bersam, yoqangizni ushlaysiz. Kun bo‘yi tinim yo‘q – g‘imir-g‘imir. Mitti qo‘llari charchamaganiga hayronman.* (X.To‘xtaboyev. “Sariq devni minib”)

O‘zbek tilida *g‘imir-g‘imir* so‘zi “sezilar-sezilmas tarzda qimirlash, sharpani bildiradi”¹²². Ammo matnda bu so‘z seziladigan chaqqon harakatga nisbatan qo‘llanishi natijasida nutq egasining ijobiy munosabati yuzaga chiqqan. Albatta, taqlid so‘zning bu tarzda enantiosemik qo‘llanilishi nutq egasining kommunikativ maqsadi uchun xizmat qilgan.

Anglashiladiki, taqlid so‘zlarga nutq jarayonida subyektiv munosabatning yuklanishi asosiy hollarda nutq egasining pragmatik maqsadi bilan bog‘liq. Quyidagi misolni tahlil qilamiz:

1. *“Grrrrrrrrrrrr,” he gurgled, pointing to his mouth. “Glug!”*

(“G‘rrrrrrrrrrrr,” — deb g‘uvilladi u og‘zini ko‘rsatib. - “G‘ulg‘ur!”)
(M.Bond. “Paddington’s adventures in England”)

2.– *Qanaqa it bo‘lay?*

– *Masalan... nima desam ekan? Siz, xo‘sh, aytaylik, qari itsiz, kun bo‘yi ko‘chada, darvoza yonida yotasiz, o‘tgan-ketgan bilan ishingiz yo‘q. Hamma narsa joningizga tekkan. Faqat sizni tinch qo‘yishsa bas. Lekin yosh bolalar sizga kun bermaydi: toshmi, baqlajondan bo‘shagan konserva qutisini o‘tib turishadi. Qani uyg‘oqmikin, deb juningizdan tortib ham ko‘rishadi. Mana, bir yo‘lovchi bexosdan etigining poshnasi bilan dumingizni bosib oldi. Qani ayting-chi, siz shunda qanday muomala qilasiz?*

Boshimni ko‘tarib: “Irrrrrrrrrr” deyman-da, yotaveraman, – dedim shoshapisha. (X.To‘xtaboyev. “Sariq devni minib”)

Ushbu matnlarda qo‘llangan “*irrrrrrrrr*”, *Grrrrrrrrrr* taqlid so‘zlarini *i*, *r* tovushlari kompleksining shunchaki verbal ifodasi desak yanglishamiz. Bu taqlid

¹²² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 447.

soʻzda tovush egasining ruhiy holati, ijtimoiy hayotga munosabati, yosh xususiyati kabilar ham oʻz ifodasini topgan. Yozuvchi ushbu taqlid soʻz orqali tovush egasiga xos mana shu xususiyatlarga urgʻu berishni maqsad qilgan. Demak, taqlid soʻzlarga nutq egasining muayyan pragmatik maqsadiga koʻra ham subyektiv baho ifodasi yuklatiladi.

Taqlid soʻzlar orqali nutq egasining baho munosabati ifodalanishi boshqa tillarda ham kuzatiladi. Qiyoslang:

1. **Бах!** – бахнул правый кочан. **Трах!** – трахнул левый. Такого козёл Матвей от капусты не ожидал. Он в ужасе отскочил, попал задними ногами ещё на два кочана. **Бум! Бубум!** – взорвались те. Матвей прыгнул вперёд и всеми ногами наступил на четыре кочана. **Бух! Бубух! Бух! Бубух!** – раздалась взрывы. (Г. Остер. “Сказка с подробностями”)

2. Снизу доносятся звуки ударов. Ни ругательств, ни криков, ни молбы о помощи, только привычное методичное **бух, бух, бух**, словно боксер тренируется с грушей. Словно так и надо. (Халед Хоссейни. “Тысяча сияющих солнц”)

Rus tilidagi ushbu matnlarda *бах, трах, бум, бубум, бух, бубух* kabi tovushga taqlid soʻzlar qoʻllangan. Ushbu ikkala matndagi taqlid soʻzlar muallifning voqelikka nisbatan salbiy munosabatini aks ettirishga xizmat qilgan. Subyektiv munosabat matnda qoʻllangan “в ужасе отскочил”, “боксер тренируется с грушей” birikmalari orqali ham yuzaga chiqqan. Umuman, portlash hodisasi bilan bogʻliq holda yuzaga chiqadigan tovushlar insonda ijobiy hissiyotlarni hosil qilavermaydi. Shu jihatdan yondashganda ham mazkur taqlid soʻzlarni salbiy boʻyoqqa ega deb hisoblash mumkin.

Taqlid soʻzlarga nutq jarayonida subyektiv munosabatning yuklanishi quyidagi jihat bilan ham bogʻliq. Baʼzan inson unda salbiy munosabatni hosil qilgan tovushga nisbatan taqlid soʻzni oʻz tasavvuridagi tovush asosida shakllantiradi. Bunday vaqtda taqlid soʻz tovushga nisbatan taqlidni ifodalashdan koʻra koʻproq subyektiv munosabatni aks ettirishga xizmat qiladi. Masalan, “*Bola chir-chir yigʻlar edi*” gapida qoʻllangan *chir-chir* taqlid soʻzi nutq egasining

tasavvuridagi bola yig'isini anglatish bilan birga, uni xushlamaganini ham aks ettiradi.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish lozimki, nutqda qo'llanuvchi hamma taqlid so'zlarni til egalari lisoniy ongidan o'rin olgan deb bo'lmaydi. Jumladan, so'zlashuv nutqida hamda badiiy asarlarda ko'p uchraydigan individual xarakterdagi taqlid so'zlar konnotativ ma'no ifodasi uchun xizmat qiladi. Masalan: *Jo'mrak ostiga qo'yilgan tovoqqa samovar tumshug'idan muttasil suv tomadi: chik-chak, chik-chak...* (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari")

Taqlid so'zlarda baho munosabatining ifodalanishi uning tovushga va ko'rinish (obraz)ga taqlidni bildiruvchi turlarida farqlanishi mumkin. Ayniqsa, muayyan ko'rinish (obraz)ga taqlidan hosil qilingan so'zlarda baho munosabatining ifodalanishi yorqin aks etadi. Quyidagi misollarda ko'rinish (obraz)ga taqlidan hosil qilingan taqlid so'z orqali baho munosabati yuzaga chiqqan:

1. *Men xuddi bezgak tutgandek **dir-dir** titrab ulug' shoirning jingalak sochlari orasidan topgan mudhish harflarni ko'rsata boshladim.* (O.Yoqubov. "Muzqaymoq")

2. *Chap qo'li hamon tayoqdek osilib turar, o'ng elkasi esa dir-dir titrar edi.* (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari")

O'zbek tilidagi *dir-dir* taqlid so'zi ko'rinish (obraz)ga taqlidni ifoda etadi. Badiiy matnda qo'llangan *dir-dir* taqlid so'zi inson holatini tasvirlash orqali nutq egasining voqelikka salbiy munosabatini ham ifoda etgan.

Taqlid so'zlarga subyektiv munosabatning "yuklanishi" hayvon yoki parrandalar tovushiga taqlidan hosil qilingan so'zlarning insonga nisbatan qo'llanishida ham kuzatiladi.

Ba'zan nutq egasi inson tomonidan hosil qilingan tovushga taqlidni bildiruvchi so'zga salbiy bo'yoq yuklaydi. Masalan:

1. *Then suddenly there is a loud scream – eeeeeeeeeee! The cry of some male thing getting its balls cut off. And he looks around, back and forth, up and down the bay, trying to see what is going on.* (C. Major. "Dirty bird blues")

(Shunda birdan qattiq qichqiriq eshitildi – eeeeeeeeeee! Ba’zi nar hayvonning o’kirishidek. U atrofga, oldinga va orqaga, yuqoriga va pastga qarab, nima bo’layotganini ko’rishga harakat qilardi)

Berilgan misolda inson tovushiga nisbatan hosil qilingan taqlidni bildiruvchi so‘z (eeeeeeeeeeee) muallifning salbiy munosabatini ifodalashga xizmat qilgan. Salbiy munosabat muallif tomonidan qo‘llangan “*The cry of some male thing getting its balls cut off*” (Ba’zi nar hayvonning o’kirishidek) jumlasini orqali ham anglashilib turadi.

Ma’lum bo‘ladiki, turli tillarda taqlid so‘zlar tabiatdagi tovush va ko‘rinish (obraz)larni nomlash bilan birga, nutq egasining baho munosabatini ham yuzaga chiqarib, pragmatik vazifa bajaradi.

Taqlid so‘zlar nutq egasining voqelikka salbiy yoki ijobiy bahosini ifoda etganda pragmatik vazifa bajaradi. Taqlid so‘zlar baho munosabatini ifodalab kelganda, birlamchi vazifasini yo‘qotmaydi. Taqlid so‘zlar orqali baho munosabatining ifodalanishida quyidagi ikki holat farqlanadi:

1) til egalari tomonidan xushlanmay yoki ijobiy qabul qilingan ayrim tovush va ko‘rinish (obraz)lar ularning ongida salbiy yoki ijobiy tasavvurlarni hosil qiladi. Bu jarayon taqlid so‘zda ham bevosita aks etadi. Bunday vaziyatda taqlid so‘z tovush va ko‘rinish (obraz) haqidagi ma’lumotni tashish bilan birga nutq egasining ayni tovush va ko‘rinish (obraz)ga nisbatan subyektiv munosabatini ham aks ettiradi;

2) taqlid so‘zlarga nutq jarayonida subyektiv munosabatning “yuklanishi” natijasida ular gap tarkibida salbiy yoki ijobiy munosabatlarni ifodalab keladi. Albatta, bunday vaziyatda taqlid so‘z orqali baho munosabatining ilg‘ab olinishi uchun nutq vaziyati, kontekstga ehtiyoj seziladi. Bu holatda taqlid so‘zlar orqali nutq egasining baho munosabati yashirin tarzda yuzaga chiqadi.

Xullas, turli tizimdagi tillarda taqlid so‘zlar nutq egasining kommunikativ niyati asosida baho munosabati ifodalanadi.

Pragmatik baho munosabatining ifodalanishi modal so‘zlarda yorqin namoyon bo‘ladi. Modal so‘zlarning so‘zlovchi munosabatini aks ettirishi ularning

pragmalingvistikaning tahlil obyekti ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, modal soʻzlarning dialogik nutqda gapning tushirib qoldirilgan kesimi grammatik vazifasini ado etishni oʻz zimmasiga olishi va buning natijasida nutq vaziyati bilan bogʻliq holda propozitsiyani ifodalashi nafaqat semantik-sintaktik, balki pragmalingvistik aspektga ham oid muammo sanaladi. Bu jihatdan modal soʻzlarning pragmatik vazifasi doirasini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Modal soʻzlar nutq egasining baho munosabatini ifoda etib pragmatik vazifa bajaradi.

2. Modal soʻzlar ellipsisga uchragan gap yoki uning kesimi signalizatori vazifasini ado etganda pragmatik vazifa bajaradi.

3. Modal soʻzlar presuppozitsiya signalizatori vazifasida qoʻllanganda pragmatik vazifa bajaradi.

Quyida turli tizimdagi modal soʻzlarda nutq egasining baho munosabati ifodalanishi masalasi munosabat bildiramiz.

Modal soʻzlar munosabatni ifodalovchi soʻzlar boʻlgani bois nutq egasi koʻpincha bu soʻzlar orqali voqelikka salbiy yoki ijobiy bahosini ham ifoda etadi. Bunday vaziyatda modal soʻzlar pragmalingvistikaning tekshirish obyekti hisoblanadi. Olima Y.Y.Kordining fikricha, uzatilayotgan axborotning haqiqiylikiga soʻzlovchining ishonchini belgilovchi bahoning ifoda vositalaridan biri modal soʻzlardir¹²³. Biroq modal soʻzlar nafaqat soʻzlovchining ishonchi, balki gumoni, taajjubi kabilarni ham ifodalaydi. S.Boymirzayeva ham axborotning ishonchli yoki ishonchsizligini aks ettiruvchi epistemik modallikning ifoda vositalari qatoriga performativlar bilan birga modal soʻzlarni ham kiritadi. Uning fikricha, modal soʻzlar ham xuddi performativlar kabi axborotning ishonchlilik darajasini belgilash vositasi, ammo ularning tarkibida baho subyekti oʻz ifodasini topmaydi¹²⁴.

¹²³ Корди Е.Е. Модальные и каузативные глаголы в современном французском языке. – Л.: Наука, 1988. – С. 13.

¹²⁴Боймирзаева С. Ўзбек тилида матнинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2010. – Б. 157.

Modal soʻzlar nutq egasining pragmatik maqsadi talabi bilan uning voqelikka nisbatan salbiy yoki ijobiy bahosini ham aks ettirishi jihatidan ahamiyatga ega. Modal soʻzlar orqali ifodalangan baho nutq egasining voqelikka bergan bahosi sanaladi. S.Boymirzayevaning qayd etishicha, “baho obyektning ahamiyatli tomoni, qiymatini belgilash faoliyati jarayonidir. Ushbu jarayon subyekt tomonidan bajarilib, uning asosida maʼlum bir namuna yotadi hamda obyektga shu namuna doirasida ijobiy yoki salbiy sifat – baho beriladi”¹²⁵.

Darhaqiqat, modal soʻzlar subyektiv munosabatni ifodalaydi. Ammo modal soʻzlar orqali ifodalangan munosabat va nutq egasi tomonidan voqelikka nisbatan bildirilgan baho oʻzaro farqlanadi. Modal soʻzlar nutq egasining salbiy yoki ijobiy bahosini ifoda etishga yoʻnaltirilgandagina bu pragmatik vazifa bajaradi. T.Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasidan olingan quyidagi misolga eʼtibor qaratamiz:

– *Xoʻsh, nima boʻpti? Maʼlum gap-ku! Albatta, otga suv beradi-da, boʻlmasa benzin berarmidi?* (T.Murod. “Ot kishnagan oqshom”)

Ushbu gapning umumiy mazmuni orqali nutq egasining aytilgan fikrga salbiy bahosi (kesatigʻi, eʼtirozi) anglashiladi. Matn bilan bogʻliq holda *albatta* modal soʻziga ham salbiy boʻyoq yuklangan.

Rus tilidagi quyidagi gapni tahlil qilamiz:

Она все кивала: “Конечно, конечно! О чем вы говорите! Конечно же! Все, что только можно!” (А.Волос. “Недвижимость”)

Berilgan gapda qoʻllangan *конечно* modal soʻzi nutq egasining dialogda bayon etilgan fikrga nisbatan tasdigʻini ifodalash bilan birga, takror qoʻllanib, taʼkidni ham yuzaga chiqargan. Shu bilan birga, gapda *конечно* modal soʻzi orqali *soʻzlovchining voqelikka nisbatan ijobiy munosabati ham anglashiladi. Kontekstsiz ushbu modal soʻzning subyektiv baho ifodasidagi oʻrni sezilmaydi.*

¹²⁵ Боймирзаева С. Баҳо фаолияти ва унинг матнда ифодаланиши // Хорижий филология. – Тошкент, 2008. – № 2. – Б. 10–21.

Demak, modal soʻzlar orqali ifodalangan salbiy yoki ijobiy baho nutq vaziyati yoki kontekstsiz anglashilmaydi. Nutq vaziyati, kontekstsiz modal soʻzlarga yuklangan bunday subyektiv bahoni anglash qiyinlashadi.

Ingliz tilida modal soʻzlarga *certainly, of course, surely, really, indeed, naturally, perhaps, maybe, probably, possibly, fortunately, unfortunately, luckily, unluckily, apparently, perhaps, presumably, obviously* kabi modallik munosabatlarini ifodalovchi birliklar mansub. Bu modal soʻzlarga xos xarakterli jihat shundaki, ular turli modal munosabatlar (ishonch, eʼtiroz, taʼkid, afsus, taxmin, chama kabi)ni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu modal soʻzlar oʻzbek tilida *albatta, haqiqatan, tabiiyki, darhaqiqat, shubhasiz, soʻzsiz, rostdan, aslida, balki, ehtimol, shekilli, aftidan, hoynahoy, chogi, ajabmas, baxtinga, afsuski, baxtga qarshi, attang* kabi muqobillariga ega.

Shunisi xarakterliki, ingliz tilidagi ushbu modal soʻzlar orqali nutqda soʻzlovchining ishonchi, eʼtirozi, taʼkidi, afsus-nadomati, taxmini kabilar ifodalansa-da, ularni baho nuqtayi nazaridan har doim ham salbiy yoki ijobiy munosabatni aks ettiradi deb ayta olmaymiz. Ushbu modal soʻzlarga nutq egasining baho munosabatini aks ettirish vazifasi yuklatilganda ular salbiy yoki ijobiy boʻyoqqa ega boʻladi.

Ingliz tilidagi mazkur modal soʻzlarning soʻzlovchining salbiy yoki ijobiy bahosini ifodalashi kontekst asosida yoki muloqot vaziyati orqali anglashiladi. Kontekst yoki muloqot vaziyatidan uzilgan modal soʻzlardan salbiy yoki ijobiy baho anglashilmaydi. Masalan, “*Certainly, you cannot interfere*” (*Albatta, sizning aralashuvingiz shart emas*) gapida qoʻllangan *certainly* modal soʻzi nutq egasining voqelikka nisbatan salbiy bahosini aks ettirgan.

Quyidagi misollarga eʼtibor qaratamiz:

1. “**Sure**”, – *he said. “Sure. It would be a pleasure*”. (C. D.Simak. “Ring around the Sun ”)

(“*Albatta*”, – *dedi u. “Albatta, bu juda yoqimli”*)

2. *Over his shoulder, Bullfrog said, “Maybe, we ought to see if we can’t get the reverend to press charges. Huh?”* (C.Major. “Dirty Bird Blues”)

(Bullford qo‘lini elkasidan o‘tkazib: “Ehtimol, ruhoniyni ayblov e‘lon qilishga ko‘ndirish kerakdir. A?”)

3. *Well, naturally, with enough propaganda you can confuse anybody.* (A. Miller. “Incident at Vichy”)

(*Tabiiyki, har qanday targ‘ibot bilan siz istalgan odamni chalg‘itishingiz mumkin*)

4. – *Are you ashamed of me, Izzie?*

– *Of course, not. She was instantly embarrassed.* (D. Steel. “Against All Odds”)

(*Mendan uyalyapsanmi, Izzi? – “Albatta, yo‘q. U bir zum hijolat tortdi*)

Birinchi gapda qo‘llangan *sure* (*albatta*) modal so‘zi matn bilan bog‘liq holda so‘zlovchining ijobiy bahosini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Bu holat matnda berilgan so‘zlovchining ijobiy bahosini aks ettiruvchi **“It would be a pleasure”** (*“Albatta, bu juda yoqimli”*) jumlasini bilan bog‘liq. Ushbu jumla ta‘sirida *sure* modal so‘zi ham ijobiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan.

Ikkinchi gapda *maybe* modal so‘zi qo‘llangan bo‘lib, so‘zlovchining gumoni, taxminini aks ettiradi. Ammo ushbu modal so‘z ishtirok etgan matn so‘zlovchining voqelikka salbiy yoki ijobiy bahosini aks ettirmaydi. Shungan ko‘ra bu modal so‘zga baho ifodalash vazifasi yuklatilmagan. Mazkur holat *well* (*tabiiyki*), *of course* (*albatta*) modal so‘zlari qo‘llangan keyingi gaplarda ham kuzatiladi. Ushbu modal so‘zlar ishonch, tasdiq kabi modal ma‘nolarni anglatadi, ammo nutq egasining baho munosabatini aks ettirmaydi.

Misollar tahlilidan anglashiladiki, modal so‘zlarga nutq egasining voqelikka salbiy yoki ijobiy munosabatini aks ettirish vazifasi yuklatilganda ular ushbu xususiyatga ega bo‘ladi.

Shunisi xarakterliki, modal so‘zlar orqali ifodalangan subyektiv baho nafaqat nutq egasiga, nutqiy muloqotning boshqa ishtirokchilariga ham tegishli bo‘lishi mumkin. Masalan:

– *Shunday qilib, Donoxonga hamla qilgan sariq Dev bilan olishsam maylimi? – so‘rayman qalpoqchamdan.*

– *Olish, albatta, olish.*

– *Yordam berasanmi?*

– *Berganda qandoq. (X.To‘xtaboyev. “Sariq devni minib”)*

Ushbu parchada qo‘llangan *albatta* modal so‘zi retsipyentning so‘zlovchi fikriga bo‘lgan ijobiy munosabatini aks ettirgan. Retsipyent, ya’ni “sehrli qalpoqcha” bolaning Donoxonga hamla qilgan dev bilan olishuvini shunchaki ma’qullash bilan chegaralanmay, bu olishuvga ijobiy ma’noda xayrixoh ekanligini bildiradi. Matnda aks etgan bu turdagi munosabat keyingi dialogik qatorlarda yanada yorqin aks etgan.

Ayrim modal so‘zlar orqali nutq egasining voqelikka nisbatan emotsional bahosi ifodalanadi. Masalan:

Сколько она стоит-то, дача-то эта? – спросил я и щелкнул пальцами, чтобы жестом показать несерьезность предмета.

Павел как раз подносил сигарету ко рту – и не донес, замер; поднял брови, долго смотрел на меня так, словно я сморозил отъявленную несуразицу, а потом протянул неодобрительно:

– *Сколько, сколько... Миллионы!*

Наверное, это была правда, потому что и впрям почти все – кроме разве что совсем мелких повседневных вещей – шло на миллионы.

– *Ну, в общем, да, – согласился я. – Наверное.*

– ***Конечно, конечно!*** – Павел обрадованно закивал. – *Что ты! У-у-у-у! Что ты!.. Это же земля! Понимаешь? Зем-ля! Что ты! Мне ее уже сколько раз продат предлагали! Да что я – чокнутый? Земля, сам понимаешь, – не шутка! Как это по-вашему? – недвижимость!.. (А.Волос. “Недвижимость”)*

Berilgan matnda qo‘llangan *конечно* modal so‘zi nutq egasining voqelikka nisbatan ijobiy bahosini ifodalashga xizmat qilgan. Ushbu modal so‘zning sub’ektiv baho ifodachisiga aylanishida nutq egasining voqelikka hissiy munosabati muhim o‘rin tutgan. Modal so‘zning takror ishlatilganligi ushbu hissiy munosabat va bahoni yanada kuchaytirgan.

Xullas, o‘zbek, ingliz, rus tillarida modal so‘zlar turli ifoda birliklariga ega bo‘lsa-da, subyektiv munosabat bilan bog‘liq modal ma’nomlarni ifodalashiga ko‘ra umumiylikka ega. Ularga nutq egasining voqelikka salbiy yoki ijobiy bahosini ham ifodalash vazifasi yuklanganda pragmatik vazifa bajaradi.

3.2. Taqlid va modal so‘zlar orqali presuppozitsiyaning ifodalanishi

Turli tizimdagi tillar, xususan, o‘zbek, ingliz va rus tillarida taqlid so‘zlar nutq egasining voqelik haqidagi yashirin axborotini ifoda etishga qaratilganda presuppozitsiya signalizatori vazifasini bajaradi.

Ma’lumki, presuppozitsiya gapda ifodalangan yashirin axborot bo‘lib, unga ishora qiluvchi til vositalariga ega bo‘ladi, shu sababli bunday presuppozitsiya lisoniy hodisa sifatida baholanadi.

Presuppozitsiya tashqi signalizatorlariga ega bo‘lganligi uchun ham mantiqiy presuppozitsiyadan farqlanadi. A.Nurmonov bu haqida quyidagi fikrni ilgari surgan: “Presuppozitsiya logik va semantik tushunchalar bo‘lib, logika va sintaktikaning o‘rganish obyektidir. Hukmdan kelib chiqadigan ishora logik presuppozitsiya (masalan, *Ahmad kelgan – Ahmad kelmadi* gaplaridan anglashilgan hukmlardan bir xil ishora *Ahmadning mavjudligi* kelib chiqadi), gapdan anglashilgan implitsit propozitsiya lingvistik presuppozitsiya hisoblanadi. Juda ko‘pchilik adabiyotlarda presuppozitsiya bilishning umumiy fondi sifatida talqin qilinadi. Lekin tilshunoslikda logik presuppozitsiya bilan lingvistik presuppozitsiyani aralashtirish hollari uchraydi. Biz faqat ma’lum tashqi cignallar (grammatik ko‘rsatkichlar) orqali anglashilgan presuppozitsiyani lingvistik presuppozitsiya hisoblash tarafdorimiz”¹²⁶.

¹²⁶ Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. 1986. – №6. – Б. 42-43.

Z.Burhanov til birliklarining presuppozitsion xususiyatini nutq ishtirokchilarining til ko'nikmalari, nutq vaziyati omillari bilan bog'laydi. Uning fikricha, "...Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko'nikmalari bilan bog'liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyati bo'lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslanuvchi ko'rinishini anglatadi. Bunday tashqi ishora tilda moddiy ifodachisiga ega bo'lganda, presuppozitsiya lingvistik xususiyat kasb etadi. Bu jihatdan, lingvistik presuppozitsiyaning gapda lisoniy vositalar ishorasi asosida yashirin ifodalanuvchi axborot tarzida baholanishi asosli"¹²⁷.

Darhaqiqat, muayyan til birligi orqali gapda ifodalangan presuppozitsiyaning nutq ishtirokchilariga tushunarli bo'lishi uchun ular muloqot jarayonida qo'llanilayotgan til bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari lozim. So'zlovchi va tinglovchi bunday imkoniyatga ega bo'lmasa, ular gapda ifodalangan yashirin axborot, ya'ni presuppozitsiyani anglab yetmaydilar.

Sh.Mahmudov presuppozitsiyaga xos quyidagi eng xarakterli jihatlarni ajratib ko'rsatgan:

- 1) presuppozitsiya til birliklarining bevosita kuzatishda berilmagan semantik xususiyatini yuzaga chiqaruvchi;
- 2) tilda muayyan ifoda vositalariga ega;
- 3) kontekst, nutq vaziyati bilan bog'liq holda yuzaga chiquvchi;
- 4) matnda yashirin tarzda namoyon bo'luvchi;
- 5) tejamlilikni yuzaga keltiruvchi hamda nutqning samaradorligini oshiruvchi til hodisasidir¹²⁸.

Anglashiladiki, presuppozitsiya tilda muayyan signalizatorlariga ega, uning mazmuni kontekst asosida belgilanadi, matnda yashirin tarzda yuzaga chiqadi hamda gapni semantik jihatdan murakkablashtiradi. Ayni shu xususiyatlar ayrim taqlid va modal so'zlar gapda presuppozitsiyani ifodalab kelganda kuzatiladi.

¹²⁷ Бурханов З. Ўзбек тилида қўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси (пресуппозицион аспект): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 11.

¹²⁸ Маҳмудов Ш. Ўзбек тилида лексик пресуппозициянинг ифодаланиши: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Қўқон, 2022. – Б. 20.

Masalan, *U eshikka ishora qilib: “Tuk-tuk”, – dedi* gapida qo‘llangan *tuk-tuk* taqlid so‘zi *“Poshna kiygan ayol kelyapti”* presuppozitsiyasiga ishora qiladi.

Ma‘lumki, o‘zbeklarda poshnali tuflidan hosil bo‘ladigan tovushga nisbatan *tuk-tuk* taqlid so‘zi qo‘llaniladi. Nutq jarayonida bu taqlid so‘z nafaqat poshnali tufliga, balki uning egasiga ham ishora qilishda qo‘llanadi. Ko‘rinadiki, nutq egasining kommunikativ maqsadi asosida ba‘zi taqlid so‘zlar nutqiy qo‘llanishda axborot ifodachisiga aylanadi.

Ingliz lingvomadaniyatida esa poshnali tuflidan hosil bo‘ladigan tovushga nisbatan *click-clack* taqlid so‘zi va og‘ir oyoq kiyim tovushiga nisbatan *clomp, tap-tap* taqlid so‘zi qo‘llaniladi. Buni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

1. *He heard her **click-clacking** along the street.*

(U ko‘chada ayolning taqir-tuqurini eshitdi)

2. *He heard the **clomp** of her heavy workboots, walking wearily up the stairs.*

(U zinapoyadan horg‘in ko‘tarilayotgan ayolning og‘ir ishchi etiklari gusurlashini eshitdi)

Ushbu misollarda qo‘llangan *click-clacking, clomp* taqlidlari turli oyoq kiyimlaridan chiqadigan tovushlarga nisbatan hosil bo‘lgan.

Birinchi gapda qo‘llangan *click-clacking* taqlid so‘zi orqali kontekst bilan bog‘liq holda *“Ko‘chada ketayotgan ayolning etiklaridan taqir-tuqur ovoz yangradi”* presuppozitsiyasi anglashiladi.

Keyingi gapda esa *clomp* taqlid so‘zining presuppozitsiyaga ishora qilishi natijasida kontekst bilan bog‘liq holda *“Ayolning og‘ir etiklaridan gusur-gusur ovoz yangradi”* presuppozitsiyasi yuzaga chiqadi.

Tahlillardan ma‘lum bo‘ladiki, taqlid so‘zlar nutqda turli omillar bilan bog‘liq holda presuppozitsiya signalizatori vazifasini bajarib keladi. T.Murodning *“Ot kishnagan oqshom”* asaridan olingan quyidagi misolda ham taqlid so‘z orqali presuppozitsiyaning ifodalanishi kuzatiladi:

To‘da birdan jonlandi. Otlar yoppasiga chopdi. Dupur-dupur-dupur... Otlar uloq tevaragida chopdi. (T.Murod. “Ot kishnagan oqshom”)

Ushbu gapda qo‘llangan *dupur-dupur-dupur...* konstruksiyasi vositasida otlar oyoqlaridan chiqadigan *dupur-dupur* tovushi haqida ma’lumot beruvchi xabar nutqiy akti hosil qilingan. Ushbu nutqiy aktdan kontekst bilan bog‘liq holda “*Yoppasiga chopgan ot oyoqlaridan dupur-dupur tovush eshitildi*” presuppozitsiyasi ham anglashiladi. Kontekstdan tashqarida ushbu presuppozitsiya yo‘qoladi. Ammo *dupur-dupur* so‘zi tovushni hosil qilgan obyektga ishora qilib, deyktik xususiyatga ega bo‘ladi.

Rus tilidan olingan quyidagi misolda ham taqlid so‘z oyoq kiyim tovushini anglatadi:

С лестничной клетки время от времени доносились голоса, а то еще гулкий грохот ступеней под чьими-то торопливыми ногами: Бу-бу-бу-бух! Бу-бу-бу-бух! (А.Волос. “Недвижимость”)

Mazkur gapda qo‘llangan *Бу-бу-бу-бух! Бу-бу-бу-бух!* taqlid so‘zi orqali “Kimdir shaxdam qadamlar zinadan chiqib kelmoqda” axboroti anglashiladi. Ushbu axborot taqlid so‘zning presuppozitsiyasi sifatida matn semantik tahlili orqali anglashiladi.

Anglashiladiki, taqlid so‘zlarning presuppozitsiyaga ishorasi matnning semantik tahlili orqali aniqlanadi. Matndan tashqarida taqlid so‘zlarning bu vazifasi kuzatilmaydi. Quyidagi matnni tahlil qilamiz:

Ancha yurdik. Tez-tez temirchilik do‘konlari uchraydi. Bayram bo‘lsayam, ba‘zilari ochiq. Devordagi mixlarga ketmon, tasha, xaskash ilib qo‘yilgan. Sandonda olov gurillaydi. Taraq-turuq avjida: yaqiniga borib bo‘lmaydi. (O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Ushbu matnda qo‘llangan *taraq-turuq* taqlid so‘zi orqali matn bilan bog‘liq holda “*Temirchilik ustaxonasida ish qaynamoqda*” axboroti anglashiladi. Matndan tashqarida bu taqlid so‘z ayni axborotni voqelantirmaydi.

Turli tizimdagi tillarda nutq egasining kommunikativ niyati asosida modal so‘zlarga ham presuppozitsiya signalizatori vazifasi yuklanishi mumkin.

Modal soʻzlar baʼzan gap tarkibida ellipsisga uchragan gap kesimi signalizatori vazifasini oʻtaydi. Modal soʻzlar bunday vaziyatda presuppozitsiyaga ishora qilib keladi.

Modal soʻzlar nutqda ellipsisga uchragan gap kesimi signalizatori vazifasini bajarar ekan, gapni shakllantirish bilan birga, subyektiv munosabatni ham ifoda etadi. Masalan:

Can I borrow your pen?

– *Of course.*

(Ruchkangizni olsam maylimi? – Albatta.)

Ushbu misolda qoʻllangan *of course* modal soʻzi gap (mustaqil soʻz-gap)ni shakllantirish bilan birga, nutq egasining yashirin axborotini ham aks ettiradi. Ushbu gapda *of course* modal soʻzi orqali “*Ruchkamni olishingiz mumkin*” presuppozitsiyasi anglashiladi.

Modal soʻzlar oʻrni bilan gap signalizatori vazifasini ham bajaradi. Jumladan, biror sabab bilan sintaktik strukturada bevosita ifodalanmagan, matndan tushirib qoldirilgan axborot ifodasi modal soʻzlar orqali tiklanishi mumkin. Masalan:

Ehtimol, shundaydir. Onam bu dunyoda kamsuqumgina yashardi. Hech kimga ozor bermasdi. Hech kim bilan hech nimani talashmasdi. Ehtimol, tabiatning eng shafqatsiz elchisi bilan ham olishib oʻtirishni xohlamagandir. Ehtimol... (Oʻ.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Ushbu matnning oxirida kelgan *ehtimol* modal soʻzi gapdan tushirilgan “*Yana boshqa sabablar bordir*” tarzidagi yashirin axborotga ishora qiladi.

Ayrim hollarda modal soʻz ifoda etgan subyektiv munosabatga u bilan hamroh boʻlgan baho ifodasi ham qoʻshiladi. Masalan:

– *Oʻshanaqa qilsam, boshqa daryolarniyam yaxshi koʻrib qolaman-a?*

Oyim tagʻin kuladi.

– *Albatta.* (Oʻ.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Ushbu matnda qo‘llangan *albatta* modal so‘zi nutq egasining ijobiy bahosini ham yuzaga chiqargan. Ijobiy munosabat “*Oyim tag‘in kuladi*” jumlasini orqali yanada oydinlashgani kuzatiladi.

Rus tilida ayni shu vazifada *конечно* so‘zining qo‘llanishi kuzatiladi. Van Sipin rus tilidagi *конечно* so‘zini bo‘lakka bo‘linmaydigan gapni shakllantiruvchi undov so‘z deb hisoblaydi¹²⁹. Bizningcha, modal munosabatni ifodalovchi *конечно* so‘zini modal so‘zga kiritish maqsadga muvofiq.

Quyidagi misolni tahlil qilamiz:

– *Тут ведь вот такая смешная штука. Личная смерть – это событие громадное, конечно. Очень, очень значительное... Но все же гораздо любопытнее размышлять о человечестве в целом. А?*

– *Не знаю, – ответил я. – Разве?*

– ***Конечно!*** – *оживился Будяев.* – ***Несомненно!*** (А.Волос. “Недвижимость”)

Ushbu dialogik nutqda qo‘llangan *конечно, несомненно* modal so‘zlari ishonch, shubhaga o‘rin yo‘qlik modal ma’nolarini anglatadi. Shu bilan birga matn bilan bog‘liq holda “*Insoniyat haqida fikr yuritish eng qiziq masaladir*” presuppozitsiyasiga ishora qiladi.

Nutq jarayonida modal so‘zlar yashirin ifodalangan axborot (presuppozitsiya)ga nisbatan so‘zlovchining subyektiv munosabatini anglatishi ham mumkin. Masalan:

– *Shuncha yerdan bizning so‘k oshimizni ichgali kelisharmidi? Uch-to‘rt kun turishadi. Durustroq bir narsa qilib qo‘ymasak bo‘ladimi? – dedi.*

Ular ikkovi ham uyg‘onganday bo‘ldilar:

– ***Albatta, albatta!*** – *deyishdi ikkalasi.* (Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”)

Ushbu parchada qo‘llangan “*Albatta, albatta!*” modal so‘zlari gapda yashirin ifodalangan axborotni ma’qullash vazifasini bajargan. Ya’ni dialogik nutqdagi “*Durustroq bir narsa qilib qo‘ymasak bo‘ladimi?*” ritorik so‘roq gapini

¹²⁹ Ван Синсинь. Междометия и звукоподражания русского языка (в функциональном соотношении с китайскими): Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2016. – С. 71.

orqali yashirin ifodalangan “*Durustroq bir narsa qilib qo‘yishimiz kerak*” presuppozitsiyasiga modal so‘zlar yordamida munosabat bildirilgan.

Turli tizimdagi tillarda ayrim modal so‘zlarning gap tarkibida presuppozitsiyaga ishora qilishi natijasida gap semantik jihatdan murakkablashadi. Bunday vaziyatda gap shaklan sodda, semantik jihatdan murakkab bo‘ladi. Bu xususiyat o‘zbek tilidagi *albatta, so‘zsiz, shubhasiz*; ingliz tilidagi *undoubtedly*; rus tilidagi *обязательно, сама собой, конечно* modal so‘zlarida yorqin namoyon bo‘ladi.

Ushbu modal so‘zlar gapda so‘z- gap sifatida kelganda, shaklan sodda, ammo semantik jihatdan murakkab axborotni tashiydi.

O‘zbek tilidagi *ayniqsa* modal so‘zi presuppozitsiyaga ishora qilgan gaplar ham semantik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo‘ladi. Bu modal so‘z o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bildirgan shaxs yoki narsani alohida qayd etadi ¹³⁰. Mazkur xususiyati asosida *ayniqsa* modal so‘zi gapda “ajratib, chegaralab ko‘rsatish va umumga qo‘shish” grammatik ma’nosini ifodalaydi. *Ayniqsa* modal so‘zi ayni shu grammatik ma’nosi asosida gapda presuppozitsiyani hosil qiladi.

Masalan, “*Shu qish, ayniqsa, qattiq kelgan edi.* (A.Qodiriy. “Mehrobdan chayon”) gapida modal so‘z orqali “*Qish doim qattiq keladi*” presuppozitsiyasi ham ifodalangan.

Quyidagi gapda ham *ayniqsa* modal so‘zi presuppozitsiya signalizatori vazifasini bajargan: *Bolaligimda ko‘p kasal bo‘lardim: qizamiq, ko‘kyo‘tal, bezgak... Shuning uchun oshxonadagi mixda ko‘k qarg‘aning patidan tortib, gultojixo‘rozgacha ilig‘lik turardi... Ayniqsa, tomoq og‘rig‘i yomon qiynaydi.* (O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”)

Ushbu matnda *ayniqsa* modal so‘zi ishtirok etgan gapda yashiringan presuppozitsiya tiklansa, jumla quyidagi holatga keladi: *Bolaligimda ko‘p kasal bo‘lardim: qizamiq, ko‘kyo‘tal, bezgak... Meni qizamiq, ko‘kyo‘tal, bezgak*

¹³⁰ Bu haqida qarang: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 80000дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси / Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т., ва бошқалар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, – 2006. Ж. 1. – Б. 57.

kasallari qiynagan. Shuning uchun oshxonadagi mixda ko'k qarg'aning patidan tortib, gultojixo'rozgacha ilig'lik turardi... Ayniqsa, tomoq og'rig'i yomon qiynaydi.

O'zbek tilida modal so'z vazifasida qo'llangan *asosan* so'zi orqali ham presuppozitsiyaga ishora qilinadi. Bu modal so'z ham "ajratib, chegaralab ko'rsatish" grammatik ma'nosi asosida presuppozitsiyani shakllantiradi. Masalan, "Qilgan ishim, *asosan*, dadamga ma'qul bo'lmadi" gapidan "Ishim boshqalarga ma'qul bo'ldi" presuppozitsiyasi anglashiladi. Ko'rinadiki, *asosan* modal so'zi "ajratib, chegaralab ko'rsatish" grammatik ma'nosi asosida gapda ochiq ifodalangan propozitsiyaga zid xarakterdagi axborotni hosil qiladi.

Jumla tarkibida presuppozitsiyaga ishora qilish o'zbek tilidagi *jumladan, shuningdek, avvalo*; ingliz tilidagi *by the way, so and*; rus tilidagi *умак, ну, донустум, в общем-то* modal so'zlariga ham xos xususiyat. Qiyosan ko'rib chiqamiz:

Avvalo, birovning gapiga aralashish odobsizlik. (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari") (*Birovning gapiga aralashding!*)

Ushbu gapda qo'llangan *avvalo* modal so'zi orqali "Birovning gapiga aralashib bo'lmaydi" presuppozitsiya ifodalanadi. Bu axborotni ifodalash *avvalo* modal so'ziga jumlaning shaklan soddalashtirish hisobiga yuklangan. Jumlaning asl ko'rinishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

Avvalo, birovning gapiga aralashib bo'lmaydi, birovning gapiga aralashish odobsizlik.

Anglashiladiki, jumlaning shaklan sodda, mazmunan murakkab shaklga keltirish maqsadi asosida *avvalo* modal so'zi presuppozitsiya signalizatoriga aylangan.

Rus tilidagi quyidagi gapda qo'llangan *наверное* modal so'zi ham jumlaning shaklan soddalashtirish hisobiga presuppozitsiya signalizatori vazifasini bajargan:

– *Вы, наверное, теперь от нас в собственный загородный дом съедете?* (Д. Донцова. "Билет на ковер-вертолёт")

Uchbu gapda qo‘llangan *наверное* modal so‘zi orqali “*Siz o‘z dala hovlingizga ko‘chib o‘tishingiz mumkin*” presuppozitsiyasi ifodalanadi. Jumlada yashirin ifodalangan ushbu axbotot tiklanca, quyidagi murakkab gap hosil bo‘ladi:

– *Вы можете переехать в свой дачный дом, наверное, теперь от нас в в собственный загородный дом съедете?*

Rus tilida *к сожалению* (*afsuski*) modal so‘zi orqali ham presuppozitsiya ifodalanadi. Masalan:

– *Вы умеете рисовать?*

– *Очень жаль. Я, к сожалению, тоже не умею.* (И. Ильф, Э. Петров. “Двенадцать стульев”)

Berilgan gapda qo‘llangan *к сожалению* (*afsuski*) modal so‘zi orqali “*Я сожалею, что не могу рисовать*” (*Men rasm chiza olmasligimda afsusdaman*) presuppozitsiyasi anglashiladi.

Xullas, modal so‘zlar quyidagi holatlarda pragmatik vazifa bajaradi: 1) nutq subyekting voqelikka munosabatini aks ettirganda; 2) ellipsisga uchragan gap yoki uning kesimi signalizatori vazifasini ado etganda; 3) gapda presuppozitsiya signali vazifasini bajarganda. Modal so‘zlarga xos bu vazifalarning reallashuvi har qanday holatda ham kontekst, nutq vaziyatini taqozo etadi.

3.3. Taqlid so‘zlarning deyktik xususiyati

Turli tizimdagi tillarda taqlid so‘zlarga xos deyktik xususiyat ularni boshqa morfologik birliklardan ajratib turuvchi muhim belgi sanaladi. Taqlid so‘zlar nafaqat tovush yoki ko‘rinish (*obraz*)ni ifoda etadi, balki uni hosil qiluvchi manbaga ham ishora qilib turadi.

Taqlid so‘zlar til egasi tomonidan voqelikdagi turli tovushlar yoki ko‘rinishlarga taqlidan hosil qilinuvchi so‘zlar bo‘lgani bois bu tovush va ko‘rinishlarni hosil qiluvchi predmetlarga bevosita ishora qila oladi. Biroq bu holat barcha turdagi taqlid so‘zlarga birdek xos emas.

-Bir muncha vaqt atrofga yana jimjitlik cho‘kdi, so‘ng karkidonning xurxurlashi eshitila boshladi. U har doimgidek yo‘lida tikkasiga, hech narsaga

qaramasdan uchragan narsani urib-yiqitib halloslab yugurib o'tib ketdi.
(G.G.Mukerji. "Yo'lbars ovchilarining g'aroyib sarguzashtlari")

Berilgan misolda karkidon boshqa hayvonlardek o'kirmasada, gavdasini bahaybatligi ko'rinishiga taqlidan xosil qilgan tovush *xur-xurlash* qo'llangan va yo'lidagi narsalarni payhonlab ketishishi tovush va ko'rinishlarni hosil qiluvchi predmetlarga bevosita ishora qilgan.

Turli tizimdagi tillarda taqlid so'zlarning deyktik xususiyati asosida pragmatik vazifa bajarish imkoniyati ancha keng bo'lib, bu belgi taqlid so'zlarning birlamchi belgisi hisoblanadi. Ayni shu belgisi asosida ularning pragmatik vazifasi bevosita yuzaga chiqadi. Taqlid so'zlar orqali nutqda subyektiv munosabat yoki nutq egasining yashirin axboroti ifodalanishi ularning doimiy belgisi emas. Taqlid so'zlarga xos bu pragmatik belgilar til egasining kommunikativ maqsadi asosida nutqda reallashadi.

-Sal naridan xurillagan ovoz eshitildi, oy nurida dong peshonasida shoxi bor karkidon korindi. Uning botmonday oyoqlari ostida yo'g'on shoxlar bamisoli chopday sinardi. Karkidonning haybatli jasadidan vahimaga tushgan hayvonlar tum-taraqay qocha boshlashdi. (G.G.Mukerji. "Yo'lbars ovchilarining g'aroyib sarguzashtlari")

Misolda berilgan "*xurillagan*" so'zi, taqliddan yasalgan bo'lib, karkidonning *botmonday oyoqlari, haybatli jasadiga* ishora qiladi va deyktik xususiyatini ko'rsatadi.

Rus tilidagi taqlid so'zlarning funksional xususiyatlarini o'rgangan Van Sinsin bu turkum so'zlarning fonetik-imitatsion mohiyatga egaligi, ya'ni tovush manbasini anglatish bilan birga, bu manbani obrazli tavsiflashini ham qayd etadi¹³¹.

Darhaqiqat, taqlid so'zlar inson tasavvurida ular anglatgan tovush yoki ko'rinish (obraz)ni yuzaga keltirgan manba obrazini tiklaydi. Masalan, *duk-duk* taqlid so'zi o'zbeklar ongida bu so'z bilan assotsiativ bog'langan *yurak* so'zini,

¹³¹ Ван Синсинь. Междометия и звукоподражания русского языка (в функциональном соотношении с китайскими): Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2016. – С. 8–9.

shalop soʻzi esa *suv*, *koʻlmak* kabilarni, *chirs* soʻzi esa shisha sinishini, shox-shabba sinishini, baʼzida esa zaharxanda, zarda bilan javob beruvchi insonni koʻz oldimizga gavdalantiradi.

Ingliz tilida *waa*, *waah*, *bawww*, *boo-hoo* soʻzlari ingliz xalqi tafakkurida bu tovushni hosil qiluvchi chaqaloqni, yigʻini gavdalantiradi. Oʻzbek tilida ayni shu tovushga nisbatan *big-big* taqlid soʻzi ishlatiladi. Rus tilidagi *хрю-хрю* taqlid soʻzi choʻchqani, *ку-ка-пе-ку* taqlid soʻzi esa bevosita xoʻrozni, *за-за-за* taqlid soʻzi gʻozni eslatadi.

Ayrim hollarda tovushga taqlid soʻz u ifoda etayotgan tovushni aniq aks ettirmasligi mumkin. Ammo til egalarida ushbu taqlid soʻzning hosil boʻlishi haqidagi bilimi mavjud boʻlsa, ularning tafakkurida hech qiyinchiliksiz taqlid soʻz ifoda etgan tovush bilan aloqador predmet tasavvuri tiklanadi. Masalan, “*Di-ditga tushamiz-a?*” (Oʻ.Hoshimov. “Dunyoning ishlari”) jumlasida qoʻllangan *di-dit* taqlid soʻzi bevosita mashinaga ishora qiladi.

Maʼlumki, Toshkent shevasida bu taqlid soʻz bolalar tomonidan mashina tovushiga nisbatan qoʻllaniladi. Bu soʻz kattalar tomonidan bolalar tilida gapirish ehtiyoji tugʻilganda ham ishlatiladi. Ushbu taqlid soʻz mashina signali tovushini bevosita aks ettirmasa-da, sheva vakillari ongida bevosita mashina obrazini tiklay oladi.

Tovushlarning reduplikatsiyasi va almashinishini oʻz ichiga olgan onomatopik birliklar quyidagilar: *blah-blah*, *chitter-chatter*, *snip-snap*, *flip-flap*. Ingliz tilida koʻp sonli reduplikativ (takror) onomatoplarning mavjudligi koʻplab olimlar tomonidan qayd etilgan. Jumladan, V.G. Gak taʼkidlaganidek, ingliz tili vaziyatni tasvirlashda vizual tillardan koʻra tovush idroklarini afzal koʻradi¹³². Misollarda koʻramiz:

1. “*The ducks took off with a loud flip-flap of wings, leaving ripples across the pond*”.

¹³² Кахарова И.С. Инглиз ва ўзбек тилларида эмотив, тақлид ва модал сўзларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2024.– 202 б.

2. *“The teacher went on and on about the rules, blah-blah-blah, as Timmy stared out the window, dreaming of flying dragons”.*

3. *To‘da birdan jonlandi. Otlar yoppasiga chopdi: dupur-dupur-dupur...*
(Т.Мурод. “От кишнаган оқшом”)

Ba‘zan bir predmet tovushiga nisbatan turli taqlid so‘zlar hosil qilingani kuzatiladi. O‘zbek lingvomadaniyatida qanday soat turi bo‘lmasin, unda hosil bo‘ladigan tovushga nisbatan *chiq-chiq* taqlid so‘zi qo‘llaniladi. Ammo ingliz lingvomadaniyatida turli soatlar tovushiga nisbatan hosil qilingan taqlid so‘zlarning farqlanishi kuzatiladi: *tick-tock, tick-tack, tick-a-tacker*.

Quyidagi she‘riy matnga e‘tibor qaratamiz:

Our great Steeple clock

*Goes **Tick-tock. Tick-tock;***

Our small Mantel clock

*Goes **Tick-Tack, Tick-Tack,***

Tick-Tack, Tick-Tack.

Our little Pocket watch

*Goes **Tick-a-tacker, Tick-a-tacker,***

Tick-a-tacker, Tick. (C. Sansom. “Clocks and watches”)

Anglashiladiki, garchi tovush va uni hosil qiluvchi predmetlar bir bo‘lsa ham, til egalarining bu tovushni har xil idrok etishlari sababli ular tillarda turlicha lisoniy ifodasiga ega bo‘ladi. D.Lutfullayeva va L.Boboxonovlar taqlid so‘zlarning turli xalqlarda fonetik farqlanishini bu turkum so‘zlarning nutq subyektiv mentaliteti, dunyoqarashi hamda voqelikka bo‘lgan subyektiv munosabatining aloqadorligi bilan bog‘laydilar¹³³.

Taqlid so‘zlar turli tillarda fonetik jihatdan farqlansa-da, ular barcha tillarda ham tovush yoki ko‘rinish (obraz)larni hosil qilgan bir turdagi predmetlarga ishora qiladi. Bu holat taqlid so‘zlarning qanday til egasi tomonidan hosil qilinganiga

¹⁶² Lutфуллаева Д., Бобохонов Л. Ўзбек тилидаги айрим тақлид сўзларнинг нутқий-прагматик хусусияти // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Республика илмий ва амалий анжумани материаллари. – Андижон: АДУ, 2010. – Б. 28–29.

qaramay, ular uchun umumiy belgi – tovush yoki ko‘rinishni yuzaga keltirgan “bajaruvchi”, ya’ni predmetga ishora qilish belgisi mavjudligini ko‘rsatadi. Taqlid so‘zlarga xos bunday ishora belgisi (deyktik belgi) pragmatik aspektga aloqador vazifadir.

E.Fardjonning *“Elsie Piddock skips in her sleep”* ertagida berilgan *“Swish-swish! Went the rope through the air. Tappity-tap! Went the little girls feet on the ground. Mumble-umble-umble! Went the children’s voices”* lavhasida arqonning tovushiga nisbatan *swish-swish*, bolalar oyoqlari tovushiga nisbatan *tappity-tap*, bolalar shovqiniga nisbatan *mumble-umble-umble* taqlid so‘zlari berilgan. Mazkur taqlid so‘zlar ular ifoda etgan tovushlarning “egasi” – arqon, oyoq, bolalarga ham ishora qilib turadi.

Quyidagi matnda keltirilgan qichqiriq inson tomonidan aytilgan bo‘lsa-da, kishilar ongida uning bevosita xo‘rozga ishorani hosil qilishi tasvirlangan:

– **Qu - qu - qu!** – deya qichqirib yubordi. Odamlar avvaliga ovoz qayoqdan kelganini payqamay, bir xillari tomga, yana bir xillari daraxtlarning shoxiga ko‘z tashlab olishdi. Kapitan ikkinchi marta qichqirgan edi, davrada gur etib kulgi ko‘tarildi. (X.To‘xtaboyev. “Sariq devni minib”)

Quyidagi misolda qo‘llangan taqlid so‘z esa o‘quvchining ko‘z oldiga miltiqni keltiradi:

2. **Бац, бац, бац, бееее! Бац, бац, бац, бееее! Бац, бац, бац, бееее!** – вот что творилось. Стоял такой грохот, что со всех окрестных крыш, деревьев взлетели вороны и грачи, перемешались, закружились в воздухе. (Г.Остер. “Сказка с подробностями”)

Turli tillarda bevosita shaxslarga ishora qiluvchi taqlid so‘zlar ko‘plab uchraydi. Bunday taqlid so‘zlar kishilarning tovush yoki holatiga taqlidan hosil qilingani bois ular bevosita shaxslarga ishora qiladi. Masalaga oid manbalarda taqlid so‘zlarning shaxsga ishora qilishi ham qayd etiladi. Jumladan,

D.Lutfullayeva, L.Boboxonovlar “*apshu*” taqlid so‘zining deyktik vazifa bajarishga maxsus yo‘naltirilishi haqida fikr yuritishadi¹³⁴.

Bolalar nutqida taqlid so‘zlarga xos deyktik xususiyat yanada yorqin namoyon bo‘ladi. Tilning leksik birliklarini hali to‘liq o‘zlashtirib ulgurmagan bola narsa-hodisaning nomini bilmasa, unga tovushga taqlid orqali ishora qiladi. Bolalar nutqida kuzatiladigan bunday taqlid so‘zlarni deyktik belgisiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Hayvon va parrandalarga ishora qiluvchi taqlid so‘zlar: *ba (qo‘y), mo‘ (sigir), miyov (mushuk) qu-qu (parranda yoki qush)*.

2. Narsa-predmetlarga ishora qiluvchi taqlid so‘zlar: *g‘in, bi-bip yoki di-dit (mashina), chiq-chiq (soat), puf (pufak), paq (to‘pponcha)*¹³⁵.

Bu kabi bolalarga xos taqlid so‘zlar barcha tillarda kuzatiladi. Masalan:

– **Бу!** – *Азиза тычет пальцем в автобус. – Майам, бу!*

– *Вижу, вижу, Азиза-джо. Би. Мы скоро все поедем на би. Ой, сколько нового ты увидишь! ...*(Х.Хоссейни. “Тысяча сияющих солнц”)

Ushbu gapda mashina signali ovozigacha taqlidni anglatuvchi rus bolasiga mansub *бу* taqlid so‘zi qo‘llangan.

Deyktik xususiyat nafaqat tovushga taqlid so‘zlarda, ko‘rinish (obraz)ga taqlidan hosil qilingan so‘zlarda ham kuzatiladi. Ko‘rinish (obraz)ga taqlid so‘zlar ham til egasi ongida uni hosil qiluvchi obyekt bilan birga muayyan tasavvurni hosil qilishi bois nafaqat obraz yoki ko‘rinishga, balki uni yuzaga keltirgan obyektga ham ishora qiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *yalt-yalt, yalt-yult, yarq* taqlid so‘zlari orqali yaltillash, yarqirash xususiyatini namoyon etuvchi obyektlarga (masalan, atlas ko‘ylak) bevosita ishora kuzatiladi. Ingliz va rus tillaridagi *clap, zip, boom, бах, бyx* taqlid so‘zlarida ham shu holat kuzatiladi. Bu taqlid so‘zlar orqali bevosita qarsak, portlash, o‘q ovozi kabilarga ishora anglashiladi.

¹³⁴ Лутфуллаева Д., Бoboxонов Л. Ко‘rsatilgan maqola. – В. 28–29.

¹³⁵ Қурбонова М. А. Ўзбек болалар нуткиннинг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. ... док. дисс. – Тошкент, 2006 – Б. 20-21.

Ba'zan bu turga mansub ba'zi taqlid so'zlar orqali bir necha obyektga ishora kuzatiladi. Ushbu holat ayni taqlid so'z anglatgan ko'rinish (holat)ning bir necha obyekt orqali hosil bo'lishini anglatadi. Masalan, o'zbek tilidagi *pir-pir* taqlid so'zi kiprik va lablar harakati natijasida hosil bo'ladigan ko'rinishni ifoda etadi.

Deyktik xususiyat, ayniqsa, tovushga taqlid so'zlarda yorqin namoyon bo'ladi. Tovushga taqlid so'zlar tabiatdagi narsa-hodisalar, kishilar, hayvon va parrandalar tovushiga nisbatan hosil qilinuvchi so'zlar bo'lgani bois, asosiy hollarda ularga ishora qiladi. Bu jihatdan, bu xususiyatli tovushga taqlid so'zlarni deyktik belgili birliklar tarkibiga kiritish mumkin bo'ladi. Ushbu tipdagi taqlid so'zlarda deyktik belgi yorqin namoyon bo'ladi, ularning deyktik xususiyati kontekstsiz ham anglashilib turadi. Ammo ba'zi tovushga taqlid so'zlarning deyktik xususiyati faqat kontekst asosida reallashadi. Masalan, o'zbek tilidagi *chi-chi* taqlid so'zi bevosita *sichqonga*, *chiq-chiq* taqlid so'zi *soatga* yoki *duk-duk* taqlid so'zi bevosita yurakka ishora qiladi. Ingliz tilidagi *knock knock* taqlid so'zi eshikning taqillashiga, *bow-wow* itning akillagan tovushiga nisbatan hosil qilingan bo'lib, bevosita ularga ishora qilib turadi.

Masalan quyidagi avstraliyalik Li Emmettning "Running Water" she'r parchasida suv tomchisining tomish jarayoni taqlidiy tovushini ko'rish mumkin:

Water plops into pond
splash-splash downhill
warbling magpies in tree trilling,
melodic thrill whoosh,
passing breeze flags flutter and flap
frog croaks, bird whistles babbling bubbles from tap.

Suv tomchisi tovushlariga taqlidni (kam miqdordagi suv yoki suyuqlik tovushini bildiruvchi so'zlarga *-le* qo'shimchasi qo'shiladi): *bloop, splash, spray, sprinkle, squirt, drip, drizzle* suv tomchisining tomish jarayonida tomchi tushayotgan joyga ham bogliqligini bildiradi. Turli tizimdagi tillarda so'z boyligini tizimli tashkil qilish usullaridan biri giponimiya jins-tur munosabatlari va real olam munosabatlarini ifodalashda maxsus leksik va semantik so'zlar qatorini

shakllantirish obyektiv til kategoriyasi bo‘lib, shery parchada *plops, splish-splash, whoosh, flutter and flap* taqlid so‘zlari orqali ifodalangan.

Ammo turli tillarda tovushga taqlidni bildiruvchi shunday so‘zlar ham borki, ularning aynan nimaning tovushiga nisbatan hosil qilinganini kontekstsiz aniqlab bo‘lmaydi.

O‘zbek tilidagi *taraq-turuq, tiq-tiq, tars-turs* kabi tovushga taqlid so‘zlar; ingliz tilidagi *boom, bang, gurgle, ding, dong, dung, dipp dopp dopp, rat-tat-tat, thump, plonk, crash, wham, knock knock, caboom, snip* taqlid so‘zlari tabiatdagi bir necha narsa-predmetlarning tovushiga taqlidan hosil qilinishi bois, ularning aynan nimaning tovushini ifoda etayotgani faqat muayyan kontekst asosida aniq bo‘ladi. Masalan, “*Oshxonadan taraq-turuq eshitildi. Oynisaning qo‘lidan o‘qlovi tushib ketgan edi*” gapida qo‘llangan *taraq-turuq* taqlid so‘zining qaysi narsa-predmetning tovushiga nisbatan hosil qilingani faqat kontekst asosida aniqlanadi. Quyidagi misolni qiyosan tahlil qilamiz:

Зу-зу-зу, зу-зу-зу... потом, конечно, скандал... (А.Волос. “Недвижимость”)

Berilgan gapda qo‘llangan *зу-зу-зу, зу-зу-зу* taqlid so‘zining qaysi narsa-predmetning tovushiga nisbatan hosil qilinganligini anglash qiyin. Buning uchun matnga murojaat qilish lozim bo‘ladi:

Его лишний час дома не удержишь – снова связался с каким-то ворьем, чует мое сердце! Зу-зу-зу, зу-зу-зу... потом, конечно, скандал...

Matndan anglashiladiki, *зу-зу-зу, зу-зу-зу* taqlid so‘zi yurak urishidan chiqadigan tovushga taqlidni anglatgan.

Taqlid so‘zlar ular ifoda etgan tovush yoki obraz (holat) “egasi”ga ham ishora qilib turadi. Umuman, taqlid so‘zlarni nimaga ishora qilishiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Narsa-predmetlarga ishora qiluvchi taqlid so‘zlar: *tap-tup, qars, yalt-yult, vag‘ir-vug‘ur, taq-taq; boom, bang, gurgle, ding, dong, dung, dipp dopp dopp, rat-tat-tat, thump, plonk, crash, wham, knock knock, caboom, snip; шилк-шёлк, тук-тук, бум, бух, тюн-тюн.*

2. Hayvon va parrandalarga ishora qiluvchi taqlid soʻzlar: *miyov-miyov, chi-chi, qu-qu, vov-vov, chirq-chirq, baa, bow wow, quack, moo, meow, wuff, oink, cock-a-doodle-doo, cuckoo, coo, tweet, chirp, chirrup*; *мяу, зав-зав, хрю-хрю, кар-кар, мяу-мяу*.

3. Shaxslarga ishora qiluvchi taqlid soʻzlar: *qah-qah, hang-mang, g'ing-ping, cho'lp-cho'lp, alang-jalang*; *hic, cough, ha ha ha, atchoo, nuff*; *u-u-u, mc-c-c...*

4. Tabiat hodisalariga ishora qiluvchi taqlid soʻzlar: *jimir-jimir, yilt-yilt, gumbur-gumbur;boom, bang, gurgle, ding, dong, dung, dipp, dopp-dopp, rat-tat-tat, thump, plonk, crash, wham, knock knock, caboom, snip*; *крях, трах, бум, бах, бoмм, у-у-у*.

Quyida M.Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari” asaridan olingan parchalarda qoʻllangan taqlid soʻzlarning deyktik xususiyatini aniqlaymiz:

1. *They made adventure of it, saying “Hist!” from time to time and giving orders in whispers.* (M. Twain. “The Adventures of Tom Sawyer”)

2. *Stop the ship, sir! Ting-a-ling-ling! The ship moved slowly in Tom’s direction.* (M. Twain. “The Adventures of Tom Sawyer”)

3. *Ben was eating an apple, and giving a long low sound, at intervals, followed by a ding-dong-dong, ding-dong-dong-he was imitating a steamboat.* (M. Twain. “The Adventures of Tom Sawyer”)

Birinchi gapdagi “Hist!” taqlid soʻzi dengizchilar uchun eshkaklarni aylantirishga undash maʼnosini beruvchi hushtakka ishora vazifasini bajaradi. Ushbu gapdagi *whispers* soʻzi bevosita “shivirlash” deb tarjima qilinsa-da, matnda hushtakka ishora qilib, deyktik vazifa bajargan.

Keyingi gapdagi *ting-a-ling-ling* taqlid soʻzi kema qoʻngʻirogʻi tovushini ifodalaydi. Matnda obrazli tarzda kema tovushini ifodalashda ushbu taqlid soʻz ishlatilgan. Uchinchi gapda esa parovoz tovushiga taqlid sifatida *ding-dong-dong* taqlid soʻzi berilgan.

Koʻrinadiki, ijodkor oʻz asarida turli predmetlarga ishora qilishda taqlid soʻzlardan foydalangan.

Nutq jarayonida ba'zan hammaga ma'lum va til egalari tomonidan birdek qabul qilingan taqlid so'zlar o'rniga ma'lum maqsadga yo'naltirilgan maxsus taqlid so'zlar hosil qilinadi. Bunday okkazional taqlid so'zlar ham deytik vazifa bajarishga xizmat qiladi.

E.Lirning "Little Pobble" she'riy to'plamidan olingan quyidagi misolda yozuvchining kitobxonni jalb qilish maqsadida okkazional taqlid so'z hosil qilgani kuzatiladi:

The Pobble swam fast and well

And when boats or ships came near him

He tinkledy-binkledy-winkled a big bell.

Ingliz madaniyatida qo'ng'iroq tovushiga nisbatan *ding-ding-dong* taqlid so'zi qo'llanadi. Bu she'riy parchadagi *tinkledy-binkledy-winkled* taqlid so'zi adib tomonidan qo'ng'iroqning tovushiga nisbatan hosil qilingan bo'lib, kichkina Poblga qo'ng'iroqni tushuntirish maqsadida ishlatilgan. Badiiy adabiyotda bu kabi okkazional taqlid so'zlardan foydalanish ifodada ekspressivlikni yuzaga keltiradi.

Xullas, turli tizimdagi tillarda taqlid so'zlar tovush yoki ko'rinish (obraz)ni ifoda etish bilan birga, ularni hosil qiluvchi predmet, shaxs, jonivorlar, hasharotlar va boshqa shu kabi manbalarga ishora qilib deytik vazifa bajaradi.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Taqlid so'zlar deytik xususiyatga ega bo'lgan birliklar sifatida ular bog'langan predmetlarga bevosita ishora qilish imkoniyatiga ega.
2. Taqlid so'zlarga xos bo'lgan yuqorida qayd etilgan pragmatik vazifalar ingliz va rus tillaridagi taqlid so'zlarga ham tegishlidir. Biroq turli tizimdagi tillarga mansub undov so'zlar presuppozitsiya hisobiga matnni semantik jihatdan boshqa til birliklari kabi, taqlid so'zlar ham til egalarining milliy-madaniy xususiyatlari, ruhiy holati va kommunikativ niyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli, turli tillarda ularning pragmatik ma'nolari orasida muayyan farqlar yuzaga keladi.
3. Taqlid so'zlar tovush yoki ko'rinish (obraz)ni anglatish bilan birga, til egasining bu tovushga salbiy yoki ijobiy munosabatini ham aks ettiradi.
4. Til egasining ruhiy holati uning nutqida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham til inson ruhiyatining ko'zgusi sifatida e'tirof etiladi. Ba'zida til egasi salbiy munosabatni bildiruvchi taqlid so'zdan ijobiy munosabatni ifodalash maqsadida ham foydalanishi mumkin.
5. Turli tizimdagi tillarda taqlid so'zlar orqali nutq egasining kommunikativ niyatiga asoslangan baho munosabati ifodalanadi. Ayniqsa, pragmatik baho munosabati modal so'zlar vositasida yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Modal so'zlarning so'zlovchining munosabatini aks ettira olishi ularning pragmalingvistik tahlil obyekti sifatida qaralishiga asos bo'ladi.
6. Nutq jarayonida ba'zida keng tarqalgan va til egalari tomonidan umumiy tarzda qabul qilingan taqlid so'zlar o'rniga, muayyan maqsadni ko'zlab yaratilgan maxsus taqlid so'zlardan foydalaniladi. Bunday okkazonal taqlid so'zlar ham deytik vazifani bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

XULOSA

1. Turli tizimdagi tillarda undov, taqlid, modal soʻzlarni pragmalingvistik aspektida tadqiq etish ularning kontekst, muloqot vaziyati, soʻzlovchi va tinglovchilning nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlari bilan bogʻliq xususiyatlarini aniqlashga yoʻl ochadi.

2. Turli tillarda undov, taqlid, modal soʻzlar kontekst, nutq vaziyati bilan bogʻliq holda voqelanishiga koʻra umumiy pragmatik xususiyatga ega boʻladi. Kontekstdan uzilgan undov, taqlid, modal soʻzlarning pragmatik xususiyati tinglovchi tomonidan toʻgʻri idrok etilmasligi mumkin. Turli tillarda undov, taqlid, modal soʻzlar til egalarining pragmatik maqsadi, voqelikka boʻlgan subyektiv munosabati, bahosi kabilarni ifodalashida farqli belgilari namoyon boʻladi.

3. Barcha tillardagi undov soʻzlar nutq egasining ichki ruhiy holati bilan bevosita bogʻliq boʻlganligi sababli, ular subyektiv munosabat yaqqol aks etadi. Har bir tilda shunday undov soʻzlar mavjudki, ular nutq egasining aniq hissiy kechinmalarini ifodalaydi, biroq ayrim undov soʻzlarda qanday his-tuygʻu ifodalanayotganligini faqat kontekst yoki nutq vaziyatiga qarab aniqlash mumkin boʻladi.

4. Turli tizimdagi tillarda undov soʻzlar soʻzlovchining biror bir fikr-mulohazasini yashirin ifodalashda ham qoʻllana oladi. Bunday undov soʻzlar presuppozitsiya hisobiga matnni semantik jihatdan murakkablashtiradi. Bunda matnda bayon etilgan axborotlardan biri bevosita ochiq ifodalanadi, boshqasi esa undov soʻzning presuppozitsiyasi sifatida yashirin aks etadi. Aynan shu presuppozitsiya tufayli matnning axborot sigʻimi kengayadi.

5. Turli tizimdagi tillarda modal soʻzlar: 1) nutq subyektining voqelikka munosabatini aks ettirganda; 2) ellipsisga uchragan gap yoki uning kesimi signalizatori vazifasini ado etganda; 3) gapda presuppozitsiya signali vazifasini bajarganda pragmatik vazifa bajaradi. Modal soʻzlarga xos bu vazifalarning reallashuvi har qanday holatda ham kontekst, nutq vaziyatini taqozo etadi.

6. Oʻzbek, ingliz va rus tillaridagi ayrim modal soʻzlar gap tarkibida presuppozitsiyaga ishora qilib, uni semantik jihatdan murakkablashtiradi. Bunday

vaqtda muayyan sabab bilan sintaktik strukturada bevosita ifodalanmagan, matndan tushirib qoldirilgan axborot ifodasi modal soʻzlar orqali tiklanadi va bunday vaqtda modal soʻzlar presuppozitsiya signalizatori vazifasini bajaradi.

7. Turli tizimdagi tillarda taqlid soʻzlar tovush yoki holatga taqlidni bildirishiga koʻra umumiy grammatik-semantik belgiga ega. Taqlid soʻzlarning vazifasi bu bilan cheklanmaydi, ular orqali nutqda subyektiv munosabat yoki presuppozitsiya ham ifodalanishi mumkin. Biroq bu xususiyatlar ularning doimiy belgisi emas. Taqlid soʻzlarning bu kabi pragmatik xususiyatlari til egalarining muayyan kommunikativ maqsadi asosida nutqda yuzaga chiqadi.

8. Barcha tillarda taqlid soʻzlarning deyktik xususiyati asosida pragmatik vazifa bajarish imkoniyati ancha keng boʻlib, bu belgi ularning birlamchi belgisi hisoblanadi. Taqlid soʻzlar til egasi tomonidan voqelikdagi turli tovushlar yoki koʻrinishlarga taqlidan hosil qilinuvchi soʻzlar boʻlgani bois ushbu tovush va koʻrinishlarni hosil qiluvchi predmetlarga bevosita ishora qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 40 б.
2. Мирзиёев Ш.М. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Адолат, 2017. – 112 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/4561730>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026-йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/5841063#5844411>

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

5. Мадраҳимов И. Сўз серқирралиги ва уни таснифлаш асослари. – Фарғона, 2005. – 103 б.
6. Мадраҳимов И. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. – Фарғона, 2008. – 143 б.
7. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 230 б.
8. Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2004. – 222 б.
9. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 294 б.
10. Рахимов С. Типология текстообразующих категорий: Семантика. Прагматика. Функция. – Андижан, 1990. – 239 с.

11. Раҳматуллаев. Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – 464 б.
12. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г, Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент, 2007. – 379 б.
13. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.
14. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 285 б.
15. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. – 39 б.
16. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 398 б.
17. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 448 б.
18. Элтазаров Ж. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – 169 б.
19. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – 164 б.
20. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент, 1966. – 154 б.

2) Xorijiy nashrlar

21. Abelin, Asa. *Studies in Sound Symbolism*. Doctoral dissertation, Göteborg University, 1999. – 279 p.
22. Alexander L. Y. *Longman English Grammar*. – 14th impr. – L.: Longman, 1996. – 374 p.
23. Anderson ER. *A grammar of iconism*. London: Associated University Publications, 1998.– 399 p.
24. Bloomfield L. *Language*. NY: Henry Holt Publications, 1933 – 580 p.

25. Bolinger D.L., Rime, Assonance, and Morpheme Analysis. Forms of English: Accent, Morpheme, Order. Edited by Isamu Abe and Tetsuya Kanekiyo. Cambridge, Harvard University Press, Tokyo, Hokuou, 1965.-334p
26. Bybee J., Fleischmann S. Modality in grammar and discourse: an introductory essay. – Amsterdam: John Benjamins, 1995. – P.14.
27. Collins Cobuild English Grammar. – L.: Harper. – Collins Publishers, 1995. – 486 p.
28. Damasio A.R. Descartes Error: Emotion, Reason and the Human Brain. New York: Avon Books, 1995. – 336 p.
29. Darwin C. The Expression of the Emotions in Man and Animals. London: Harper Collins, 1998. – 370 p.
30. De Haan F. Evidentiality and epistemic modality: Setting boundaries // Southwest journal of Linguistics, 1999. – 34 p.
31. De Haan F. The relation between modality and evidentiality // In R. Müller & M. Reis (Eds.), Modalität und Modalverben im Deutschen. Linguistische Berichte, Sonderheft 9. – Hamburg: H. Buske, 2001. – 220 p.
32. Dofs E, 2008. Onomatopoeia and Iconicity (A Comparative Study of English and Swedish Animal Sounds). MA Thesis, Karstads University. Falk JS, 1978. – 28 p.
33. Faroughi J, 2010. Review and analysis of a poem based on Jacobson. Journal of Persian language and literature. Vol. 7. Issue 35. January 2023. – 11 p.
34. Firth JR. The Use and Distribution of Certain English Sounds. Papers in linguistics: 1934-1951, Oxford University Press, 1935 – 233 p.
35. Frijda N.H. The emotions. Cambridge, 1986. – 558 p.
36. Hayes C.W. ABC'S of language and linguistics. A Practical Primer to Language Science 2nd Edition, 1994– 196 p.
37. Jespersen O. Language: its nature, development and origion. London: Allen and Unwin Publications, 1922 – 456 p.

38. Jespersen O. Symbolic Value of the Vowel in Linguistic, selected papers in English, French and German. Copenhagen: Levin and Munksgard Publications, 1933 – 472 p.
39. Jorgensen E.F. Perceptual Dimensions of Vowels in: To honor Roman Jakobson. Published by De Gruyter Mouton: The Hague Publications. <https://doi.org/10.1515/9783111604763-toc>, 1967.-816 p.
40. Linguistics and Language :A survey of basic concepts and implications. New York: John Wiley and Sons Publications. Wiley; 2nd edition (January 1, 1978). <https://www.amazon.com/Linguistics-Language-Survey-Concepts-Implications/dp/0471025291>. – 448 p.
41. Müller M. The Science of Language. Lectures Delivered at the Royal Institute in 1861 and 1863. New York: Charles Scribner's Sons Publications, 1891 – 410 p.
42. Nicola W. Describing Discourse. Oxford: Oxford University Publications, 2006– 224 p.
43. Sangoi KS. Typography in Publication Design. US: Onomatopoeia with Comic Books Publications, 2012 – 11 p.
44. Sapir E. A Study in Phonotic Symbolism. Journal of Experimental Psychology, 1929 – 239 p.
45. Saussure FD. Cours de Linguistique Générale. Paris: Payot Publications, 1916 – 496 p.
46. Seyyedi H, Akhlaghi E. The Study of Onomatopoeia in the Muslims' Holy Write: Qur'an. Language in India, 2013 – 9 p.
47. Thomas T.W, Clara C.H. Charecteristics of Onomatopoeia. Journal of Linguistic. Discovering Linguistics. Volume 6, 2004 – 225 p.
48. Ultan R. Size-sound symbolism. NY: Universals of human Language Publications, 1978 – 17 p.
49. Vahidian K. The music of phonemes and words. Danesh Publication, 1990. – 7 p.

50. Vestergaard T, Schroder K. The Language of Advertising. Oxford: Blackwell Publications, 1985– 198 p.
51. Yule G. The Study of Language. 3rd edn. Cambridge: Cambridge University Publications, 2006– 285 p.
52. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. – М., 1976. – 382 с.
53. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – М., 1988. – 338 с.
54. Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистики. Вып. XVI. – М., 1986. – 385 с.
54. Баранов А.Г. Функционально-прагматическая концепция текста: дисс. ... док. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 1993. – 182 с.
55. Беляева Е. И. Функционально-семантические поля модальности в английском и русском языках. – Воронеж, 1985. – 180 с.
56. Богданов В.В. Лингвистическая прагматика и ее прикладные аспекты // Прикладное языкознание. Спб.: Изд-во СПбГУ, 1996. – 3 с.
58. Волек Б. Типология эмотивных знаков // Язык и эмоции. Отв. ред. В.И. Шаховский. – Волгоград: Перемена, 2009. – 87 с.
57. Дейк ван Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – 310 с.
58. Ермолаева Л. С. К вопросу о разграничении модальных слов и частиц. На материале немецкого и английского языков // В кн.: Иностранные языки в высшей школе. – М., 1963. Вып. 4. – 30 с.
59. Желвис В.И. Эмотивный аспект речи. Психолингвистическая интерпретация речевого воздействия. – Ярославль: Изд-во Ярослав. пед. ин-та, 1990. – 81 с.
60. Иванова И. П., Бурлакова В. В., Почепцов Г. Г. Теоретическая грамматика современного английского языка. – М., 1981. – 285 с.
61. Карпова Л.А. Теоретическая грамматика английского языка. - Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1983. – 245 с.

62. Касевич В.Б. Семантика. Синтаксис. Морфология. – М.: Наука, 1988. – 309 с.
63. Максимова С.Э. Регулятивная функция междометий в диалоге // Тверской лингвистический меридиан. –Тверь, 1999. – № 2. – 208 с.
64. Метцлер А.А. Прагматика коммуникативных единиц. – Кишинёв, 1990. – 104 с.
65. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – М., 1985. – 385 с.
66. Падучева Е.В. Высказывание и его соотнесенность с действительностью. – М., 1985. – 293 с.
67. Падучева Е.В. Семантические исследования. – М., 1996. – 479 с.
68. Падучева Е.В., Крылов С.А. Дейксис: общетеоретические и прагматические аспекты // Языковая деятельность в аспекте лингвистической прагматики: Сб. обзоров. – М., 1985. – 504 с.
69. Петров В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII. – М., 1985. – 500 с.
70. Почепцов О.Г. Основы прагматического описания предложения. Киев, 1986. – 115 с.
71. Серл Дж. Р. Классификация иллокутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. Теория речевых актов. – М.: Прогресс, 1986. – 422 с.
72. Сусов И.П. Деятельность, сознание, дискурс и языковая система // Языковое общение: процессы и единицы. / Под ред. Сусова И.П. – Калинин: Изд-во Калинин, ун-та, 1988. – 9 с.
73. Сусов И.П. Коммуникативно-прагматическая лингвистика и её единицы // Прагматика и семантика речевых образований. – Калинин, 1984. – 5 с.
74. Сухих С.А. Типология речевого общения // Язык, дискурс и личность. – Тверь: ТГУ, 1990. – 5 с.

75. Сухих С.А., Зеленская В.В. Прагмалингвистическое моделирование коммуникативного процесса. – Краснодарь: КГУ, 1998. – 160 с.

76. Теоретическая грамматика английского языка / Отв. ред. В.В. Бурлакова. – Л.: Высшая школа, 1983. – 245 с.

77. Триполская Т.А. Эмотивно-оценочный дискурс. – Новосибирск: Изд-во НГПУ, 1999. –165 с.

78. Филимонова О.Е. Язык эмоций в английском тексте. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2001. – 259 с.

III. Lug‘atlar

79. Ефремова Т. В. Современный толковый словарь русского языка. В 3 т. Т. 1. – М.: АСТ, Астрел- Харвест, 2006. – 856 с.

80. Розенталь Д. Э. Словарь-справочник лингвистических терминов / Д. Э. Розенталь, М. А. Теленкова. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: Просвещение, 1985. – 399 с.

81. Longman Advanced American Dictionary. Pearson Education. 2007. 1863 p.

82. Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдли. 80000дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси / Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т., ва бошқалар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. Ж. 1. – Б. 600.

IV. Badiiy adabiyotlar

83. Clarence Major. Dirty bird blues. Los Angeles. Mercury House; First edition (January 1, 1996). – 279 p.

84. Clive Sansom. Clocks and watches. Poemhunter.com - The World's Poetry Archive, 2012. – 12 p.

85. Clifford.D.Simak. Ring around the Sun. United States, 1953. – 242 p.

86. William Congreve. The Way of the World . – USA. 2015. –196 p.

87. Бенционович Г.О. Сказка с подробностями. – Украина. 1989. – 208 с.
88. Волос А. Недвижимость. – М.: Издательство: Вагриус, 2001. – 352 с.
89. Daniella Steel. The right time.. Delacorte Press, 2017. – 429 p.
90. Danielle Steel. Against All Odds. Delacorte Press, 2017 – 352 p.
91. Донцова Д. Билет на ковер-вертолет. – М.: ЭКСМО, 2006. – 374 с.
92. Достоевский Ф.М. Идиот. Полное собрание сочинений: [в 30 т.] Наука, 1990. – 348 с.
93. Ильф И., Петров Е. Двенадцать стульев. – М.: Издательство АСТ, 1928. – 448 с.
94. London J. Grit of women. Saga Yegmont International, 2020. – 15 p.
95. Monroe M.A. The butterfly's daughter. – New York, 2011. – 275 p.
96. Островский А.Н. Свои люди – сочтемся. – М, 2022. – 256 с.
97. Rudyard Kipling. Indian Tales. – USA, 2008. – 488 p.
98. Twain M. The Adventures of Tom Sawyer. The American publishing company, Hartford, Conn, 1884. – 246 p.
99. Толстая Т. Н. Кыс. – М.: Эксмо, 2008. – 386 с.
100. Тўхтабоев Х. Сарик девни миниб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 236 б.
101. Хоссейни Х. Бегущий за ветром. – М.: Фантом Пресс, 2017. – 416 с.
102. Хоссейни Х. Тысяча сияющих солнц. – М.: Фантом Пресс 2013. – 480 с.
103. Чўлпон. Кеча ва кундуз. Танланган асарлар. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 347 б.
104. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 463 б.
105. Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. – Тошкент: MERIYUS, 2011. – 547 б.

V. Диссертация ва авторефератлар

106. Аваков С.А. Звукоподражательные слова русского языка в сравнении с английским и немецким: Дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2007. – 147 с.
107. Беляева И. В. Прагматическое содержание количественной оценки: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ростов на Дону, 2005. – 152 с.
108. Бердникова А.Г. Речевой жанр благодарности: Когнитивный и семантико-прагматический аспекты: Дисс. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2005. – 224 с.
109. Бурханов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишлар прагматикаси (пресуппозицион аспект): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 27 б.
110. Дагуров Г.В. Междометия как особый разряд слов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1960. – 15 с.
111. Камилджанова Р.А. Модальные слова в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 16 с.
112. Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 29 б.
113. Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.
114. Поспелова А.Г. Речевые приоритеты в английском диалоге: Докт. дисс. в виде науч. докл. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2001. – 72 с.
115. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. ном. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. – 23 б.
116. Саидов С. Модальные слова в немецком и узбекском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964. – 23 с.

117. Сафаров Ш. Этносоциопрагматика речевого общения (принципы сопоставительно типологического описания): Автореф. док. филол. наук. – Л., 1991. – 51 с.
118. Тоҳиров З. Ўзбек тилида прагматик семаларнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатларнинг юзага чиқиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент. 1994. – 25 б.
119. Элтазаров Ж. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 43 б.
120. Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланishi (шахслараро муносабат асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.
121. Хайназарова М. Сўроқ гапларда шакл ва мазмун номувофиқлиги: Филол. фан. ном. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 25 б.
122. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент. 1993. – 26 б.
123. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матнининг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент. 2001. – 49 б.
124. Каган С.Е. Модальные слова английского языка в различных по цели высказывания типах предложений: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Харьков, 1953. – 237 с.
125. Негматова Д.С. Структурно-семантический анализ модальных слов в английском и таджикском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2013. – 26 с.
126. Князева Н.Л. Модальные слова в системе частей речи современного английского языка (Аспекты взаимодействия классов слов): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993. – 15 с.
127. Романова О.В. Модальные слова в современном английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ростов н/Д, 1997. – 182 с.

128. Турсунова Ф.Р. Структурно-семантический анализ звукоподражательных слов в английском и таджикском языках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Душанбе, 2013. – 24 с.

129. Юсифов Н.М. Лексико-семантические особенности английских звукоподражательных слов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 1986. – 27 с.

130. Ёдгоров Ж.Ж. Ўзбек тилидаги ундов ва таклид сўзлар лингвопоэтикаси. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2024. – 14 б.

VII. Илмий тўплам, журнал ва газеталардаги мақолалар

131. Лутфуллаева Д. Ўрнига кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – №5. – Б. 46-48.

132. Мамажонов А., Ибрагимова Э. Киноя – субъектив муносабат ифодалаш усулларидан бири. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2000. – № 4-сон. – Б. 14-16.

133. Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1986. – № 6. – Б. 28-31.

134. Нигматов Н., Воҳидова Н., Тоирова Г. Структурал тилшуносликдан прагмалингвистикага // Хорижий филология, –Тошкент, 2007. – № 4. – Б. 38-416.

135. Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1986. – №6. – Б. 42-45.

136. Нурмонов А., Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2001. – №4. – Б. 56-57.

137. Холматова В.Н. Инглиз тилидаги аниқлик мазмунидаги модал сўзларнинг прагматик вазифалари ва гапда жойлашиш тартиби // Экономика и социум. –Тошкент, 2023. – №2 (105). – Б. 11.

138. Қўлдошев Б. Модаллик категорияси ва субъектив баҳо муносабатлари // Тил ва адабиёт таълими, –Тошкент, 2000. – №6. – Б. 64-68.

VIII. Интернет сайтлари

137. www.google.com
138. www.iupr.ru
139. www.simonspeakers.com
140. www.jrspelt.com
141. www.languageinindia.com
142. www.writtensound.com
143. www.dyslexia-reading-well.com
144. www.kizphonics.com/phonics-phoneme-songs
145. www.ziyouz.com
146. <http://www.booksite.ru>
147. www.PoemHunter.com
148. www.SimonandSchuster.com
149. www.100bestbooks.ru